



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 5-son

VOLUME 3 / ISSUE 5 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

TAHRIR HAY'ATI:

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

N. RAMAZONOV

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent – mas'ul muharrir

JOAN BLUM

Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori

MARCIN MICHAL WISZOWATY

Polshaning Gdansk universiteti professori

A. HOSHIMXONOV

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. AXMEDSHAYEVA

TDYU Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

I. TO'RABOYEV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. XOLBOYEV

O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi kafedra mudiri, y.f.n., dotsent

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

Z. ESANOVA

TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

J. NE'MATOV

TDYU Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. KURBANOV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. KUCHKAROV

TDYU Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

“Юриспруденция” правовой научно-практический журнал

“Jurisprudence” legal scientific-practical journal

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN: 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 YO'LDOSHEV AZIZJON ERGASH O'G'LI**
Jamoatchilik fikrini o'rganishni huquqiy
tartibga solish masalalari
- 16 ALLAKULIYEV MIRJALOL
DAVRONBEKOVICH**
Norma ijodkorligi faoliyati: son va sifat tahlili
- 22 TURSUNOVA SABINA RAVSHANOVNA**
Turizm xavfsizligini ta'minlovchi huquqiy
hujjatlar tahlili va tasnifi

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 33 GULOMOV AKMALJON
SHUKURILLAYEVICH**
Fuqarolik huquqida suksessiya instituti
va uning qo'llanishi
- 42 IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA,
RAZAKOVA FARANGIZ KARIM QIZI**
Xalqaro tijorat arbitrajida maxfiylik tamoyilini
qo'llashning huquqiy masalalari
- 54 ISAKULOV ABDUAZIZ**
Not a party, not a problem: the dilemma of
extending arbitration clause to non-signatory
states
- 60 SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**
Distinctive features of corporate dispute
resolution

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI Olish.
KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

72 NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA

Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari

82 TAIROVA GULMIRA MURODJONOVNA

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning Buyuk Britaniya modeliga xos xususiyatlar

89 ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH

Misr Arab Respublikasi jinoyat qonunchiligida jazoni yengillashtirish instituti

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

99 СУЮНОВА ДИЛЬБАР ЖОЛДАСБАЕВНА

Соблюдение сроков содержания под стражей при окончании предварительного следствия и на стадии судебного разбирательства

107 NURMATOV BOBIR ABDUSATTOROVICH

Inssenirovka qilish orqali sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh qilishning ayrim usullari tavsifi

**114 YERMEKBAYEV BAUIRJAN
AMANTAYEVICH**

Tintuv tushunchasi va tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

126 YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI

COVID-19 pandemiyasi davrida tibbiyot sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy jihatlar

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./ORFK6897
UDC: 342.722.32(045)(575.1)

JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Yo'ldoshev Azizjon Ergash o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori v. b.,

yuridik fanlar doktori

ORCID: 0000-0002-5821-2714

e-mail: a.yoldoshev@tsul.uz

Annotatsiya. Maqolada jamoatchilik fikrini o'rganishga oid O'zbekiston qonunchilik hujjatlari, amaliyoti, xalqaro standartlar va xorijiy tajriba tadqiq etildi. Tadqiqotning maqsadi ushbu jarayonning huquqiy asoslarini takomillashtirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishdir. Tadqiqot jarayonida milliy qonunchilikda belgilangan "jamoatchilik fikrini o'rganish" tushunchasi takomillashtirishga muhtoj ekanligi va tartibi ishlab chiqilmaganligi, uning shakllari ilmiy muloqotda mavjud emasligi, vositalari o'z ma'nosiga mos kelmasligi va boshqa muammolar aniqlangan. Jamoatchilik fikri va uni o'rganish to'g'risidagi qarashlar, amaliyot va qonunchilik hujjatlari: tahlil, funksional, tuzilmaviy, qiyosiy, rasmiy yuridik va boshqa usullar vositasida tadqiq etildi. Natijada jamoatchilik fikri va uni o'rganish mazmuni ochib berildi; milliy qonunchilikda ushbu jarayonning umumiy qoidalari, jumladan, uning sifati va xolisligini baholash uchun e'lon qilinishi shart bo'lgan ma'lumotlarni belgilash, o'rganish natijalarini referendumda ovoz berish va u boshlanishidan bir kun oldin e'lon qilishni taqiqlash zarurati asoslandi. Muallif jamoatchilik fikrini o'rganishning uslubiy tavsiyalarini O'zbekiston sotsiologlari assotsiatsiyasi va Markaziy saylov komissiyasi, mazkur tavsiyalar va bu boradagi huquqiy me'yorlar ijrosi ustidan nazoratni saylov komissiyalari zimmasiga yuklash taklifini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, ommaviy ishtirok, jamoatchilik fikri, o'rganish usullari, so'rov, uslubiy ta'minlash, saylov, referendum.

ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ

Юлдошев Азизжон Эргаш угли,

доктор юридических наук, и. о. профессора

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье исследованы законодательство и практика Узбекистана, международные стандарты и зарубежный опыт изучения общественного мнения. Целью исследования является совершенствование правовых основ этого процесса и устранение имеющихся недостатков. В ходе исследования национального законодательства установлено, что понятие изучения общественного мнения нуждается в совершенствовании, не разработан порядок его проведения, формы и средства его осуществления, соответственно, они отсутствуют в научном обороте и не применяются по смыслу, также были выявлены другие проблемы. Взгляды, практика и нормативные акты об общественном мнении и его изучении исследовались посредством: функционального, структурного, сравнительного, формально-юридического анализа и других методов. В результате было раскрыто содержание общественного мнения и его изучения, были обоснованы: определение в национальном законодательстве общих правил этого процесса, в том числе необходимость определения информации, которая должна быть опубликована для оценки качества и беспристрастности

результатов изучения; необходимость запрета их публикации на референдуме и за день до его начала. Автор выдвинул предложение о возложении на Ассоциацию социологов Узбекистана и Центральную избирательную комиссию разработки методических рекомендаций по исследованию общественного мнения, а контроль за выполнением этих рекомендаций и правовых норм в этой сфере – на избирательные комиссии.

Ключевые слова: общественный контроль, публичное участие, общественное мнение, методы исследования, опрос, методическое обеспечение, выборы, референдум.

ISSUES OF LEGAL REGULATION OF PUBLIC OPINION STUDY

Yuldoshev Azizjon Ergash ugli,
Tashkent State University of Law,
Acting Professor, DSc in Law

Abstract. The article examines the legislation and practice of Uzbekistan, international standards, and foreign experience in studying public opinion. The purpose of the study is to improve the legal basis of this process and eliminate existing shortcomings. During the study of national legislation, it was established that the concept of “studying public opinion” needs to be improved, the procedure for its implementation has not been developed, the forms and means of its implementation are accordingly absent from scientific circulation and have not been applied according to their meaning, and other problems have been identified. Views, practices, and regulations about public opinion and its study were studied through analysis, functional, structural, comparative, formal, legal, and other methods. As a result, the content of public opinion and its study were revealed, and the definition in national legislation of the general rules of this process was justified, including the need to determine the information that should be published to assess the quality and impartiality of the results of the study and the need to prohibit their publication during a referendum and on the day before it starts. The author put forward a proposal to entrust the Association of Sociologists of Uzbekistan and the Central Election Commission with the development of methodological recommendations for the study of public opinion and control over the implementation of these recommendations and legal norms in this area with the election commissions.

Keywords: public control, public participation, public opinion, research methods, poll, methodological support, elections, referendum.

Kirish

O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida jamoatchilik fikrini o'rganish jamoatchilik nazoratining shakli sifatida mustahkamlandi. Biroq jamoatchilik fikrining nisbatan sust o'rganilayotgani uning huquqiy asoslari va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish, aniqlangan kamchiliklarni xalqaro standartlar va xorijiy tajribani inobatga olgan holda bartaraf etish zaruratini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi O'RQ-474-sonli Qonuni 13-moddasida ilk bor jamoatchilik fikrini o'rganish tushun-

chasiga ta'rif berildi. Shuningdek, ushbu moddada jamoatchilik fikrini o'rganishni davlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonunchilikka muvofiq o'tkazishi mumkinligi belgilandi. Biroq hozircha jamoatchilik fikrini o'rganish milliy qonunchilikda tartibga solinmagan.

Jamoatchilik fikrini hisobga olish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Senati va Xalq deputatlari kengashlari faoliyatining asosiy prinsiplaridan biridir. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari axborot xizmatlari zimmasiga jamoatchilik fikrini o'rganish vazifasi yuklangan. Bunday axborot xizmatlari Oliy Majlis

palatalari va boshqa davlat organlarida ham tashkil etilgan bo'lsa-da, jamoatchilik fikrini o'rganish va hisobga olish tartibga solinmagan.

2006-yil 11-oktabrdagi O'RQ-60-sonli Qonunning 16-moddasida ham qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritguniga qadar jamoatchilik fikrini fuqarolik jamiyati institutlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari vakillari ishtirokida o'rganish, eng ahamiyatlisi, uni o'rganish tartibi va shaklini o'zi belgilash huquqi berilgan. Biroq qonunchilik tashabbusi subyektlari tomonidan ushbu huquq ro'yobga chiqarilmagan, umuman, ilmiy muhoqotda "jamoatchilik fikrini o'rganish shakllari" tushunchasi mavjud emas.

2021-yil 20-apreldagi O'RQ-682-sonli Qonunning 23-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisida jamoatchilik fikrini o'rganishning shakllari emas, balki aniqlashning vositalari belgilangan. Ushbu moddaga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda uni ishlab chiquvchi ayrim fuqarolarning takliflari, ommaviy axborot vositalarining materiallari, ilmiy va boshqa tashkilotlar, olimlar hamda mutaxassislarning maslahatlari va tavsiyalari, jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa vositalari ma'lumotlarini umumlashtiradi hamda ulardan foydalanadi.

Yuqoridagilardan jamoatchilik fikrini o'rganish shakllari, vositalari va tartibi milliy qonunchilikda batafsil belgilanmagani aniqlandi. Bunday holat jamoatchilik fikrini samarali o'rganishga to'siq bo'lsa ham, milliy tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilayotgani yo'q. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish zarurati tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlarda tijorat [1, 8294-b.], siyosat [2, 507–531-b.] va boshqa sohalarida jamoatchilik fikrini o'rganish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, turli fanlar doirasida tadqiq etilgan. Natijada tijorat sohasida jamoatchilik fikrini o'rganishning xalqaro standartlari ishlab chiqildi [3], saylovda ijtimoiy so'rovlar

o'tkazishning huquqiy asoslari shakllandi [4] va ularni takomillashtirish masalalari keng tadqiq etilmoqda [5]. Erishilgan natijalar jamoatchilik fikrini o'rganishni huquqiy tartibga solish uchun zamin yaratmoqda.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklar, xalqaro tajriba va qarashlar tahlili O'zbekistonda jamoatchilik fikrini nafaqat saylovda, balki boshqa ommaviy ishlar yuzasidan o'rganish subyektlari, vositalari, usullarini belgilash, natijalarini baholash, rasmiylashtirish, e'lon qilish va ko'rib chiqish tartibini ishlab chiqish zaruratini ko'rsatmoqda.

Jamoatchilik fikrini o'rganishni huquqiy tartibga solish zaruratini asoslash uchun uning tushunchasi davlat boshqaruvi, siyosiy fanlar va demokratiya nazariyalari doirasida qiyosiy tahlil, mantiqiy, rasmiy-yuridik, tuzilmaviy, tizimli, funksional, ekstrapolyatsiya va boshqa usullar vositasida tadqiq etildi.

Ommaviy ishlar yuzasidan jamoatchilik fikri insonlar irodasini ifoda etishi kabi unsurga ega ekanligi va aholini muayyan masalani hal qilishga safarbar qilish funksiyasini bajarishi tufayli uni o'rganish va natijalarini e'lon qilishni huquqiy tartibga solish zarurati aniqlandi. Ushbu zarurat saylovda jamoatchilik fikrini o'rganish, jumladan, ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish huquqiy tartibga solinishi misolida asoslab berildi.

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganishga berilgan ta'rifning bahsli ekanligi aniqlandi. Jamoatchilik fikrini o'rganish mantiqiy tahlil qilinib, uning shakllari mavjud emasligi hamda vositalari deb yuritilgan referendum, fuqarolar murojaatlari va boshqalar, aslida, uning predmeti ekanligi asoslab berildi. Jamoatchilik fikrini o'rganish standartlarini tasdiqlash va umumiy qoidalarini qonunchilikda belgilash, ushbu qoidalar ijrosini nazorat qilishni Markaziy va hududiy saylov komissiyalariga yuklash taklifi ilgari surildi.

Material va metodlar

Qiyosiy tahlil va rasmiy huquqiy usullar asosida saylov jarayonida ijtimoiy so'rov

o'tkazishning huquqiy asoslari o'rganildi. Ushbu jarayonda jamoatchilik fikrini o'rganishning boshqa usullari ahamiyati ochib berildi va ularni huquqiy tartibga solish zarurati asoslandi. Saylovda ijtimoiy so'rov o'tkazish tartibga solingani va tijorat sohasidagi xalqaro standartlarni inobatga olgan holda, ekstrapolyatsiya usuli qo'llanildi, ya'ni ushbu tajribani boshqa sohalarga joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekistonda ilk bor jamoatchilik fikrini o'rganish tushunchasiga 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-sonli Qonunning 13-moddasida ta'rif berildi. Ushbu moddaga ko'ra, jamoatchilik fikrini o'rganish turli ijtimoiy guruhlarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining qonunchilik talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratdir.

Yuqoridagi ta'rifga ayrim tuzatishlar kiritish ehtiyoji aniqlandi. Avvalo, sanab o'tilgan masalalar jamiyat, ya'ni ommaviy manfaatlarini tashkil qiladi. Ikkinchidan, ommaviy ishlar nafaqat davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari, balki boshqa shaxslar tomonidan ham ta'minlanadi. Uchinchidan, jamoatchilik fikri emas, balki uning aks etishi xolisligi baholanadi.

Aniqlangan kamchiliklarni inobatga olgan holda, jamoatchilik fikrini o'rganishga "turli ijtimoiy guruhlarining qonunchilik me'yorlari, fuqarolar, yuridik shaxslarning huquqlari, qonuniy manfaatlari va boshqa ommaviy ishlar to'g'risidagi fikrini aniqlash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etish" degan ta'rif berish uning mazmunini xolis aks ettiradi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish ta'rifidan u ommaviy manfaatlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq barcha faoliyat shakllarini qamrab

olishi ayon bo'ladi. Biroq qonunchilik hujjatlarida referendum, jamoatchilik muhokamalari va boshqa ommaviy ishtirok shakllari jamoatchilik fikrini o'rganishning vositalari deyilishi yoki uning shakllarini belgilash to'g'risidagi me'yorga qo'shilib bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'rganish shakllari bo'lmaydi, u muayyan usullar yordamida amalga oshiriladi. O'rganish moddiy, jumladan, uskunalar, shuningdek, matematik, til va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan referendum, fuqarolar murojaatlari, jamoatchilik muhokamalari va boshqa ommaviy ishtirok shakllarini jamoatchilik fikrini o'rganish vositalari [6, 231-b.] deb bo'lmaydi.

Jamoatchilik fikri ongning: (1) odamlar faoliyatida obyektivlashgan hamda (2) bevosita o'zidagi faktlarda namoyon bo'ladi. Birinchi faktlarni o'rganish uchun kuzatish, hujjatlar va amaliy faoliyatni tahlil qilish, ikkinchi faktlarni o'rganish uchun so'rov usullari shakllangan [7, 64-65-b.]. Ushbu usullarning turlari ko'p bo'lib, ular so'rov va so'rov bo'lmagan usullarga tasniflanadi.

So'rov bo'lmagan, jumladan, amaliy faoliyatni tahlil qilish usuli bilan ham nodavlat tashkilotlar yetakchilari va boshqa shaxslar, ham jamoaviy faoliyat – referendum, saylov, jamoatchilik muhokamalari, mitinglar va boshqalar o'rganiladi. Demak, referendum va ommaviy ishtirokning boshqa shakllari jamoatchilik fikrini o'rganish vositalari emas, balki predmeti hisoblanadi.

Ongning o'zida aniqlashga ehtiyoj bo'lgan faktlar, ya'ni fikrlar ko'p bo'lib, buning uchun so'rov usullari qo'llanadi. So'rov va so'rov bo'lmagan usullar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi [8, 223-231-b.]. Masalan, sifat tadqiq etish: chuqurlashtirilgan intervyu, fokus guruhlar, hujjatlarni tahlil qilish hamda miqdoriy tadqiq etish: anketalashtirish, intervyu olish (jumladan, telefon orqali) usullariga ajratiladi [9, 79-b.].

Aynan ushbu usullarni qo'llash standartlarini ishlab chiqish [10] va huquqiy tartibga solish zarurati mavjud.

Jamoatchilik fikrini o'rganish usullarining ko'pligi va doimiy takomillashib borishi tufayli ularni qo'llash qoidalarini qonunchilik hujjatlarida belgilash murakkab masala. Shuning uchun ushbu qoidalarining kodeks shaklida O'zbekiston sotsiologlari assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilishi va Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir [11]. Bunday kodeks Qozog'istonda ham qabul qilingan [12]. Bugungi kunga qadar jamoatchilik fikrini o'rganish usullari bo'yicha bir necha uslubiy qo'llanmalar nashr qilingan [13, 56-b.].

Shuningdek, jamoatchilik fikrini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari barobarida davlat organlari ham o'rganishi ijobiy holatdir. Bu jamoatchilik nazorati subyektlariga berilgan huquq bo'lsa, davlat organlari zimmasiga yuklangan majburiyatdir. Ushbu majburiyat davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'ulligidan kelib chiqadi hamda davlat boshqaruvini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Demak, amaldagi qonunchilik hujjatlari-ga ko'ra, jamoatchilik fikrini davlat organlari va jamoatchilik nazorati subyektlari o'zlari mustaqil yoki birgalikda o'rganishlari mumkin. Ushbu holatni qonunchilik hujjatlarida belgilash, jamoatchilik fikrini o'rganishning umumiy qoidalari va standartlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Internet tarmog'idan O'zbekistonda, asosan, "Jamoatchilik fikri" markazi, Yuksalish umummilliy harakati, "Yu-Report" portali va "Kun.uz" onlayn nashri tomonidan o'tkazilgan so'rovlar to'g'risida ma'lumot topish mumkin. Ushbu so'rovlar orasida davlat organlaridan faqat Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan bir marta "Yu-Report" portali bilan birgalikda o'tkazilgan so'rov to'g'risida ma'lumot mavjud [14].

Yuqoridagi holat so'rov barobarida jamoatchilik fikrini o'rganishning boshqa usullarini qo'llash va ushbu jarayonni tartib-

ga solishni taqozo qiladi. Chunki bir nechta fuqaro fikrini o'rganib, ularni jamoatchilik fikri sifatida taqdim etish davlat organlari faoliyati va fuqarolar xulq-atvoriga ta'sir qilish imkonini beradi. Ushbu vazifani bajarishda xorijiy mamlakatlardagi saylovlarda ijtimoiy so'rovlar o'tkazishni huquqiy tartibga solish amaliyoti namuna bo'ladi.

Aksariyat davlatlarda jamoatchilik fikrini o'rganish va natijalarini e'lon qilish qoidalari belgilangan bo'lib, ular ijrosini nazorat qiluvchi maxsus organlar faoliyat yuritadi [15]. O'zbekistonda jamoatchilik fikri so'rovlari natijalari, saylov yoki referendum natijalari taxminlarini chop etish (e'lon qilish) tartibi buzilgani uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lsa ham, bunday tartib hozirgacha mavjud emas.

Hozircha O'zbekistonda Saylov kodeksining 103-moddasida saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin jamoatchilik fikri so'rovlari natijalari, saylov natijalari prognozlari, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni e'lon qilish (hammaga ma'lum qilish), shu jumladan, axborot tarmoqlari, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirishni taqiqlash bilan cheklanilgan. Referendumda esa bunday taqiq ham keltirilmagan.

Fransiyada 1977-yil 19-iyulda qabul qilingan saylovlarda jamoatchilik fikrini o'rganish natijalarini nashr etish va tarqatishni tartibga soluvchi 77-808-sonli qonun [4] e'tiborga loyiq. Ushbu qonun ijrosini nazorat qilish uchun Jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha komissiya tuzilgan. Hech kim ushbu qonun-qoidalarga rioya qilish majburiyati to'g'risida yozma deklaratsiyani Komissiyaga topshirmasdan so'rov o'tkaza olmaydi, aks holda, so'rov natijalarini nashr etish va tarqatishga ruxsat berilmaydi.

Saylov va referendumlar bilan bog'liq so'rov o'tkazadigan organlar Jamoatchilik fikrini o'rganish komissiyasiga so'rov ma'lumotlari nashr etilgan yoki tarqatilgan materiallarni topshirishi, shuningdek, quyidagilar

ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etishi shart: suhbatdoshlarni tanlash usuli; namunaning shakllanishi va tarkibi; so'rov o'tkazilgan sharoit; berilgan savollarning to'liq matni; har bir savolga javob bermagan shaxslar soni to'g'risidagi ma'lumot; nashr etilgan natijalarni qayta ishlash chegaralari; e'lon qilingan natijalarni bilvosita olish usuli (agar bunday usul ishlatilgan bo'lsa). Shu kabi komissiyalar boshqa davlatlarda [16] ham tuzilgan.

Jamoatchilik fikrini o'rganishni huquqiy tartibga solish zarurati Marketing va ijtimoiy tadqiqotlar amaliyoti, jamoatchilik fikrini o'rganish va ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha kodeksning [3] ishlab chiqilishidan ham ayon bo'ladi. Ushbu kodeks 1977-yilda Xalqaro savdo palatasi (ICC) hamda Yevropa jamoatchilik fikri va marketing tadqiqotlari jamiyati (ESOMAR) tomonidan tasdiqlangan bo'lib, 1986-, 1994- va 2007-yillarda qayta ko'rib chiqilgan va takomillashtirilgan. Ushbu kodeks 12 ta moddadan iborat bo'lib, unda jamoatchilik fikrini o'rganishning asosiy prinsiplari, ma'lumotlarni ixchamlashtirish, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish, ikkilam-chi ma'lumotlardan foydalanish, axborotni muhofaza qilish va xavfsizlik, mijozlar oldi-dagi majburiyatlar, axborotning ochiqligi, jamoatchilik fikrini o'rganish natijalarini e'lon qilish me'yorlari, kasbiy va yuridik majburiyatlar belgilangan.

Tadqiqotchilarning har doim axloqiy me'yorlarga rioya qilishlari va zarar yetkazadigan yoki ijtimoiy tadqiqotlar va jamoatchilik fikri so'rovi xolisligiga shubha uyg'otadigan har qanday harakatlardan saqlanishlari "ICC" va "ESOMAR" Kodeksi-ning asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilangan. Kodeksning 8-moddasiga muvofiq, tadqiqot natijalarini nashr qilishda uning sifati va xulosalari to'g'riligini baholash uchun zarur ma'lumotlar jamoatchilikka yetarli miqdorda taqdim etilishi kerak [3]. Ushbu va boshqa qoidalar nafaqat iqtisod, balki davlat boshqaruviga ham tatbiq etilishi egri siyosiy manipulyatsiya va boshqa salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

- jamoatchilik fikrini o'rganish usullarini aniqlash va ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, huquqiy tartibga solish zarurati aniqlandi;

- jamoatchilik fikrini o'rganish, uning natijalarini rasmiylashtirish va e'lon qilish qoidalarini belgilash hamda ushbu qoidalar ijrosini nazorat qilishni saylov komissiyalari-ga yuklash takliflari ishlab chiqildi;

- saylov va referendumda ijtimoiy so'rovlar o'tkazishni huquqiy tartibga solish, shuningdek, bu sohada maxsus komissiya tuzishning Fransiya tajribasi jamoatchilik fikrini o'rganishning boshqa usullarini huquqiy tartibga solish uchun namuna bo'ladi;

- tijorat sohasida jamoatchilik fikrini o'rganish xalqaro standartlarini boshqa sohalar-ga joriy qilish ushbu jarayonni huquqiy tartibga solish qoidalarini ishlab chiqishga mustahkam zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jamoatchilik fikri bahsli konsepsiya sifatida e'tirof etilsa ham [17, 243–245-b.], ushbu konsepsiya mazmunidan uni o'rganishni huquqiy tartibga solish zarurati ko'rinadi. Jamoatchilik unga insonlar xulq-atvoriga nisbatan fuqarolar e'tiqodi, mafkurasi va kayfiyatining ifodasi [18, 129–133-b.], xalq tomonidan mamlakat ravnaqi va ertangi kuni-ni ko'zlab bildirilgan mushohada, mulohaza va qarashlar [19, 71-b.], ommaviy ong [20, 44-b.] hamda hukumat quloq solishi maqsad-ga muvofiq bo'lgan xususiy shaxslar fikri [21, 193–196-b.] kabi ta'riflar berilgan. Umuman olganda, jamoatchilik fikri ko'pchilikning fikrini anglatadi va uning obyekti faqat hayotiy muhim masalalar bo'ladi va u jamoa, hudud, fuqarolar guruhi, yosh, jins va boshqa parametrlar bo'yicha tasniflanishi mumkin [22, 150–151-b.].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, jamoatchilik fikri jamiyat ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo'lib, ijtimoiy-siyosiy

jarayonlarning rivojlanishiga faol va bevosita ta'sir ko'rsatish xususiyatini ajratish mantiqiydir [23, 122-b.]. Jamoatchilik fikrini jamoat tashkilotlari, jumladan, siyosiy institutlar, masalan, partiyalar, OAV va boshqalar ifodalaydi. Bunda turli manfaatlarni ifodalovchi, voqealarni har tomonlama yoritadigan ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalari yetakchi o'rin egallaydi [24, 240-b.]. Ular jamiyatni umumiy manfaatlar atrofida birlashtirish orqali jamoatchilik fikriga majburlash qobiliyatini beradi.

Jamoatchilik fikri mohiyatini anglash uchun uning tuzilishini o'rganish lozim. Faylasuf va sotsiologlar jamoatchilik fikri tarkibida (1) ijtimoiy baho, (2) hissiy va (3) irodaviy unsurlar mavjudligini ko'rsatadilar [25, 122-b.]. Ushbu unsurlar tahlili natijasida jamoatchilik fikri: ifodalash, maslahat, hal qilish; fikrning mazmuniga ko'ra: baholash, tahliliy va konstruktiv, tartibga solish va umuman olganda, safarbar qilish funksiyasini bajarishi aniqlangan.

Jamoatchilik fikrining funksiyalari bir-birini inkor etmasligi va o'zaro bog'liqligi e'tiborga molik. Masalan, telefon so'rovi natijasida "Fuqarolar O'zbekiston Prezidenti rahbarligida O'zbekistonni rivojlantirish ... ta'lim va sog'liqni saqlashni taraqqiy ettirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar fuqarolar salohiyatini ro'yobga chiqarish, o'zbekistonliklarni davlat farovonligi va obodligi bilan bog'liq bo'lgan ishlarga keng jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar ochishiga ishonishlari aniqlangan" [26]. Ushbu fikr davlatimiz rahbari olib borayotgan siyosatni baholash bilan birga, fuqarolarni uni qo'llab-quvvatlashga safarbar qiladi.

Jamoatchilik fikri konsepsiyasi demokratiyaning kuchayishi natijasida vujudga kelib, "hukumat boshqariladiganlar roziligi bilan hukmronlik qilishi kerak", degan qarashga asoslanadi [27]. Jamoatchilik fikrini ifodalash siyosiy ishtirok turlaridan biri [28, 427-b.] hisoblanadi. Chunki bu nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'z faoliyatini ko'pchilik qo'llab-quvvatlashi va o'zining haqligini asoslash imkonini beradi.

Ma'lumki, ommaviy boshqaruv ikki tomonlama: to'g'ri – ommaviy organlardan ular boshqaradiganlar hamda uning aksi bo'lgan qaytma axborot oqimlaridan iborat [29, 98-b.]. Davlat boshqaruvining samaradorligi xolis, to'liq va foydali axborot olish, ya'ni qaytma aloqalarning yo'lga qo'yilganiga bog'liqdir [30, 238–239-b.]. Jamoatchilik fikri ko'pchilikning manfaatlarini birlashtirgani va ifodalagani uchun foydali axborot bo'lib, uni o'rganish va hisobga olish samarali boshqaruv va demokratiya talablaridan biri hisoblanadi [31, 149-b.].

Xorijda jamoatchilik fikri siyosiy qarorlarni qabul qilish asosi hisoblansa [32, 74-b.], milliy tadqiqotchilar uni xalq yondashuvi yoxud xalq nuqtayi nazar deb tushunishni taklif qiladilar [33, 5-b.]. O'z navbatida, jamoatchilik fikrini o'rganish natijalarini e'lon qilish uni shakllantirishning eng ta'sirchan yo'llaridan biridir. Jamoatchilik fikrini muayyan yo'nalishda shakllantirish siyosiy manipulyatsiya hisoblanib [32, 66-b.], u to'g'ri yoki egri maqsadli bo'lishi mumkin.

Boshqarish va ta'sir o'tkazish uchun raqobatda elita o'z imkoniyatlaridan foydalanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishi va ommani manipulyatsiya qilishi ma'lum [34, 117-b.]. Jamoatchilik fikri tashqi ta'sirga tezkor munosabat bildirishi tufayli uni yo'naltirish uchun birinchi qadamni ko'pincha siyosatchilar qo'yi-shi kuzatiladi [35, 188-b.]. Bunda jamoatchilik fikridan populizm, millatchilik g'oyalari ta'sirida egri maqsadlarda foydalanishning oldini olish dolzarb masaladir [36, 15-b.].

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar jamoatchilik fikri so'rovlari natijalari fuqarolar tanloviga ta'sir ko'rsatmasligini asoslashga harakat qilsa, ko'pchilik buning aksini isbotlagan [38]. Shuning uchun jamoatchilik fikri so'rovlarini o'tkazish huquqiy tartibga solinmoqda, jumladan, uning natijalarini e'lon qilishni ta'minlash.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar jamoatchilik fikri so'rovlarini natijalari fuqarolar tanloviga ta'sir ko'rsatmasligini asoslashga harakat qilsa, ko'pchilik buning aksini isbotlagan [38]. Shuning uchun jamoatchilik fikri so'rovlarini o'tkazish huquqiy tartibga solinmoqda, jumladan, uning natijalarini e'lon qilishni ta'minlash.

lish ayrim davlatlarda saylov kunidan ancha oldin taqiqlangan. Masalan, ushbu muddat Bolgariya va Ukrainada – 14 kun, Albaniya va Vengriyada – 8 kun, Rossiyada – 5 kunni tashkil qiladi [38, 7-b.].

Ko'pchilik davlatlarda jamoatchilik fikrini o'rganish natijalarini e'lon qilishga qo'shimcha talablar qo'yilgan. Masalan, Rossiyada saylov va referendum bilan bog'liq ijtimoiy so'rov natijalari nashrida so'rov o'tkazgan tashkilot, uni o'tkazish vaqti, respondentlar soni, ma'lumot to'plash usuli, so'rov o'tkazilgan hudud, savolning aniq ifodasi, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoning statistik bahosi, so'rov o'tkazishga buyurtma bergan va mazkur nashr xarajatini to'lagan shaxslar ko'rsatilishi shart [39]. Bunday talablar jamoatchilik fikri natijalarini e'lon qilishda xolislikni ta'minlaydi va ularni e'lon qilayotgan shaxslar mas'uliyatini kuchaytiradi.

Ma'lumki, jamoatchilik fikri mustaqil, ijtimoiy ahamiyatga ega institut sifatida faqat oshkoralik, individual fikrlarning haqiqiy xilma-xilligi mavjud bo'lgan joyda namoyon bo'lishi mumkin [40, 61-b.]. Ushbu holatni inobatga olgan holda, jamoatchilik fikrini saylov barobarida boshqa ommaviy ishlarda ham o'rganishni tartibga solish dolzarb masalaga aylanadi [41, 145-b.].

Xulosalar

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: jamoatchilik fikri fuqarolar tanloviga ta'sir qilishi va davlat qarorlarini qabul qilishga asos bo'lishi tufayli uni o'rganish usullarini huquqiy tartibga solish dolzarb masalaga aylanadi. Aks holda, bir jamoatchilik fikrini xolis o'rganmaslik yoki soxtalashtirish orqali davlat organlari faoliyati va fuqarolar xulq-atvoriga ta'sir qilish imkoniyati yaratiladi.

Jamoatchilik fikrini o'rganishni tartibga solish maqsadida 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-sonli O'zbekiston Respublikasi

Qonunining 13-moddasini quyidagi tahrirda qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

"Jamoatchilik fikrini o'rganish turli ijtimoiy guruhlarining qonunchilik me'yorlari, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari, qonuniy manfaatlari va boshqa ommaviy ishlar to'g'risidagi fikrini aniqlash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratdir.

Jamoatchilik fikri nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari va davlat organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq o'rganilishi mumkin. Jamoatchilik fikrini o'rganish O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan uslubiy ta'minlanadi.

So'rov o'tkazgan tashkilot o'rganish natijalari bilan birga ularning xolisligi va to'g'riligini baholash uchun quyidagi zarur ma'lumotlarni e'lon qiladi: so'rov o'tkazgan tashkilotning nomi; so'rov o'tkazishni to'liq yoki qisman moliyalashtirgan shaxsning ism-sharifi, shuningdek, so'rov natijalarini olgan shaxsning ism-sharifi; so'rovda ishtirok etgan shaxslarning soni va tarkibi; so'rov o'tkazilgan sana; so'rov o'tkazish uchun tanlangan usulning asoslanganligi; so'rovda berilgan savol(lar)ning to'liq matni; so'rovda ishtirok etuvchi shaxslarni saralash usuli; saralash usulining asoslanganligi; saralashni amalga oshirish bosqichlari tarkibi; so'rov o'tkazilgan sharoit; berilgan savollarning to'liq matni; har bir savolga javob bermagan shaxslar soni to'g'risidagi ma'lumot; to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash chegaralari; to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash usuli (agar bunday usul ishlatilgan bo'lsa).

Jamoatchilik fikrini o'rganish jarayoni xolis va to'g'ri aks ettirish maqsadida 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sonli Qonunning 23-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisidagi "vositalari" so'zini "usullari" so'zi bilan almashtirish va uni quyidagi tahrirda bayon qilish tavsiya etiladi:

“kuzatish, hujjatlar (ommaviy axborot vositalari, ma’ruzalar va boshqalar) va amaliy faoliyatni (murojaatlar, olimlar, mutaxassislar takliflari, jamoatchilik muhokamalari va boshqalar) tahlil qilish, so’rov usullari yordamida jamoatchilik fikrini o’rganadi hamda uni hisobga oladi”.

2019-yil 25-iyunda qabul qilingan O’RQ-544-sonli O’zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini quyidagi mazmundagi 47¹-modda bilan to’ldirish tavsiya qilinadi:

“47¹-modda. *Jamoatchilik fikri so’rovlari va boshqa tadqiqot natijalarini e’lon qilish*

Siyosiy partiyalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikri so’rovlari va saylov bilan bog’liq boshqa tadqiqotlar o’tkazish hamda uning natijalarini e’lon qilish (hammaga ma’lum qilish), shu jumladan, axborot tarmoqlariga, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog’iga joylashtirishi mumkin.

Jamoatchilik fikrini o’rganish va boshqa tadqiqot natijalarini aniqlash bo’yicha uslubiy tavsiyalar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi”.

1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining referendumini to’g’risida”gi 417-XII-sonli O’zbekiston Res-

publikasi Qonuniga quyidagi qo’shimcha va o’zgartishlar kiritish tavsiya qilinadi:

1) quyidagi mazmundagi 10¹-modda bilan to’ldirish:

“10¹-modda. *Jamoatchilik fikri so’rovlari va boshqa tadqiqot natijalarini e’lon qilish*

Siyosiy partiyalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikri so’rovlari va referendum bilan bog’liq boshqa tadqiqotlarni o’tkazish va uning natijalarini e’lon qilish (hammaga ma’lum qilish), shu jumladan, axborot tarmoqlariga, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog’iga joylashtirishi mumkin.

Jamoatchilik fikrini o’rganish va boshqa tadqiqot natijalarini aniqlash bo’yicha uslubiy tavsiyalar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi”.

2) 43-moddani quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to’ldirish tavsiya qilinadi:

“Referendum kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin jamoatchilik fikri so’rovlari natijalarini, referendum natijalari prognozlarini, o’tkazilayotgan referendum bilan bog’liq boshqa tadqiqotlarni e’lon qilish (hammaga ma’lum qilish), shu jumladan, axborot tarmoqlariga, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog’iga joylashtirish taqiqlanadi”.

REFERENCES

1. Li J., Xu X., Yang Y. Research on the Regulation of Algorithmic Price Discrimination Behaviour of E-Commerce Platform Based on Tripartite Evolutionary Game. *Sustainability*, 2023, no. 10, pp. 82–94.
2. Ghitza Y., Gelman A. Voter registration databases and MRP: Toward the use of large-scale databases in public opinion research. *Political Analysis*, 2020, no. 4, pp. 507–531.
3. ICC/ESOMAR International Code on Market, Opinion and Social Research and Data Analytics. Available at: https://www.esomar.org/uploads/pdf/professional-standards/ICCESOMAR_Code_English_.pdf
4. Loi n 77-808 du 19 juillet 1977 relative à la publication et à la diffusion de certains sondages d’opinion Version consolidée au 30 janvier 2017 [Law no. 77-808 of 19 July 1977 on the publication and distribution of certain opinion polls Consolidated version at 30 January 2017]. Available at: <https://www.commission-des-sondages.fr/pdf/Loi77.pdf>

5. Ferguson P.A., De Clercy C. Regulatory compliance in opinion poll reporting during the 2004 Canadian election. *Canadian Public Policy. Analyse de Politiques*, 2005, pp. 243–257.
6. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy (davlati) huquqi [Constitutional (state) law of foreign countries]. Ed. D.Q. Akhmedov. Tashkent, TSIL Publ., 2006, p. 231.
7. Selkova Ye.P. Sotsiologiya obshchestvennogo mneniya [Sociology of public opinion]. Blagoveshensk, Amur State university, 2011, pp. 64–65.
8. Weisberg H.F. The Methodological Strengths and Weaknesses of Survey Research. *The SAGE Handbook of Public Opinion Research*, 2009, pp. 223–231.
9. Frans V.A. Upravleniye obshchestvennym mneniyem [Public Opinion Management]. Ekaterinburg, Ural Publ., 2016, p. 79.
10. Smith T.W. Codes of ethics and standards in survey research. *The SAGE Handbook of Public Opinion Research*, 2009, pp. 459–467.
11. Association of Sociologists of Uzbekistan. Available at: <http://asu-sociology.uz>
12. Kodeks po praktike marketingovykh i sotsialnykh issledovaniy [Code of Practice for Marketing and Social Research]. Available at: https://ciom.kz/upload/userfiles/files/codecs_KAPIOR.pdf
13. Bokun I.M. et al. Sovremennyye metody izucheniya obshchestvennogo mneniya. Proyektirovaniye i realizatsiya onlayn-issledovaniy [Modern methods of studying public opinion. Design and implementation of online research]. Tashkent, Republican Center for Public Opinion Research “Ijtimoiy fikr”, 2020, p. 56.
14. Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov: respondentlarning uchdan bir qismi pora berishni korrupsiya deb hisoblanmaydi [A survey of young people: a third of respondents do not consider bribery corruption]. Available at: <https://anticorruption.uz/uzc/item/2020/12/09/yoshlar-ortasida-otkazilgan-izhtimoiy-sorov-respondentlarning-uchdan-bir-qismi-pora-berishni-korrupsiya-deb-hisoblamaydi>
15. Donsbach W., Hartung U. The legal status of public opinion research in the world. *The SAGE handbook of public opinion research*, 2008, pp. 431–440.
16. Position of the Commission for Public Opinion at the National Academy of Sciences of Belarus. Established by the Resolution of the Council of Ministers of the Republic of Belarus. 2002, May 31, No. 707. Available at: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=C20200707>
17. Rosenberg Sh.W. Opinion Formation. Ed. J.D. Wright. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences, 2nd Ed. Elsevier, 2015, pp. 243–245.
18. Wright F.D. Researching Developing Countries. Chandos Publ., 2016, pp. 129–133.
19. Mingbayeva N. Davlat boshqaruvida jamoatchilik fikrining roli: o‘tmish va hozirgi kun [The role of public opinion in public administration: past and present]. *Society and Management*, 2020, no. 2 (88), p. 71.
20. Rokotyanskaya V.V. Upravleniye obshchestvennym mneniyem v sovremennoy Rossii [Managing public opinion in modern Russia]. *Problems of Economics and Legal Practice*, 2018, no. 5, 2018, p. 44.
21. Larry M. Bartels, Attitudes, Political and Public Opinion. Ed. J.D. Wright. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences, 2nd Ed. Elsevier, 2015, pp. 193–196.
22. Yelsukov A.N., Danilov A.N. Osnovy sotsiologii i politologii [Fundamentals of sociology and political science]. Minsk, RIPO Publ., 2019, pp. 150–151.
23. Little D. A New Social Ontology of Government. Springer International Publ., 2020, p. 122.
24. Veyt S.M. Sushchnost’ i struktura obshchestvennogo mneniya [The essence and structure of public opinion]. *TSU Bulletin*, 2009, no. 7, p. 240.
25. Yeparkhina O.V. Sotsiologiya obshchestvennogo mneniya [Sociology of public opinion]. Moscow, Academy Publ., 2013, pp. 122–125.
26. O‘zbekiston fuqarolari “mamlakat Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi” [Citizens of Uzbekistan “address of the President of the country to the Oliy Majlis”]. Available at: <https://ijtimoiyfikr.uz/tadqiqotlar/zhamiyat/ozbekiston-fuqarolari-mamlakat-prezidentining-oliy-majlisga-murojatnomasi-togrisida.htm>

27. Freeland E.P. Public Opinion: Social Attitudes. Ed. J.D. Wright. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences, 2nd ed. Elsevier, 2015, pp. 562–568.
28. Zheltov V.V. Sravnitel'naya politologiya [Comparative Politics]. Moscow, Academic project, 2020, p. 427.
29. Raychenko A.V. Evolyutsiya paradigmy upravleniya [Evolution of the management paradigm]. Moscow, RUSAYNS, 2021, p. 98.
30. Tebekin A.V. Teoriya upravleniya [Control theory]. Moscow, KNORUS Publ., 2020, pp. 238–239.
31. Yazdonov U.T. Jamoatchilik fikri va ijtimoiy hayot [Public opinion and social life]. Samarkand, SamSU Publ., 2019, p. 149.
32. Puzikov M.F., Kudro N.M. Sovremennaya politicheskaya sotsiologiya [Modern political sociology]. 2nd ed., revised and add. Almaty, Kazakh University Publ., 2020, p. 74.
33. Ergasheva M. Jamoatchilik fikri va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni [Public opinion and its place in the social life of society]. *Scientific publications JSPI*, 2020, p. 5.
34. Dobratz B.A., Waldner L.K, Buzzell T. Power, Politics, and Society: an Introduction to Political Sociology. 2nd ed. New York, Routledge, 2019, p. 117.
35. Shhetinina M.S. Obshchestvennoye mneniye i upravlencheskiye resheniya [Public opinion and management decisions]. *Electronic Bulletin of the Rostov Socio-Economic Institute*, 2016, no. 4, p. 188.
36. Janoski Th. et al., eds. The New Handbook of Political Sociology. Cambridge University Press, 2020, p. 15.
37. Yakovleva M.G. et al. Opublikovaniye sotsiologicheskoy informatsii kak faktor vliyaniya na elektoralnoye povedeniye grazhdan [Publication of sociological information as a factor influencing the electoral behavior of citizens]. *Historical, Philosophical, Political and Legal Sciences, Cultural Studies and Art Studies. Questions of Theory and Practice*, 2014, no. 4-2. pp. 209–215.
38. Lapteva V.V. Obnarodovaniye rezultatov issledovaniy obshchestvennogo mneniya kak ob'yekt pravovogo regulirovaniya [Publication of the results of public opinion research as an object of legal regulation]. *Sociological Research*, 1998, no. 8, p. 7.
39. On the Basic Guarantees of the Electoral Rights and the Right to Vote in the Referendum of the Governments of the Russian Federation: Law of the Russian Federation. 2002, June 12, No. 67-FZ. Available at: <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody=&nd=10206507>.
40. Sansyzbayeva G.N., Mukhtarova K.S., Ashirbekova L.J. Teoriya gosudarstvennogo upravleniya [Public Administration Theory]. Almaty, Kazakh University Publ, 2015, p. 61.
41. Yo'ldoshev A.E. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish istiqbollari [Prospects of participation of citizens of the Republic of Uzbekistan in the management of society and state affairs]. Tashkent, TSUL Publ., 2022, p. 161.

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./IZZN1343
UDC: 342:340.134(045)(575.1)

NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATI: SON VA SIFAT TAHLILI

Allakuliyev Mirjalol Davronbekovich,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Qonunchilik departamenti rahbari
ORCID: 0009-0009-3362-2643
e-mail: m.allakuliev@adliya.uz

Annotatsiya. Vakolatli davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladigan har bir qonunchilik hujjati loyihasi u qabul qilingach, ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonunchilik hujjatlarining loyihalari Hukumatga, Prezident Administratsiyasiga faqat huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi haqidagi Adliya vazirligining xulosasi mavjud bo'lgandagina kiritiladi. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, ularni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish, loyihalarning jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilganlik holati, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi muhokama qilinadi. Hisob-kitoblarga asoslanmagan, tegishli sohalarga ta'siri baholanmagan hamda ijro xatarlari tahlil qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining qabul qilinishi nafaqat davlat byudjeti, balki aholi va tadbirkorlik subyektlarining asossiz va ortiqcha moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, ushbu maqolada hozirgi kunda amaliyotda uchrayotgan norma ijodkorligi jarayoni bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari atroflicha tahlil qilinib, ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: norma ijodkorligi, huquqiy ekspertiza, jamoatchilik muhokamasi, tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertiza, cheklist.

НОРМОТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ: КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ И КАЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ

Аллакулиев Миржалол Давронбекович,
начальник Департамента законодательства
Министерства юстиции Республики Узбекистан

Аннотация. Каждый проект законодательного документа, разработанный компетентными государственными органами, служит для правового регулирования определённой сферы общественных отношений после его принятия. При этом проекты законодательных документов будут вноситься в Правительство и Администрацию Президента только при наличии заключения Минюста о целесообразности их принятия по итогам юридической экспертизы. В статье рассматривается правовая и антикоррупционная экспертиза проектов нормативно-правовых актов, оценка их регуляторного воздействия, статус общественного обсуждения проектов, порядок государственной регистрации ведомственных нормативно-правовых актов. Принятие проектов нормативно-правовых документов, не основанных на оценке их влияния на соответствующие отрасли и на анализе рисков их исполнения, наносит ущерб не только государственному бюджету, но и несёт неоправданные и чрезмерные финансовые потери для населения и субъектов

предпринимательства. Кроме того, в данной статье описан процесс создания норм, который существует в настоящее время на практике. Проблемы и пути их решения были тщательно проанализированы, а также даны рекомендации по устранению этих проблем.

Ключевые слова: нормотворчество, правовая экспертиза, общественное обсуждение, оценка регуляторного воздействия, антикоррупционная экспертиза, чек-лист.

RULE-MAKING ACTIVITY: QUANTITATIVE AND QUALITATIVE ANALYSIS

Allakuliyev Mirjalol Davronbekovich,

Head of the Department of Legislation
of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract. Each draft act of legislation developed by the competent state bodies serves to legally regulate a certain area of social relations after its adoption. At the same time, drafts of legislative documents will be submitted to the Government and the Presidential Administration only if there is a conclusion of the Ministry of Justice on the expediency of their adoption at the end of the legal examination. The article discusses the legal and anti-corruption expertise of draft normative legal acts, their regulatory impact assessment, the status of public discussion of draft legislations, and the procedure for state registration of departmental normative legal acts. Adoption of projects of normative legal documents, which are not based on calculations, the impact on the relevant sectors has not been assessed, and the risks of execution have not been analyzed, not only cause the state budget but also unjustified and excessive financial losses of the population and business entities. In addition, this article describes the process of creating norms that are currently in practice. Furthermore, problems and their solutions were thoroughly analyzed, and recommendations were made to eliminate these problems.

Keywords: rule-making, legal expertise, public discussion, regulatory impact assessment, anti-corruption expertise, checklist.

Kirish

Huquq ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish Adliya vazirligining (keyingi o'rinlarda – vazirlik) asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mazkur tashkilot norma ijodkorligi jarayonlarida qonunchilik hujjatlari loyihalarini huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizalardan o'tkazadi, vazirlik va idoralarning tartibga solish ta'sirini baholash faoliyatini muvofiqlashtiradi, qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan huquqiy monitoringni amalga oshiradi.

O'tgan davr mobaynida vazirlik tomonidan unga yuklatilgan vazifa va funksiyalar doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy *axborot kommunikatsiya texnologiyalari* joriy etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasiga (www.lex.uz) norma-

tiv-huquqiy hujjatlar e'lon qilinadigan rasmiy manba maqomi berildi, 35 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlarining elektron banki (fondi) shakllantirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (www.project.gov.uz) yaratilib, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va Hukumatga kiritish faqat elektron shaklda amalga oshirilishi belgilandi. Shu bilan birga, mamlakatimiz tarixida ilk bor idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va qabul qilish jarayoni to'liq raqamlashtirildi [1].

Norma ijodkorligi jarayonlari shaffofligini ta'minlash, qonunchilik hujjatlari ishlab chiqishda keng xalq ommasini jalb etish maqsadida Normativ-huquqiy hujjatlar loyiholari muhokamasi portali (www.regulation.gov.uz) ishga tushirilib, shu kunga qadar 16 mingdan

ortiq loyiha jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi [2].

"Tartibga solish gilyotinasini" usulini qo'llash orqali eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan, huquqni qo'llash amaliyotida byurokratik to'siq va g'ovlar hamda kolliziyalarni keltirib chiqarayotgan 4 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlari bekor qilinib, *qonunchilik bazasining 12 foizga qisqarishiga erishildi.*

Material va metodlar

Maqolada analiz va sintez metodlaridan foydalanilgan. Shu bilan birga, qiyoсий-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim olimlar normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va tartibga solishning miqdoriy yondashuvlariga alohida e'tibor qaratadi. Bunda normalar soni, sahifalar, iqtisodiy ta'sir tahlillari va boshqa ko'rsatkichlarni muhokama qilish e'tibor doirasida bo'ladi [3]. Boshqa bir qator olimlar normativ-huquqiy hujjatlar va tartibga soluvchi dasturlarni baholashda miqdoriy va sifat yondashuvlarini o'rganadi [4, 5]. Shuningdek, ba'zi olimlar tartibga solish ta'sirini tahlil qilishni baholashning miqdoriy va sifat usullarini muhokama qiladi [6], Buyuk Britaniya hukumatida tartibga solish tahlili va nazorati uchun miqdoriy va sifat vositalarini o'rganadi [7, 8], OECD va Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llanadigan tartibga solish sifatining turli miqdoriy ko'rsatkichlarini solishtiradi [9].

Ba'zi MDH olimlari norma ijodkorligi faoliyati samaradorligini baholash kontekstida miqdoriy va sifat tahlilini muhokama qiladi [10], boshqalar normativ-huquqiy hujjatlarning sifati va samaradorligini tahlil qilishning miqdoriy va sifat usullari [11] hamda qonun hujjatlarini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish tamoyillarini ko'rib chiqadi [12]. Yana bir qator olimlar esa normativ-huquqiy hujjatlar samaradorligini ba-

holashning miqdoriy va sifat mezonlari, shuningdek, huquqiy tahlilning sifat va miqdoriy yondashuvlarini tahlil qiladi [13], huquqiy me'yorlarni o'rganishda tizimli tahlil, shu jumladan, miqdoriy usullarni qo'llashni o'rganadi [14].

Ta'kidlash joizki, 1991–2023-yillar davomida 29 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lsa, ularning 12 374 tasi yoki 43 foizi oxirgi 6 yilda qabul qilingan.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda Davlat dasturlarida belgilangan islohotlar va vazifalarning huquqiy asoslarini yaratish, shuningdek, ishlarni tizimli ravishda tashkillashtirish maqsadida har bir yo'nalish bo'yicha tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilindi [4].

Tabiiyki, alohida olingan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, o'z navbatida, qonunchilik hujjatlari sonining oshishiga sabab bo'ladi. Hujjatlar soni ko'paygan bo'lsa-da, ammo loyihalarning barchasi ham yetarli sifat darajasida emas.

Ma'lumki, qonunchilik hujjatlarining loyihalari Hukumatga, Prezident Administratsiyasiga faqat huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi haqidagi Adliya vazirligining xulosasi mavjud bo'lgandagina kiritiladi.

Birgina 2023-yilning 9 oyi davomida Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun jami 1 575 ta qonunchilik hujjati loyihasi kiritilgan. Ammo ularning 86 foizi huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan bo'lsa, 14 foizi loyihalarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularni takomiliga yetkazish uchun ishlab chiquvchilarga qaytarilgan.

Bu shuni anglatadiki, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish tartibi va loyihalarning sifat darajasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Vazirlik tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihalari tahlil qilinganda, quyidagi tizimli muammolar mavjudligi aniqlandi:

Birinchidan, vazirlikka kiritilgan loyihalarning salkam 26 foizga yaqini jamoatchilik muhokamasi portaliga joylashtirilmagan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunga asosan, qonunchilik hujjatlari loyihalari jamoatchilik fikr-mulohazalari va takliflarini olish maqsadida o'n besh kundan kam bo'lmagan muddatga jamoatchilik muhokamasi-ga qo'yilishi lozim [5].

Ikkinchidan, manfaatdor vazirlik va idoralarga kelishish uchun kiritilgan loyihalarning 86 foizi kelishish talablariga rioya qilmadan, belgilangan muddatlarga amal qilinmagan. Ayrim loyihalar ishlab chiquvchilar tomonidan kelishilishi majburiy bo'lgan manfaatdor davlat organlariga kiritilmagan.

Uchinchidan, loyihalarni tayyorlashda ko'plab kamchilik va xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Xususan, vazirlik tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan 1353 ta qonunchilik hujjatlari loyihalariga jami 8749 ta (har bir loyihaga o'rtacha 6 tadan) e'tiroz bildirilgan. Ularning mutlaq katta qismi – 70 foizi amaldagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasiga nomuvofiq, 13 foizi qonunchilik talablariga zid, qolgan qismi esa aniqlangan korrupsiyaviy omillar hamda boshqa taklif va e'tirozlar bilan bog'liq.

Shuningdek, yuqoridagi hujjatlarning uchdan bir qismi puxta ishlab chiqilmagani bois konseptual e'tirozlar bilan qaytarilgan.

To'rtinchidan, tegishli davrda vazirlikka davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun kelib tushgan idoraviy-normativ huquqiy hujjatlarining 28 foizi turli asoslarga ko'ra davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Shu jumladan,

96 ta hujjat loyihasi matnida aniqlangan kamchiliklar, 5 tasi ishlab chiquvchilarning xatiga asosan qaytarib olinganligi va 2 tasi davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydigan hujjat deb topilganligi sababli loyiha mualliflariga qaytarilgan.

Beshinchidan, qonunchilik hujjati loyihalarning tartibga solish ta'sirini baholash (keyingi o'rinlarda – TSTB) tartibiga yetarli darajada rioya etilmagan. Shu jumladan, huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilgan loyihalarning 412 tasi tartibga solish ta'sirini baholash doirasiga tushsa-da, ularning 197 tasi yoki 48 foizi vazirlik va idoralar tomonidan baholashdan o'tkazilmagan, TSTB bo'yicha hisobot to'ldirilmagan hamda xulosa beruvchi organlarning xulosalari olinmagan.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ–5025-son qaroriga asosan, loyiha va TSTB bo'yicha hisobot xulosa beruvchi organlarning TSTB natijalari bo'yicha xulosalari mavjud bo'lgandagina Adliya vazirligiga kiritiladi.

Shuningdek, TSTB holati tahlil qilinganda, aksariyat holatlarda davlat organlari tomonidan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda baholash o'tkazilmayotganligi, o'tkazilgan baholashlar esa faqat rasmiyatchilik uchun amalga oshirilayotganligi aniqlandi.

Hisob-kitoblarga asoslanmagan, tegishli sohalarga ta'siri baholanmagan hamda ijro xatarlari tahlil qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarning qabul qilinishi na faqat davlat byudjeti, balki aholi va tadbirkorlik subyektlarining asossiz va ortiqcha moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'lmoqda.

Oltinchidan, ishlab chiquvchilar tomonidan loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibiga amal qilinmagan. Shu jumladan, vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilgan 228 ta loyihada 350 ta korrupsiyaviy omillar aniqlangan.

Bunda aniqlangan korrupsiyaviy omillarning eng katta qismi diskretsion vakolatlarining kengligi, normativ-huquqiy hujjat-

lar o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi hamda noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar sanaladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shu o'rinda aytish lozimki, 71 ta loyiha korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha *cheklist* (keyingi o'rinlarda – *cheklist*) ilova qilinmagan (*cheklist* – normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha namunaviy shakldagi savolnoma).

Vaholanki, Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3287, 24.02.2021-yil) ko'ra, *cheklist* ishlab chiquvchi tomonidan loyihaning jamoatchilik muhokamasi, idoralararo kelishuv, huquqiy ekspertizadan o'tkazish bosqichlarida loyihaga ilova qilinishi lozim [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi PQ-5263-son qarorida esa *cheklist* to'ldirilmagan qonunchilik hujjatlari loyihalari adliya organlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilmasligi va ishlab chiquvchiga qaytarilishi belgilangan [7].

Yuqoridagi o'rinlarda keltirilgan muammolarning aksariyati qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilmasligi bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, loyihani ishlab chiqishda yuridik texnika qoidalariga amal qilinmasligi, korrupsiyaga qarshi ekspertiza yoki TSTBdan o'tkazilmasligi loyiha mualliflarining norma ijodkorligi jarayonlariga mas'uliyat bilan yondashmayotganligidan darak beradi.

Ammo, shu bilan birgalikda, bu borada obyektiv muammolar ham mavjud. Shu jumladan, yuqorida aytilganidek, loyihalarining 86 foizida ularni manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish tartibi buzilgan. Bunga, o'z navbatida, *idoralararo kelishish muddatlari qisqaligi* ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Masalan, kelishish muddati qonun loyiholari uchun 7 ish kuni, Prezident va Hukumat hujjatlari uchun 3 ish kuni etib belgilangan.

Bunda muddatlarning qisqaligi loyihalarning sifatli va har tomonlama ko'rib chiqilishiga imkon bermaydi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan hujjatlar sonining keskin oshishi (jami qonunchilik hujjatlarining 43 foizi so'nggi 6 yilda qabul qilingan) loyihalarni ko'rib chiqishga mas'ul xodimlarning ish yuklamasi ortishiga olib kelmoqda. Shu jumladan, 2012–2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 788 ta, 2017–2021-yillar davomida esa 2 771 ta (350 foiz yoki 3,5 barobarga ko'paygan) qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Bunday yuqori *qonunchilik inflyatsiyasi* vazirlik va idoralarning institutsional salohiyatini pasaytirib, hujjatlarni amaliyotda to'g'ri qo'llash va islohotlarni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Bundan tashqari, mazkur omillar keli-shish muddatlariga rioya etilishini qiyinlashtiradi.

Shu boisdan taklif sifatida aytish mumkin-ki, *idoralararo kelishish muddatlarini qayta ko'rib chiqish lozim*.

Yana bir muammo shuki, vazirlik va idoralarda qonunchilik hujjatlari loyihalarining sifatsiz ishlab chiqilishi va ta'siri baholanmasligiga resurslarning yetishmasligi, jumladan, *maxsus tarkibiy bo'linmalar ushbu faoliyat bilan shug'ullanmasligi* hamda *mutaxassislarining malakasizligi* ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosalar

Yuqorida aytilganidek, ko'rsatilgan davr davomida vazirlik tomonidan qonunchilik hujjatlari loyihalariga jami 10 054 ta e'tiroz bildirilgan. Bunday e'tirozlarning asosiy qismini loyihalar matnida amaldagi qonunchilikka zid normalar va yuridik texnika qoidalariga rioya etilmaganligi tashkil qilgan. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, loyiha mualliflarida malaka yetishmasligi, loyihani tayyorlashdagi e'tiborsizliklar va h. k.

Bundan tashqari, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar muddat-

larining qisqaligi ham ishlab chiqiladigan loyihalarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirda qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar muddati, asosan, 1-2 oyni tashkil etmoqda. Sifatli hujjat ishlab chiqishga esa amaliyotda kamida 3-4 oy vaqt talab qilinadi.

Shu boisdan qonunchilik hujjatlari loyihalarini *ishlab chiqish muddatini eng kamida 3 oy qilib belgilash* maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, norma ijodkorligi faoliyati davlatning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan asosiy vositasi sanaladi. Norma ijodkorligida har qanday xato va kamchiliklar kutilmagan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois mazkur faoliyatdagi mavjud tizimli kamchiliklarni bartaraf etish davlat oldida turgan har qachongidan ham muhim masala hisoblanadi.

REFERENCES

1. A unified electronic system for the development and agreement of drafts of regulatory legal documents – project.gov.uz. Available at: <https://project.gov.uz>
2. The portal for the discussion of projects of regulatory and legal documents – regulation.gov.uz. Available at: <https://regulation.gov.uz>
3. Rayanov F.M. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, Jurist Publ., 2002.
4. Coglianese C. Measuring regulatory performance: Evaluating the impact of regulation and regulatory policy. Expert Paper No. 1. Paris, OECD, 2012. Available at: https://www.oecd.org/gov/regulatory-policy/1_coglianese%20web.pdf
5. Livermore M.A., Revesz, R.L. Rethinking health-based environmental standards. *New York University Law Review*, 2013, no. 89 (4), pp. 1184–1262.
6. Ellig J. Evaluating the quality and use of regulatory impact analysis. *Regulation & Governance*, 2016, no. 10 (1), pp. 1–7.
7. Lodge M., Wegrich K. Managing regulation: Regulatory analysis, politics and policy. London, Palgrave Macmillan, 2012.
8. Radaelli C.M., De Francesco F. Regulatory quality in Europe: Concepts, measures, and policy processes. Manchester, Manchester University Press, 2010.
9. Kartashov V.N. Teoriya pravovoy sistemy obshchestva [Theory of the legal system of society]. Yaroslavl, Yaroslavl State University, 2005.
10. Bakhrakh D.N. Administrativnoye pravo Rossii [Administrative law of Russia]. Moscow, Norma Publ., 2017.
11. Kuznetsov S.A. Normotvorchestvo: teoriya i zakonodatel'naya praktika [Rulemaking: theory and legislative practice]. Moscow, Formula prava Publ., 2008.
12. Malko A.V., Subochev V.V. Zakonnyye interesy kak pravovaya kategoriya [Legitimate interests as a legal category]. Moscow, Norma Publ., 2010.
13. Oreshin Ye.P. Sistemnyy podkhod k poznaniyu prava [Systematic approach to the knowledge of law]. Moscow, Norma Publ., 2018.
14. Bendor J. Quantifying regulation. *Annual Review of Political Science*, 2015, no. 18, pp. 261–276. DOI: 10.1146/annurev-polisci-060113-120957
15. Radko T.N. Theory of state and law. Moscow, 2016.

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./IMSJ3134
UDC: 342.9:338.48(045)(575.1)

TURIZM XAVFSIZLIGINI TA'MINLOVCHI HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI VA TASNIFI

Tursunova Sabina Ravshanovna,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0005-0151-9204
e-mail: sabinatursunova6940@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm va uning xavfsizligini ta'minlash borasidagi xalqaro va milliy qonunchilik tahlili va tasnifi keltirilgan hamda qonun hujjatlarining o'ziga xos jihatlari, tartibga solish bo'yicha imperativlik xususiyatlari yoritilgan. Muallif turizm va uning xavfsizligiga oid qonun hujjatlarini tasniflash barobarida turizm xavfsizligi tushunchasiga milliy huquqiy ta'rif shakllantirilmaganligiga urg'u beradi, shuningdek, mazkur turizm xavfsizligi tushunchasiga huquqiy ta'rif belgilanishi qonunchilikning mazkur sohasi rivoji va istiqboli belgilanishida muhim ekanligini ta'kidlaydi. Maqolada xavfsiz turizm sohasini tartibga solishda xalqaro va milliy qonunchilik tizimini toifalarga bo'lgan holda tahlil qilish lozimligi, bunda asosiy e'tibor xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga muvofiq holda qonunchilikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishi borasidagi fikrlar tahlil qilingan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llangan. Shuningdek, tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar, milliy va xorijiy olimlarning fikrlari o'rganilgan. Buning natijasi o'laroq, "xavfsiz turizm" atamasiga mualliflik ta'rifi shakllantirilib, qonunning tegishli bandlariga ushbu ta'rif asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish borasidagi taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xavfsiz turizm, normativ-huquqiy hujjat, milliy qonunchilik, xalqaro huquqiy hujjat, konvensiya, deklaratsiya, xalqaro pakt, xalqaro universal hujjat, xavfsiz turizmni ta'minlash.

АНАЛИЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ ПРАВОВЫХ АКТОВ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ БЕЗОПАСНОСТЬ ТУРИЗМА

Турсунова Сабина Равшановна,
самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье представлен анализ и классификация международного и национального законодательства о туризме и его безопасности, в которой освещаются специфические аспекты законодательства, особенности его императивности в регулировании. Автор, говоря о классификации законодательства о туризме и его безопасности, подчеркивает, что национально-правовое определение понятия о безопасности туризма не сформулировано. Также подчеркивается важность установления правового определения понятия туристской безопасности в развитии и определении перспектив данной сферы законодательства. В статье указывается о необходимости анализа системы международного и национального законодательства в регулировании сферы безопасного туризма по категориям, при этом основное внимание уделяется важности формирования законодательства в соответствии с общепринятыми нормами международного права. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. Также в

исследовательской работе изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, мнения отечественных и зарубежных учёных, в результате чего сформулировано авторское определение термина «безопасный туризм» и выработано предложение о внесении изменений и дополнений в соответствующие пункты закона на основе этого определения.

Ключевое слово: безопасный туризм, нормативный правовой акт, национальное законодательство, международный правовой акт, конвенция, декларация, международный пакт, международный универсальный документ, обеспечение безопасного туризма.

ANALYSIS AND CLASSIFICATION OF LEGAL ACTS ENSURING THE SAFETY OF TOURISM

Tursunova Sabina Ravshanovna,
Independent Researcher of the University
of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article presents an analysis and classification of international and national legislation on tourism and its safety, which highlights the specific aspects of legislation and the features of its imperatives in regulation. The author, speaking about the classification of legislation on tourism and its safety, emphasizes that the national legal definition of the concept of tourism safety has not been formulated. She also emphasizes the importance of establishing a legal definition of the concept of tourist safety in the development and determination of the prospects of this area of legislation. The article analyzes the need to analyze the system of international and national legislation in the regulation of safe tourism by category while focusing on the importance of forming legislation in accordance with generally accepted norms of international law. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. Also in the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and the opinions of domestic and foreign scientists were studied, as a result of which the author's definition of the term "Safe Tourism" was formulated and a proposal was developed to amend and supplement the relevant paragraphs of the law based on this definition.

Keyword: safe tourism, regulatory legal act, national legislation, international legal act, convention, declaration, International Covenant, international universal document, ensuring safe tourism.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 16–21 oktabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Davlatimiz rahbari mazkur anjumanda: "Global turizmning eng dolzarb muammosi – bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlashdir. Ushbu jarayonlar oqibatida jozibador va an'anaviy yo'nalishlarda turizm salohiyati va sayyohlar soni keskin pasaymoqda, xavfsiz turizm uchun doimiy tusga ega bo'lgan xatar va tahdidlar ortmoqda, ularning salbiy ta'siri qo'shni mintaqalarga ham tobora kengroq tarqalmoqda, butunjahon madaniy meros obyektlari va ko'hna arxitektura yodgor-

liklari vayron qilinmoqda va hatto ayrimlari yer yuzidan yo'q bo'lib ketmoqda. Shu maqsadda hozirgi murakkab vaziyatni inobatga olgan holda, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etaman", deya alohida ta'kidladi.

Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish muhim va murakkab masala bo'lib, katta o'zgartirish va takomillashtirishni talab etadi. Ayni damda turizmda xavfsizlikni ta'minlash masalalari jiddiy muammo bo'lib, nazorat qiluvchi organlarning doimiy e'tiborida bo'lishini talab qiladi.

Turistik yo'nalishlarni ham, turistlarning o'zini ham himoya qilish uchun xavfsizlikning

barcha jihatlarini hisobga olgan holda qoidalar ishlab chiqish kerak. Huquqbuzarlik, jinoyat va baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun har tomonlama xavfsizlikni ta'minlash zarur.

Bundan tashqari, milliy qonunchilikni takomillashtirishga yondashuv turizm sohasidagi dolzarb muammolarni tahlil qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga asoslanishi darkor. Yangi vositalar va xavfsizlik choralarini qo'llash ushbu jarayonning ajralmas qismiga aylanadi.

Material va metodlar

Shunday qilib, davlat turizm jarayonlarini tartibga solish va ushbu sohaning barcha ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali choralar ko'rish kerak. Shu bois tadqiqot ishida mazkur sohaning huquqiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq yuzaga kelayotgan muammolar, tushunmovchiliklar va boshqa inobatga olinishi lozim bo'lgan qoidalar tahlil qilingan. Mavzuni yoritishda qiyosiy-huquqiy tahlil, kuza-tish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonida:

xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish;

xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmonlar o'rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish;

turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollar, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish kabi dolzarb vazifalar belgilangan.

Biroq turizmning barcha afzalliklariga qaramay, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bunga biz yaqin vaqt oralig'ida ijtimoiy tarmoqlarda shov-shuvga sabab bo'lgan ikki holatni misol keltirishimiz mumkin. Birinchi holatda niderlandiyalik sayyohlik blogeri Tom Grondning "Afrosiyob" tezyurar poezdi konduktoriga poezddagi o'rnini VIP joyga almashtirish uchun 15 dollar miqdorida pora bergani aks etgan video tarqalgan bo'lsa, oradan hech qancha vaqt o'tmasdan "Toshkent-Andijon" poezdida qulayroq joyga ko'chgan turkiyalik sayyohning videosi tarqaldi. Videoda u poyezd xodimiga 100 ming so'm (8,20 AQSh dollari) miqdorida pora berganini ma'lum qilgan. Ikki holat ham mamlakatimizning turizm jozibadorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyatlar hisoblanadi.

Shu sababli ham mamlakatimizda xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha ma'muriy-huquqiy chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi, ixtisoslashgan organlar va xizmatlarning tashkil etilishi, sayyohlik obyektlarida monitoring va nazoratni amalga oshirish, huquqni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, sayyohlarni samarali xabardor qilish, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish – bularning barchasi O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar uchun xavfsiz va mehmondo'st muhit yaratishga xizmat qiladi [1].

Yuqorida keltirilgan turizm bilan bog'liq huquqiy masalaga kompleks ravishda e'tibor berilmasa, uning rivojlanishi va mamlakatimizning turizm jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan qo'llanadigan "Global tinchlik indeksi" (Global Peace Index)da mamlakatlar hududda mojarolar mavjudligi, qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlari, jinoyatchilik darajasi, xavfsizlikning ta'minlanganligi holati kabi 23 ta mezon bo'yicha tasniflanadi. Jumladan, "2023-yil uchun dunyodagi eng xavfsiz davlatlar sifatida birinchilikni Islandiya, Daniya, Irlandiya egallagan bo'lsa, turistlar borishi tavsiya etilmaydigan eng xavfli mamlakatlar tariqasida Afg'oniston, Yaman,

Suriya, Iroq, Ukraina ko'rsatilgan" [2]. Bu dunyo hamjamiyati uchun turistlarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, ularning hayoti, sog'lig'i, mol-mulkini muhofaza qilish, turizm obyektlarida jamoat xavfsizligi va tartibini saqlash, turizmni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan g'ovlarni bartaraf etish, xavfsiz turizmni ta'minlash sohasini takomillashtirish dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizning ham mazkur "Global tinchlik indeksi"da yetakchi o'rinni egallashi, yurtimizning turizm jozibadorligini oshirish va shu yo'l bilan iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir etishda sohani huquqiy ta'minlash hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarini implementatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Professor V.S. Chetverikovning fikricha, "Boshqaruvning asosiy belgilaridan biri uning maqsadi, vazifalari va funksiyalarining huquqiy tartibga solinishidir" [3, 512-b.]. Q.A. Saitqulov esa "Har qanday faoliyatning huquqiy tartibga solinganligi, birinchidan, uni tashkil etish tartibini mustahkamlasa, ikkinchidan, vakolatli subyektlar faoliyatining asosiy vazifalarini belgilab, mas'uliyatini oshiradi" [4, 123-b.], deb ta'kidlaydi.

Huquqiy asoslarning jamiyat hayotiga qay darajada mosligi va amal qilishini kuzatib borish xavfsiz turizmni ta'minlashning mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirish, shuningdek, ushbu sohani monitoring qilish – mazkur jarayonni samarali ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli ham uni ta'minlashga doir faoliyatni huquqiy tartibga solish muammolarini tadqiq etish kechiktirib bo'lmas vazifa hisoblanadi. Mazkur jarayonda asosiy e'tibor qonun hujjatlari o'rtasida yuzaga kelgan kolliziya va muammolarni aniqlash hamda huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilmog'i lozim.

Respublikamizda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinishi, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni ularni qabul qiluvchi subyektlarning vakolat doirasiga ko'ra, mazkur hujjatlarning

yuridik kuchi hamda ahamiyatiga qarab klassifikatsiya qilish bo'yicha [5, 582-b.] xavfsiz turizmni ta'minlashning huquqiy asoslarini quyidagi ikki yirik guruhga ajratib o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: *birinchisi* – xalqaro huquq normalari, *ikkinchisi* – milliy qonunchilik hujjatlari.

1. *Xalqaro huquq normalari.* Hozirda shaxsning turizm sohasidagi huquqlarini kafolatlash borasida xalqaro standartlar ishlab chiqilib, amalda qo'llanayotganligini e'tirof etish lozim. Tadqiqot natijalari xavfsiz turizmni ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi ushbu xalqaro normativ hujjatlarni (ta'sir doirasini inobatga olgan holda) shartli ravishda quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish imkonini bermog'da:

- *xalqaro universal hujjatlar;*

- *bevosita xavfsiz turizmni ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar.*

Xalqaro universal hujjatlar xalqaro tashkilotlar va dunyo mamlakatlari doirasidagi hujjatlar bo'lib, muayyan sohada vujudga kelgan muammolarni hal qilish uchun davlatlarning o'zaro hamkorligini amalga oshirish shakllaridan hisoblanadi [6, 175-b.]. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan, turizm munosabatlariga daxldor bo'lgan mazkur toifadagi hujjatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;*

b) *Jahon turizmi bo'yicha Manila deklaratsiyasi;*

d) *Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi konvensiya;*

e) *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.*

Bevosita xavfsiz turizmni ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar turizm sohasiga doir munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Qayd etish lozimki, mazkur hujjatlar davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni (tashkiliy-huquqiy yordam ko'rsatish) ta'minlashni nazarda tutadi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar faoli-

yati davomida turizm masalalariga oid bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Tahlil etilayotgan toifadagi asosiy hujjatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– *Turizm Xartiyasi*. Ushbu xalqaro ahamiyatga molik hujjat davlatlarni profilaktika va himoya choralari orqali tashrif buyuruvchilar va ularning mulkiy xavfsizligini ta'minlashga chaqiradi. Buning uchun: gigiyena va tibbiy xizmatlardan foydalanishning eng yaxshi sharoitlarini ta'minlash; shuningdek, yuqumli kasalliklar va baxtsiz hodisalarning oldini olish; turizmdan fohishalik maqsadida foydalanish uchun har qanday imkoniyatning oldini olish; turistlar va mahalliy aholini himoya qilish maqsadida giyohvandlik vositalaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish; turistlarga ma'muriy-huquqiy xizmatlar, shuningdek, konsullik muassasalari vakillaridan tezkor foydalanishni ta'minlash hamda ularni ichki va tashqi umumiy aloqa vositalari bilan ta'minlash; mahalliy aholining tranzit va vaqtincha bo'lish joylarida urf-odatlarini tushunishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida turistlarni xabardor qilishga ko'maklashish zarur [7].

– *Turistik axloq kodeksi*. Turizm kodeksi Turizm Xartiyasining ajralmas qismi bo'lib, chet ellik sayyohning tashrif buyurgan mamlakatdagi huquq va majburiyatlarini birlashtiradi. Bu O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida o'zining mantiqiy davomini topdi. To'liq xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan Turizm kodeksining XIII moddasi sayyohlarga xavfsiz xizmatlar ko'rsatish qoidalari va normalari, turistik sayohatlar paytida ularning xatti-harakatlarini belgilaydi [8].

– *Turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasi* (Gaaga, 1989-yil, 10–14-aprel). "Turistik rasmiyatchiliklarni soddalashtirish hamda sayohatlarni osonlashtirish davlatlarning ham individual, ham jamoaviy turistik sayohatlarni rivojlantirish va rag'batlantirish bo'yicha ke-lishilgan siyosati va harakatlari"dir [9].

– *Turizm xavfsizligi va sayohat xavfini kamaytirish bo'yicha Estersund deklaratsiyasi*. Estersund deklaratsiyasida "Turizm xavfsizligi va sayohat paytida xavfni kamaytirish bo'yicha I xalqaro konferensiya natijalari asosida sayyohlik xavfsizligi va sayohat paytida xavfni kamaytirish maqsadida qabul qilingan. Unga ko'ra, turizm xavfsizligini ta'minlash masalalari baxtsiz hodisalar, kasalliklar, yuqumli kasalliklar va epidemiyalar, terrorizm, harbiy asoratlar va mojarolar, qaroqchilik, kriminogen vaziyat va jinoyatchilik, giyohvand moddalarni tarqatish muammolarini o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, deklaratsiyada turizm xavfsizligini ta'minlash va sayohat paytida xavflarni kamaytirish bo'yicha vazifa va majburiyatlar birinchi navbatda, davlat organlari va milliy turistik ma'muriyat organlariga yuklatilgan bo'lib, ular, o'z navbatida, turistik jarayonning barcha ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sir va ishlarni muvofiqlashtirishni ta'minlashi kerak"ligi alohida ta'kidlangan [10].

– *Osaka Mingyillik deklaratsiyasi*. Ushbu deklaratsiya alohida ahamiyatga ega, sababi deklaratsiyada "Hukumatlar va turizm sohasi mutaxassisleri turistlar uchun xavfsiz muhitni ta'minlash uchun barcha choralarni ko'rishlari va turistik markazlardagi xavfsizlik holati to'g'risida aniq ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak"ligi bayon qilingan [11].

2. *Milliy qonunchilik hujjatlari*. Turizm faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy mazmuni turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tashkil etish, turoperatorlar va turagentlar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik mahsulot iste'molchilari huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. Milliy qonunchilik hujjatlari o'z o'rnida ikkiga bo'linadi: umumiy va bevosita turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlovchi hujjatlar.

Umumiy xususiyatga ega normativ hujjatlar turizm sohasida xavfsizlikni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlaridan iborat. Bizningcha, turizm sohasidagi umumiy xusu-

siyatga ega normativ hujjatlarni ikki toifaga, ya'ni *qonun hujjatlari* va *qonunosti hujjatlari*ga ajratib tahlil qilish o'rinlidir.

a) *qonun hujjatlari*. Respublikamiz hududida turizm xavfsizligini ta'minlashdagi eng asosiy hujjat, bu – 2019-yil 18-iyul kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunidir. Ushbu qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tarmog'i sifatida turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu normativ hujjat bilan turizm sohasi ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar qonuniylashtirildi, turistik faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullari, shuningdek, turizm subyektlari uchun xulq-atvor qoidalari belgilandi hamda xavfsiz turizmni ta'minlash standartlari o'rnatildi.

b) *qonunosti hujjatlar*. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3509-sonli qarorida turistlarga tezkor yordam ko'rsatish uchun yagona qisqa umumrespublika telefon raqamiga ega bo'lgan Call-markaz faoliyati autsorsing shartlarida tashkil etilishi belgilangan edi. Shu munosabat bilan 2021-yil yanvar oyidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xavfsiz turizmni muvofiqlashtirish boshqarmasining "1173" qisqa raqamli Call-markazi o'z faoliyatini boshladi. Turistlarning telefon qo'ng'iroqlarini qabul qilish va ularga ichki ishlar organlari vakolatlari doirasida tezkorlik bilan zarur yordam ko'rsatishni tashkil etish markazining asosiy vazifalari hisoblanadi. Call-markaz zamonaviy axborot-kommunikatsiya uskunalari bilan jihozlangan bo'lib, Toshkent shahri, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari IIB, Markaziy IIB huzuridagi turizmni ta'minlash hududiy boshqarmalarining navbatchilik bo'linmalariga ulangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi "2018-2019-yillarda

Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3609-sonli qaroriga muvofiq, xorijiy va mahalliy turistlarning Samarqand viloyatida qolish muddatlarini uzaytirish maqsadida Samarqand viloyatidagi turistlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari, klublar, ko'ngilochar va boshqa shunga o'xshash muassasalarning soat 00:00 ga qadar faoliyat ko'rsatishi va xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan tegishli choralarni ko'rib (kuzatuv kameralarini o'rnatish, xavfsizlikni ta'minlovchi xodimlar yollash), ovqatlanish shoxobchalari, klublar, ko'ngilochar va boshqa shunga o'xshash muassasalarning "Tourist friendly" talablariga rioya etgan holda, uzluksiz faoliyat yuritishini tashkil etish hamda ularning tasdiqlangan tartibi va ro'yxatini Samarqand viloyati hokimligining rasmiy internet sahifasi va boshqa manbalarga joylashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Turizm sohasida xavfsizlik bilan bog'liq masalalarni bevosita tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi "Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4229-sonli qaroriga muvofiq, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalari tuzilmalarida xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmalari tashkil etildi. Boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib bevosita turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari xizmatini samarali tashkil qilish, ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash borasidagi faoliyatiga axborot-texnik jihatdan ko'maklashish, ular o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashtirilgan hamkorlik ustidan qat'iy nazorat o'rnatish va

turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida kriminogen vaziyatni tizimli tahlil qilish, turistlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sabablari va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Yuqorida aytilganlarning barchasi turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlovchi ma'muriy-huquqiy mexanizmlar bo'lib, uning O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida, turizm faoliyatiga oid qonunchilikda, O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik tizimida va xalqaro turizm xavfsizligi tuzilmasida o'z o'rnini belgilaydi, ushbu institutning tashkil etilishi, faoliyati va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ochib beradi.

Yurtimizning turizm jozibadorligi bevosita soha statistikasi bilan mezonlanadi. Mamlakatimizga 2022-yilda 5 232 774 nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar quyidagi davlatlar hisobiga to'g'ri keladi [12]:

- Qozog'iston – 1 551 774;
- Tojikiston – 1 447 826;
- Qirg'iziston – 1 356 857;
- Rossiya Federatsiyasi – 567 725;
- Turkiya – 75 559.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, turizm faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga solish sohaviy huquqiy tartibga solish turlaridan biri hisoblanadi. Maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan ma'muriy-huquqiy usullar hamda ma'muriy-huquqiy normalarga asoslangan holda, turizm sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va xavfsizlikni ta'minlash amalga oshiriladi.

Shunday qilib, bunday tahlil qilish zarurati davlat turizmni boshqarish organlarining vakolatlari va tuzilishini asoslash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqich talablariga javob beradigan faoliyat shakllari va usullarini takomillashtirishga qaratilgan qonun-qoidalar ishlab chiqish amaliyotida yuzaga keladigan vazifalar bilan belgilanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni 35-moddasida "O'zbekiston Respublikasi hududida turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi", deya belgilab qo'yilgan. Biroq alohida qayd etish lozimki, ushbu qonun doirasida "xavfsizlik", "xavfsiz turizm" tushunchalari yetarlicha yoritilmagan bo'lib, mazkur ta'rifning shakllantirilishi quyidagi asoslarga ko'ra dolzarb hisoblanadi.

Xususan, turizm sohasida qonun ijodkorligi va huquqni qo'llashning ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu davlat tomonidan xavf-xatarlar va inqirozli vaziyatlarni boshqarish, shuningdek, uning tizimini rivojlantirish masalalarini ko'plab xorijiy mamlakatlar singari turizm siyosati darajasida ta'minlashdir.

Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan tushuncha ta'rifi amaldagi qonunchilikda mavjud emasligi, o'z navbatida, uning mazmuni hamda amal qilish doirasi (chegarasi) ni aniqlashtirish, xavfsiz turizm tushunchasi, mohiyati va ahamiyatini har taraflama chuqur tahlil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, har qanday huquqiy institut singari xavfsiz turizmning ham ilmiy-nazariy asoslarini puxta ishlab chiqish uning amaliyotda muvaffaqiyatli va samarali ishlashini ta'minlaydi.

E.L. Pisarevskiy [13, 128-b.], E.A. Zorina [14, 23-b.], V.L. Golubeva [15, 12-b.], N.E. Lonshakova [16, 24-b.]lar o'rtasida hozirda xavfsiz turizm tushunchasiga oid qarashlar shakllangan bo'lsa-da, tadqiq etilayotgan masalaga nisbatan yagona va umum e'tirof etilgan yondashuv mavjud emas.

Xavfsiz turizmga oid xorij mamlakatlari qonunchiligiga nazar solinsa, xususan, mazkur qonun sohasida "xavfsiz turizm" tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, Moldova Respublikasi qonunchiligida turizm xavfsizligi tor ma'noda ifodalangan bo'lib, unda turistlarning shaxsiy xavfsizligi bilan bog'liq masalalar qayd etilgan [17]. Mazkur ta'rif xavfsiz turizm tushunchasining asosiy faoli-

yat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan bo'lsa-da, unda xavfsiz turizmni tartibga soluvchi barcha munosabatlar inobatga olinmagan.

Qirg'iziston Respublikasi qonunchiligida "Xavfsiz turizm deganda, sayohat vaqtida turistlarning shaxsiy xavfsizligi va ularning mol-mulki xavfsizligi tushuniladi", deb belgilangan [18]. Ushbu qonunda davlat, jamiyat, atrof-muhit muhofazasi yoki xavfsizligi bilan bog'liq masalalar chetda qolgan bo'lib, ko'proq turistlarning manfaatlariga e'tibor qaratilgan.

Belarusiya, Ukraina va Qozog'iston Respublikalarining turizmga oid qonunlarida "turizm xavfsizligi nafaqat turistlarning shaxsiy xavfsizligi, balki jamiyat va davlat xavfsizligining ayrim elementlari, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (keng ma'noda turizm xavfsizligi)ni ham o'z ichiga oladi" [19]. Shuningdek, Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida xavfsiz turizmga jinsiy, mehnat yoki boshqacha tarzda ekspluatatsiya qilish uchun foydalanishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida ham qaraladi.

"Turistik faoliyat asoslari to'g'risida"-gi Rossiya Federatsiyasi Qonuniga asosan, "Xavfsiz turizm deganda, turistlarning xavfsizligi, ularning mol-mulki xavfsizligi, shuningdek, atrof-muhit, jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga zarar yetkazmaslik va sayohat qilishda davlat xavfsizligi" tushuniladi [20].

"Turizmni rag'batlantirish to'g'risida"-gi Turkiya Respublikasi qonunida xavfsiz turizmga "...turistlarning mol-mulki, hayoti xavfsizligidan tashqari, turizm obro'siga ta'sir qiluvchi salbiy holatlar", deya umumiy ma'noda yondashilgan [21].

M.V. Sharuyeva turizm xavfsizligini ta'minlashning asosiy tamoyillari muammoga kompleks yondashuvni belgilovchi izchillik va erishilgan natijalarni baholash imkonini beruvchi samaradorlik tamoyili bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Uning fikricha, "Turizm xavfsizligi – bu huquqiy, mul-

kiy va shaxsiy nomulkiy, ijtimoiy, axborot va turizm sohasidagi huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilarining psixologik xavfsizligi, shuningdek, sayohat paytida atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlari, davlat xavfsizligi, shu bilan birga, turizm xavfsizligini ta'minlash – bu turizm sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va zararsizlantirishga qaratilgan turli xil huquqiy faoliyat turlari, shuningdek, xavfsizlik obyektlarining zarur xavfsizlik darajasini yaratish va saqlash bo'yicha boshqa choralardan foydalanishdir" [22, 38-b.].

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 35-moddasida "Turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligi ularning mol-mulki but saqlanishi, atrof tabiiy muhitga, jamiyatning moddiy hamda ma'naviy qadriyatlariga, davlat xavfsizligiga zarar yetkazilishining oldini olish ta'minlanishi" ekanligi nazarda tutilgan.

Bizning fikrimizcha, turizmda xavfsizlik nafaqat turizm sohasi bilan bog'liq masalalar, balki shaxslar, ya'ni O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning hayoti, ularning mol-mulki, huquqlari, jamoat tartibi va xavfsizligi, ekologiya va atrof-muhit, moddiy-madaniy meros obyektlari va davlat muhofazasi bilan bog'liq barcha munosabatlarni qamrab olishi kerak.

Xavfsiz turizm tushunchasi borasida ilgari surilgan turli qarashlar mavjudligi, shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi yondashuvlar hamda ularni qo'llash amaliyotini inobatga olib, tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, "Turizm to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasiga quyidagi ta'rifni kiritish taklif etiladi: "Xavfsiz turizm – bu turistlarning (ekskursantlarning) hayoti, sog'lig'i, mol-mulkining xavfsizligi, shuningdek, sayohat paytida jamiyatning ma'naviy, moddiy va milliy qadriyatlariga, atrof-muhitga, davlat xavfsizligiga zarar yetkazmaslik va ushbu qoidalarni buzganlik

uchun javobgarlik belgilovchi huquq normalari bilan tartibga solinadigan mexanizmlar yig'indisi".

Bunda turizm sohasi subyektlarining shaxsiy xavfsizligi, mol-mulkining daxlsizligi, huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi, ijtimoiy, tibbiy va huquqiy himoyasi, shu bilan birga, atrof-muhitga, jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga, davlat xavfsizligiga zarar yetkazilishiga yo'l qo'yilmasligi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va milliy, ma'naviy qadriyatlari va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga mas'ulligi tushunilishi lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, respublikamizda xavfsiz turizmni ta'minlashning huquqiy asoslarida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratish lozim.

Birinchidan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va mazkur hujjatlarni klassifikatsiya qilish bo'yicha xavfsiz turizmni ta'minlashning huquqiy asoslarini ikki yirik guruhga ajratib o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik hujjatlari.

Ikkinchidan, xavfsiz turizmni ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro normativ hujjatlarni (ta'sir doirasini inobatga olgan holda) shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq: xalqaro universal hujjatlar va bevosita xavfsiz turizmni ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar.

Uchinchidan, xavfsiz turizmni ta'minlashning milliy qonunchilik hujjatlari o'z o'rnida ikkiga bo'linadi: umumiy va bevosita turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlovchi hujjatlar.

To'rtinchidan, umumiy xususiyatga ega normativ hujjatlar turizm sohasida xavfsizlikni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari-dan iborat bo'lsa, bevosita turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlovchi hujjatlarga mazkur sohani tartibga soluvchi qonunosti hujjatlar kiradi.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Turizmda xavfsizlik nafaqat turizm sohasi bilan bog'liq masalalar, balki shaxslar, ya'ni O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning hayoti, ularning mol-mulki, huquqlari, jamoat tartibi va xavfsizligi, ekologiya va atrof-muhit, moddiy-madaniy meros obyektlari va davlat muhofazasi bilan bog'liq barcha munosabatlarni qamrab olishi kerak.

Xavfsiz turizm tushunchasi borasida ilgari surilgan turli qarashlar mavjudligi, shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi yondashuvlar hamda ularni qo'llash amaliyotini inobatga olib, tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, "Turizm to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasiga quyidagicha ta'rif kiritish taklif etiladi: "Xavfsiz turizm – bu turistlarning (ekskursantlarning) hayoti, sog'lig'i, mol-mulkining xavfsizligi, shuningdek, sayohat paytida jamiyatning ma'naviy, moddiy va milliy qadriyatlariga, atrof-muhitga, davlat xavfsizligiga zarar yetkazmaslik va ushbu qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik belgilovchi huquq normalari bilan tartibga solinadigan mexanizmlar yig'indisi".

O'ylaymizki, ushbu ta'rifning shakllanishi har qanday huquqiy institut singari xavfsiz turizmning ham ilmiy-nazariy asoslari hamda uning amaliyotda muvaffaqiyatli va samarali ishlashini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. "O'ztemiryo'lovchi": turkiyalik sayyohdan 100 ming so'm pora olib, joyini almashtirib bergan poyezd xodimi topilmadi ["O'ztemiryo'lovchi" a train employee who took a bribe of 100,000 from a Turkish tourist and exchanged places was not found]. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/oztemiryolovchi-turkiyalik-sayyohdan-100-ming-som-pora-olib-joyini-almashtirib-bergan-poezd-xodimi-topilmadi>
2. Report of World Tourism Organization (UNWTO) Available at: <https://www.timeout.com/news/the-safest-countries-in-the-world-have-been-announced-for-2023-070323> , <https://visitworld.today/blog/1539/most-dangerous-countries-in-the-world-in-2023-data-from-the-global-peace-index-rating>
3. Chetverikov B.C. Administrativnoe pravo [Administrative law]. *Higher Education*. Rostov-on-Don, Phoenix, 2004, p. 512.
4. Saitqulov K.A. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini tashkil etish [Organization of cooperation of the internal affairs bodies with civil society institutions of Preventive Services]. Tashkent, Academy of MIA of the Republic of Uzbekistan, 2015, p. 123.
5. Odilkoriyev X.T., Tulteyev I.T. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Academy of MIA of the Republic of Uzbekistan, 2009, p. 582.
6. Ishanxodjayev S.A. Mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy masalalari [International legal issues of protection of the rights of working-migrants]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2010, p. 175.
7. The Charter of Tourism "was approved by resolution I of the VI session of the General Assembly of the World Tourism Organization on September 22, 1985. Available at: https://studopedia.ru/19_285812_osobennosti-i-printsipi-rayonirovaniya-v-mezhdunarodnom-turizme.html
8. Global Code of Ethics for Tourism. Resolution adopted by the General Assembly on 21 December 2001. Available at: www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pdf/tourism.pdf
9. Hague Declaration on Tourism. The Hague, 1989, April 10-14. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=33416301
10. Estersund Declaration on tourism safety and Travel Risk Reduction Östersund declaration. Available at: https://studwood.net/1144781/turizm/estersundskaya_konferentsiya_bezopasnosti_turizma_umensheniyu_riskov_puteshestviyah
11. The Osaka Millennium Declaration Was Adopted by the Millennium Tourism Leaders Conference. Osako (Japan), 2001, September 30 – October 1. Available at: <https://pandia.ru/text/78/550/37196.php>
12. Official tourism statistics. Available at: <https://uzbektourism.uz/research/statistics>
13. Pisarevsky E.L., Bobkova A.G., Kudrevatykh S.A., Bezopasnost' turizma [Tourism safety]. Moscow, 2014, p. 128.
14. Zorina E.A. Pravovoye regulirovaniye bezopasnosti turizma pri ugrozakh vozniknoveniya chrezvychaynykh situatsiy v Rossiyskoy Federatsii [Legal regulation of tourism safety in case of threats of emergency situations in the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Sankt-Petersburg, 2009, p. 23.
15. Golubeva V.L. Politicheskiye mekhanizmy obespecheniya bezopasnosti turistskoy deyatelnosti v Rossii [Political mechanisms for ensuring the safety of tourist activity in Russia]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2011, p. 12.
16. Lonshakova N.E. Publichnaya politika v sfere turizma [Public policy in the field of tourism]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2010, p. 24.
17. On the Organization and Implementation of Tourism Activities in the Republic of Moldova: Law of the Republic of Moldova. 2006, November 24, No. 352-XVI, with amendments and Additions as of 06.11.2020.

18. On Tourism: Law of the Kyrgyz Republic. 1999, March 25, No. 34. As amended by the Laws of the Kyrgyz Republic, 2003, October 21, No. 218; 2013, December 5, No. 211; 2017, May 10, No. 79. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/20>

19. Law on Tourism of the Republic of Belarus. 1999, November 25, No. 326-z. Available at: www.equatorial.by/sites/default/fileszakon_respubliki_belarus_o_turizme

20. On the basics of tourist activity in the Russian Federation: Federal Law. 1996, November 24, No. 132-FZ. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_12462/130f61c72e3392a595dc9c387a89ff65a35d9aa5/

21. Turkish Tourism Promotion Law. 1982, December 3, No. 2634. Available at: <https://turkeyforfriends.com/forum/95-2973-1>

22. Sharuyeva M.V. Pravovoye obespecheniye bezopasnosti turizma po Rossiyskomu zakonodatel'stvu [Legal security of tourism under Russian legislation]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2010, p. 38.

23. Law on Tourism of the Republic of Ukraine. 1995, September 15, No. 324/95-BP. Available at: https://urst.com.ua/ru/o_turizme/st-13

24. The Law on Tourist Activity in the Republic of Kazakhstan. 2001, June 13, No. 211-II. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1023618&pos=4;-106#pos=4;-106

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./EWGV2867
UDC: 347.451.01(045)(575.1)

FUQAROLIK HUQUQIDA SUKSESSIYA INSTITUTI VA UNING QO'LLANILISHI

Gulomov Akmaljon Shukurillayevich,
Samarqand davlat universiteti
professori v. b., yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0003-1521-3394
e-mail: gulomovakmaljon@mail.ru

Annotatsiya. Ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan munosabatlar turli huquq sohalarining qator institutlari bilan tartibga solinadi. Xususan, fuqarolik huquqi sohasida fuqarolik huquqi subyektlari o'rtasida vujudga keladigan va shakllanadigan shunday munosabatlar borki, aniq hayotiy vaziyatning yuzaga kelishi sababli ularning rivojlanishi unda qatnashuvchi taraflarning huquqiy vorislari tomonidan ta'minlanadi. Bu institut sivilistikada suksessiya deb nomlanadi. Mazkur maqolada suksessiya institutining ta'rifi, universal va singulyar huquqiy vorislik masalalari, ularning fuqarolik qonunchiligida qo'llanishiga doir masalalar o'rganilgan. Xususan, suksessiya – bu mulkiy huquq va majburiyatlarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga bevosita qonun yoki shartnoma asosida o'tishi hodisasidir. Huquqiy vorislik – universal va singulyar bo'lishi mumkin. Universal huquqiy vorislikda bir shaxsga tegishli bo'lgan barcha huquq va majburiyatlarning jami ikkinchi shaxsga o'tadi. Masalan, bir necha yuridik shaxslar qo'shib yuborilganda, yangi tashkil bo'lgan yuridik shaxsga universal vorislik tartibida oldingilarga tegishli barcha huquq va majburiyatlar o'tishini ko'rish mumkin. Singulyar vorislik deganda, mulkka bo'lgan huquqlarning to'liq emas, balki ma'lum bir qismiga bo'lgan huquqlarning o'tishi tushuniladi. Suksessiya instituti fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirok etgan munosabatlarda keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: universal suksessiya, singulyar suksessiya, yuridik shaxs, bitim, shartnoma, mulkiy huquq va majburiyatlar.

ИНСТИТУТ СУКЦЕССИИ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ В ГРАЖДАНСКОМ ПРАВЕ

Гуломов Акмалжон Шукуриллаевич,
кандидат юридических наук, и. о. профессора
Самаркандского государственного университета

Аннотация. Отношения, возникающие в общественной жизни, регулируются рядом институтов различных правовых сфер. В частности, в сфере гражданского права существуют такие отношения, которые возникают и складываются между субъектами гражданского права, развитие которых обеспечивается правопреемниками сторон в силу возникновения конкретной жизненной ситуации. Этот институт в цивилистике называется сукцессия. В данной статье рассматриваются определение института правопреемства, вопросы универсального и сингулярного правопреемства и их применение в гражданском праве. В частности, правопреемством называется явление перехода имущественных прав и обязанностей от одного лица к другому непосредственно на основании закона или договора. Правопреемство может быть универсальным или сингулярным. При универсальном правопреемстве ко второму лицу переходит совокупность всех прав и обязанностей, принадлежащих одному лицу. Например, при слиянии нескольких юридических лиц все права и обязанности предшественников переходят к вновь созданному юридическому лицу в порядке

универсального преемства. Сингулярное преемство означает переход прав на определённую часть имущества, а не на всё. Институт преемства широко используется в отношениях между гражданами и юридическими лицами.

Ключевые слова: универсальное преемство, исключительное преемство, юридическое лицо, сделка, договор, имущественные права и обязанности.

INSTITUTE OF SUCCESSION AND ITS APPLICATION IN CIVIL LAW

Gulomov Akmaljan Shukurillayevich,
Samarkand State University,
Acting Professor, PhD in Law

Abstract. Relations that arise in social life are regulated by a number of institutions of various legal fields. In particular, in the field of civil law, there are such relations that arise and are formed between the subjects of civil law, whose development is ensured by the legal heirs of the participating parties due to the occurrence of a specific life situation. This institution is called succession in civilization. This article examines the definition of the institution of succession, the issues of universal and singular legal succession, and their application in civil law. In particular, succession is the phenomenon of the transfer of property rights and obligations from one person to another directly on the basis of a law or contract. Legal succession can be universal or singular. In universal legal succession, the totality of all rights and obligations belonging to one person is transferred to the second person. For example, when several legal entities are merged, it can be seen that all the rights and obligations of the predecessors are transferred to the newly established legal entity in the order of universal succession. Singular succession means the transfer of rights to a certain part of the property, not the whole. The institution of succession is widely used in relations involving citizens and legal entities.

Keywords: universal succession, singular succession, legal entity, transaction, contract, property rights and obligations.

Kirish

Ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan munosabatlar turli huquq sohaslarining qator institutlari bilan tartibga solinadi. Xususan, fuqarolik huquqi sohasining subyektlari o'rtasida vujudga keladigan va shakllanadigan shunday munosabatlar borki, aniq hayotiy vaziyatning yuzaga kelishi sababli ularning rivojlanishi unda qatnashuvchi taraflarning huquqiy vorislari tomonidan ta'minlanadi. Bu institut sivilistikada suksessiya deb nomlanadi. Barcha ilm ahli va sud hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat yuritayotganlar ham bundan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Zero, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda, "...aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllanti-

rish bosh ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi" [1].

Suksessiya lotincha – *successio*, inglizcha – *legal succession* so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida huquqiy vorislik degan ma'noni anglatadi. Suksessiya – bu mulkiy huquq va majburiyatlarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga bevosita qonun yoki shartnoma asosida o'tishi hodisasidir.

Material va metodlar

Mazkur mavzuni o'rganishda suksessiya instituti bo'yicha fuqarolik qonun hujjatlari normalari, sivilist olimlarning ilmiy-nazariy xulosalari hamda qiyosiy huquqshunoslik, tahlil, induksiya va deduksiya metodlaridan maqsadli foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Suksessiya instituti haqida yuridik adabiyotlarda qator fikrlar o'rta tashlangan.

Huquqiy vorislik umumiy (universal) va qisman (singulyar) turlarga ajratilishi Rim huquqidan ma'lum. Zamonaviy qonunchilik merosni universal vorislik sifatida ta'riflagani uchun Rim huquqidan qarzdordir. Unga ko'ra, merosxo'rga nafaqat yagona kompleks sifatida meros qoldiruvchiga tegishli barcha huquq va majburiyatlar, balki unga o'zining mulki bilan meros qoldiruvchining qarzdorligi bo'yicha javobgarligi ham yuklatilgan [2]. Rim huquqida vorislik haqida (*successio*) to'xtalganda, klassik huquq davrining oxirigacha faqat umumiy vorislik tushunilgan. Klassikdan keyingi huquqiy davrda paydo bo'lgan va Yustinian davrida mustahkam o'rnatilgan ayrim mulklarda vorislik, boshqacha qilib aytganda, qisman vorislik (*Successio singulas res*) tushunchasi paydo bo'lganligini ta'kidlash mumkin [3].

Umumiy huquqiy vorislikda bir shaxsga tegishli bo'lgan barcha huquq va majburiyatlarning jami ikkinchi shaxsga o'tadi. Masalan, bir necha yuridik shaxslar qo'shib yuborilganda, yangi tashkil bo'lgan yuridik shaxsga universal vorislik tartibida oldingilarga tegishli barcha huquq va majburiyatlar o'tishini ko'rish mumkin. Huquqiy vorislik bo'yicha huquq va majburiyatlar to'la yoki qisman asosda qayta tashkil etilayotgan yangi subyektga o'tadi [4]. Bu institut mazmunini huquq subyektiga tegishli huquq va majburiyatlarning to'la (universal) yoki qisman (singulyar) asosda qayta tashkil etilayotgan yangi subyektga o'tishi tashkil qiladi [5].

Yuridik shaxsni qayta tashkil etganda, qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquq va majburiyatlari muqaddam mavjud bo'lgan va/yoki yangi tashkil etilayotgan huquq subyektlariga universal huquqiy vorislik tartibida o'tadi, chunki ular qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsga qayta tashkil etish paytida qanday ko'rinish, hajm va holatda tegishli bo'lgan bo'lsa, xuddi o'shandayligicha o'tkaziladi [6]. Huquqiy vorislik natijasida voris meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan barcha huquq va majburiyatlarga egalik

qiladi hamda uning o'rnini egallaydi. Istisno tariqasida fuqarolik qonunchiligi huquqiy vorislikka yo'l qo'ymaydigan holatlardan tashqari (masalan, mualliflik huquqi) [7]. Fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining subyektlari tarkibi turli hodisalar va harakatlar, xususan, jismoniy shaxslar vafot etgan, yuridik shaxslar tugatilgan va qayta tashkil etilgan hollarda, bitimlar va boshqalar natijasida o'zgarishi mumkin. Huquqiy munosabatlarda huquq va majburiyatlarning bir shaxsdan boshqasiga (huquqiy voris) o'tishi vorislik hisoblanadi [8].

Tadqiqot natijalari tahlili

Suksessiya instituti natijasida mavjud bo'lgan huquqiy munosabatlar mazmuni o'zgarmasdan, balki uning subyektlari tarkibi yangilanishiga olib keladi.

Huquqiy vorislikka oid normalar fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari: yuridik shaxslar va fuqarolari tomonidan qanday qo'llanadi? Masalan, FKning 50-moddasi yuridik shaxslarni qayta tashkil etishda huquqiy vorislik qoidalarini nazarda tutadi. Jumladan, yuridik shaxslar qo'shib yuborilganda, ular har birining huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 93-moddasi 4-qismi mazmuniga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari qo'shib yuborilgan taqdirda, ularning har biriga tegishli barcha huquq va majburiyatlar topshirish dalolatnomasiga muvofiq, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi. "Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 50-moddasi 4-qismiga ko'ra, jamiyatlar qo'shib yuborilganda, ulardan har birining barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomalariga muvofiq, qo'shib yuborish natijasida tashkil etilgan jamiyatga o'tadi.

Yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shilganda, bu yuridik shaxsga qo'shilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari top-

shirish hujjatiga muvofiq o'tadi. Masalan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 94-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, bir aksiyadorlik jamiyati boshqa-boshqa aksiyadorlik jamiyatiga qo'shib olinayotganda, qo'shib olinayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq, qo'shib olayotgan yuridik shaxsga o'tadi. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, bir jamiyat boshqasiga birlashtirilganda, topshirish dalolatnomasiga muvofiq, birlashtirilayotgan jamiyatning barcha huquq va majburiyatlari birlashtirib olayotgan jamiyatga o'tadi.

Yuridik shaxs bo'lingan taqdirda, uning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o'tadi. Masalan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 95-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, jamiyat bo'linganda, uning barcha huquq va majburiyatlari taqsimlash balansiga muvofiq, tashkil etilayotgan ikki yoki bir nechta yuridik shaxsga o'tadi. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 52-moddasi beshinchi qismiga ko'ra, jamiyat bo'linganda, uning barcha huquq va majburiyatlari bo'lish balansiga muvofiq, bo'lish natijasida tashkil etilgan jamiyatlarga o'tadi. Shunga ahamiyat berish kerakki, bo'lish shaklida yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, universal huquqiy vorislikni istisno qilishi mumkin [9].

Yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs ajralib chiqqanda, qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq, ularning har biriga o'tadi. Masalan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 96-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, aksiyadorlik jamiyati tarkibidan bir

yoki bir nechta yuridik shaxs ajralib chiqqanda, ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilgan jamiyat huquq va majburiyatlari-ning bir qismi taqsimlash balansiga muvofiq, ularning har biriga o'tadi. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 53-moddasi beshinchi qismiga ko'ra, jamiyatdan bir yoki bir nechta jamiyat ajratib chiqarilganda, qayta tashkil etilgan jamiyat huquq va majburiyatlari-ning bir qismi bo'lish balansiga muvofiq, ularning har biriga o'tadi.

Bir turdagi yuridik shaxs boshqa turdagi yuridik shaxsga aylantirilganda (tashkiliy-huquqiy shakli o'zgartirilganda), qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi. Masalan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 97-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, aksiyadorlik jamiyati o'zgartirilganda, uning barcha huquq va majburiyatlari saqlanib qoladi. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 54-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, jamiyatni qayta tuzish natijasida tashkil etilgan yuridik shaxsga qayta tashkil etilgan jamiyatning barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq o'tadi.

Uy-joy kodeksining 12-moddasiga muvofiq, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari mulkchilikning boshqa shakliga o'tganda yoki ular qayta tashkil etilganda, ularning to'la xo'jalik yuritishi yoki operativ boshqaruvida bo'lgan uy-joy fondi ushbu korxona, muassasa va tashkilotlar huquqiy vorislariga (agar ular aniqlangan bo'lsa), boshqa yuridik shaxslarga mulk qilib yoxud ularning to'la xo'jalik yuritishi yoki operativ boshqaruvi yoxud belgilangan tartibda fuqarolarning barcha uy-joy huquqlari, shu jumladan, uy-joyi xususilashtirish huquqini saqlagan holda, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tasarrufiga o'tkazilishi lozim.

Bunda uy-joyning yangi mulkdori egasi ilgari tuzilgan ijara shartnomasi shartlari asosida ijaraga beruvchi bo'lib qoladi.

Yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan huquqiy vorislik masalasi yechimida topshirish hujjati va taqsimlash balansi alohida ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik kodeksining 51-moddasi birinchi qismiga ko'ra, topshirish hujjati va taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlari, shu jumladan, taraflar bahslashayotgan majburiyatlar bo'yicha ham huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Akademik H. Rahmonqulov ta'kidlaganidek, huquqiy vorislik mazmunini mol-mulkni topshirish hujjati va uni taqsimlash balansi tashkil qiladi. Yuridik shaxsning bo'linishi yoki uning ajralib chiqishida mol-mulkning taqdiri topshirish hujjati va taqsimlash balansiga asosan hal qilinaadi. Ushbu hujjatlar bilan yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquq va majburiyatlari hajmi belgilanadi [10]. Xo'sh, topshirish hujjati va taqsimlash balansini kim ishlab chiqadi? Yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki yuridik shaxslarni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan organ tomonidan topshirish hujjati va taqsimlash balansi tasdiqlanadi hamda ta'sis hujjatlari bilan birga yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki mavjud yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish uchun taqdim etiladi. Masalan, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, jamiyatni birlashtirish shaklida qayta tashkil etishda ishtirok etuvchi har bir jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi bunday qayta tashkil etish va birlashtirish to'g'risidagi shartnomani tasdiqlash haqida qaror qabul qiladi. Birlashtirilayotgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi

esa topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risida ham qaror qabul qiladi.

Yoki "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning ikkinchi va uchinchi qismlariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyati bo'lish shaklida qayta tashkil etilayotgan jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyatni bo'lish shaklida qayta tashkil etish, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxslarni tashkil etish hamda qayta tashkil etilayotgan jamiyatning aksiyalarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning aksiyalari va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi haqidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi. Bo'lish shaklida qayta tashkil etilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi jamiyatni bo'lish shaklida qayta tashkil etish, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxslarni tashkil etish hamda qayta tashkil etilayotgan jamiyatning aksiyalarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning aksiyalari va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi (taqsimlash balansi) haqida qaror qabul qiladi.

Demak, yuridik shaxslar uchun huquqiy vorislik masalasini hal etish bevosita yuridik shaxs tomonidan ishlab chiqilgan va uning organlari tomonidan tasdiqlangan topshirish va taqsimlash hujjatlari asosida qo'llanadi.

Topshirish hujjati yoki taqsimlash balansida qayta tashkil etilgan yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalarining yo'qligi yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishiga sabab bo'ladi.

Suksessiya instituti xususiy korxonani qayta tashkil etish, nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish, shuningdek, qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarini qayta tashkil etishda ham keng qo'llaniladi. Huquqiy vorislik nafaqat fuqarolik huquqiy xususiyatidagi, balki ma'muriy huquqiy munosabatlar bo'yicha mol-mulkka nisbatan huquqlarning

ham vorisga o'tkazilishini nazarda tutadi (yuridik shaxsning soliq majburiyatlari) [9].

Yuridik shaxslarni qayta tashkil etishda suksessiya institutining ahamiyati shundaki, unda barcha kreditorlar huquqlarining muhofazasi ta'minlangani bilan birga, huquqning yangi subyekti vujudga kelishida ham muhim o'rin tutadi.

Huquqiy vorislik nafaqat huquq va majburiyatlarning boshqa shaxsga o'tish tartibi, balki javobgarlik masalasini ham o'ziga ergashtiradi. Masalan, FKning 52-moddasi 3-qismiga ko'ra, agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari bo'yicha solidar javobgar bo'ladi. Jumladan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 92-moddasi yettinchi qismiga ko'ra, agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyatining huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan jamiyatning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari yuzasidan solidar javobgar bo'ladi. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 52-moddasi beshinchi qismiga ko'ra, agar bo'lish balansi qayta tashkil etilgan jamiyatning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, qayta tashkil etish natijasida tashkil etilgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan jamiyatning majburiyatlari yuzasidan uning kreditorlari oldida solidar javobgar bo'ladi. Bu yerda huquqiy vorisni aniqlash imkoni bo'lmasa-da, biroq sobiq jamiyatning majburiyatlari yuzasidan solidar javobgarlikning belgilanishi suksessiya instituti qo'llanayotganligidan darak beradi.

Suksessiya instituti yuqorida ko'rib chiqqanimiz – nafaqat yuridik shaxslar ishtirok etgan munosabatlar, balki jismoniy shaxslar bilan bog'liq holatda ham

keng qo'llanadi. Fuqaroning vafot etishi hodisasi universal huquqiy vorislik normalarini harakatga keltiradi. Meros universal huquqiy vorislik natijasida uchinchi shaxsning ishtirokisiz bevosita bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tadi [11]. Fuqarolik kodeksining 1113-moddasiga ko'ra, meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi.

"Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo'llanishi to'g'risida"gi Oliy sud Plenumi qarorining 3-bandiga ko'ra, Fuqarolik kodeksining 1113-moddasiga muvofiq, meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan ko'char va ko'chmas mulk, ashyolar, shu jumladan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha mulkiy huquq va majburiyatlar, chunonchi, xususiy mulk huquqi, kredit muassasalarida saqlanayotgan omonatlarga bo'lgan huquq, dehqon xo'jaligi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi ("Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi), yer uchastkasini ijaraga olish huquqi ("Fermar xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasi) va h.k.lar kiradi.

Fuqarolik kodeksining 1112-moddasiga muvofiq, vorislik vasiyat va qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Vasiyat va qonun bo'yicha vorislar sifatida, jumladan, meros ochilgan paytda hayot bo'lgan shaxslar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotligi paytida homila holida bo'lib, meros ochilgandan so'ng tirik tug'ilgan bolalari bo'lishi mumkin. Mol-mulk vasiyat bo'yicha meros qodirilganda, huquqiy vorislik asosida meros oluvchi subyektlar har qanday shaxs yoxud bir necha shaxs, shuningdek, yuridik shaxslar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoxud davlat bo'lishi mumkin.

Qonun bo'yicha merosxo'rlar vorislikka bevosita nazarda tutilgan navbat tartibida chaqiriladilar. Fuqarolik qonunchiligi

meros mulkiga nisbatan vorislikka chaqirishning oltita navbatini o'zida mustahkamlaydi. Masalan, FKning 1135-moddasiga ko'ra, me-ros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan, farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradilar. Meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir, ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek, uning ham ota, ham ona tarafdan bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi (FK, 1136-modda).

Ayrim davlatlar qonunchiligida navbatga nisbatan munosabat quyidagicha belgilangan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi 1145-moddasi hamda Qozog'iston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1064-moddasi vorislikka chaqiriluvchilarning yetti navbatini belgilasa, Turkiya Medeniy qonuni [12]ning meros huquqi uchinchi kitobi to'rt darajadagi qonuniy merosxo'rlarni belgilab beradi.

Shu holatga alohida e'tibor qaratish kerakki, qonun bo'yicha vorislarning har bir navbati avvalgi navbatdagi merosxo'rlar bo'lmagan, merosdan chetlashtirilgan, merosni qabul qilmagan yoxud undan voz kechgan taqdirda, suksessiya orqali meros olish huquqiga ega bo'ladi.

Fuqarolarning bitimlar asosida o'z zim-malariga olgan majburiyatlarining bajarilishi ham suksessiya orqali merosxo'rlariga o'tadi va ular tomonidan bajarilishi ta'minlanadi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 510-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, agar hadya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, hadya shartnomasiga muvofiq, hadya berishni va'da qilgan shaxsning majburiyatlari uning merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) o'tadi. Yoki Fuqarolik kodeksi-ni-ning 510-moddasi yettinchi qismi mazmu-

niga ko'ra, xayr-ehson qilingan mulkdan xayr-ehson qiluvchi ko'rsatgan maqsadga zid holda foydalanish yoki ushbu maqsad-ni o'zgartirish xayr-ehson qiluvchining me-rosxo'rlari yoki boshqa huquqiy vorisi-ga xayr-ehsonni bekor qilishni talab qilish huquqini beradi. Yoxud Fuqarolik kodeksi-ni-ning 629-moddasi ikkinchi qismi mazmuni-ga ko'ra, ssuda beruvchi fuqaro vafot etgan yoxud ssuda beruvchi yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda, tekin foydalanish shartnomasi bo'yicha ularning huquq va burchlari merosxo'r yoki boshqa huquqiy voris yoxud ashyoga mulk huquqi yoki ashyoni tekin foydalanish uchun topshirishga asos bo'lgan o'zga huquq o'tgan boshqa shaxsga o'tadi. Vakil vafot etgan taqdirda, uning merosxo'rlari yoki meros mulkning saqlanishini ta'minlash majburi-yati yuklatilgan boshqa shaxslar topshiri-q shartnomasi bekor qilinishi haqida topshiri-q beruvchiga kechiktirmay xabar berishlari hamda topshiriq beruvchining mol-mulki-ni muhofaza qilish uchun zarur choralarni ko'rishlari, xususan, topshiriq beruvchining ashyolari, shuningdek, hujjatlarini saqlab qo'yishlari, so'ngra esa unga topshirishlari shart (FKning 825-moddasi birinchi qism).

Singulyar huquqiy vorislik suksessiya ins-titutining ikkinchi turi hisoblanadi. Bu haqda fuqarolik qonunchiligida to'xtalib o'tilmagan. Singulyar vorislik deganda, mulkka bo'lgan huquqlarning to'liq emas, ma'lum bir qismi o'tishi tushuniladi. Singulyar tartibda voris-larga huquqning belgilangan ma'lum qismi o'tishi mumkinligi nazarda tutilganligi uchun qisman huquqiy vorislik deb ham yuritiladi. Singulyar vorislik yuridik shaxsni qayta tash-kil qilishda istisno sifatida qo'llanishi mumkin [13]. Vorislik huquqida ham singulyar huquqiy vorislik qo'llanilishi mumkin. Bunda singulyar huquqiy voris aniq bir huquqni bevosita me-ros qoldiruvchidan emas, balki merosxo'rdan oladi. Meros qoldiruvchi merosxo'r zimmasiga singulyar voris uchun ma'lum bir majburiyatni bajarishi lozimligini yuklashi mumkin (vasiyat

qilingan merosning bir qismini kutubxonaga topshirish) [11].

Fuqarolik huquqining majburiyat huquqiy munosabatlarida singulyar huquqiy vorislik masalalari tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan [14]. Qisman huquqiy vorislikda vorislik bir yoki bir necha huquqiy munosabatlarda vujudga kelishi mumkin. Masalan, Fuqarolik kodeksining 313-moddasi birinchi qismiga ko'ra, majburiyat asosida kreditorga tegishli bo'lgan huquq (talab) u tomonidan bitim bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazilishi (talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish) yoki qonun asosida boshqa shaxsga o'tishi mumkin. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasiga asosan, dastlabki kreditor asosiy majburiyat bo'yicha talab qilish huquqini topshirish, yangi kreditor esa bu huquqlarni qabul qilish majburiyatini oladi. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilganda, dastlabki kreditor asosiy majburiyat bo'yicha shaxs almashtirilishi munosabati bilan majburiyatdan chiqadi. Yangi kreditorga, xususan, pul majburiyatining bajarilishini ta'minlaydigan huquqlar (masalan, boqimanda undirish va h.k), shuningdek, talab bilan bog'liq boshqa huquqlar, shu jumladan, to'lanmagan foizlarga bo'lgan huquq ham o'tadi.

Qisman huquqiy vorislik nafaqat bitimlar tuzish orqali, balki qonunchilikda ko'rsatilgan hollarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, FKning 295-moddasi birinchi qismiga ko'ra, majburiyatni bajargan kafilga kreditorning ushbu majburiyat bo'yicha huquqlari hamda garovga oluvchi sifatida kreditorga tegishli bo'lgan huquqlar kafil kreditorning talabini qancha hajmda qanoatlantirgan bo'lsa, shuncha hajmda o'tadi. Kafil kreditorga to'langan summaga foizlar to'lash va qarzdor uchun javobgarlik munosabati bilan ko'rgan boshqa zararini to'lashni qarzdordan talab qilishga haqli. Agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)-ning sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish

huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi (FKning 957-moddasi birinchi qism).

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, dastlabki kreditorning huquqlari aniq huquqiy munosabatlarda (bitim yoki qonun asosida) singulyar huquqiy vorislik normalariga tayanib, yangi kreditorga o'tganligini ko'rish mumkin.

Xulosalar

Fuqarolik huquqiy munosabatlarda suksessiya institutining qo'llanishi yuzasidan quyidagi xulosalarni taqdim etish mumkin:

birinchidan, fuqarolik huquqiy munosabatlarda suksessiya universal va singulyar huquqiy vorislik turlariga bo'lingan holda qo'llanadi;

ikkinchidan, fuqarolik huquqining sun'iy subyekti hisoblangan yuridik shaxslar qayta tashkil etilganda, jismoniy shaxslarga meros masalalari vujudga kelganda, suksessiya institutining universal huquqiy vorislik normalari tatbiq etiladi;

uchinchidan, yuridik shaxslar uchun huquqiy vorislik masalasini hal etish bevosita yuridik shaxs tomonidan ishlab chiqilgan va uning organlari tomonidan tasdiqlangan topshirish va taqsimlash hujjatlari asosida amalga oshiriladi;

to'rtinchidan, fuqaroning vafot etishi oqibatida vorislik masalasi vujudga kelganda, universal huquqiy vorislik normalari qo'llanadi. Qonun bo'yicha vorislarning har bir navbati avvalgi navbatdagi merosxo'rlar bo'lmagan, merosdan chetlashtirilgan, merosni qabul qilmagan yoxud undan voz kechgan taqdirda, suksessiya orqali meros olish huquqiga ega bo'ladi;

beshinchidan, bitim tuzish orqali yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, aniq huquqiy munosabatlarga nisbatan singulyar huquqiy vorislik normalarining qo'llanishi kuzatiladi. Bunda dastlabki kreditorning huquqlari aniq huquqiy munosabatlarda (bitim yoki qonun asosida) singulyar huquqiy vorislik normalariga tayanib, yangi kreditorga o'tadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi [Strategy of New Uzbekistan]. Tashkent, 2021, p. 70.
2. Rimskoye chastnoye pravo [Roman private law]. Eds. by I.V. Novitsky, I.S. Peretersky. P. 129. Available at: <http://lib.maupfib.kg/wp-content/uploads/novizkiy.pdf>
3. Günel N. Roma miras hukuku'na genel bir bakış ve vasiyet yolu ile miras [A general overview of Roman inheritance law and inheritance through will]. Available at: <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/629576>
4. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi [Civil law]. Part I. Tashkent, 2009, p. 183.
5. Fuqarolik huquqi [Civil law]. Ed. O. Okyulov. Tashkent, 2017, p. 81.
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1 (part one). Tashkent, 2010, p. 145.
7. Sukhanov Ye.A. Grazhdanskoye pravo [Civil law]. Moscow, 1997, p. 48.
8. Grazhdanskoye pravo [Civil law]. Vol. 1. Moscow, 2011, p. 120.
9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1 (part one). Tashkent, 2010, p. 145.
10. Rahmonqulov H.R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsiya va sharhlar [General recommendations and comments on the first part of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1997, p. 176.
11. Grazhdanskoye pravo [Civil law]. Vol. I. Ed. E.A. Sukhanov. Moscow, 2004, p. 420.
12. Türk Medeni Kanunu [Turkish Civil Law]. Law. 2001, November 22, No. 4721.
13. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari [Civil rights problems]. Part 1. Tashkent, 2010, p. 254.
14. Belov V.A. Singulyarnoye pravopreyemstvo v obyazatelstve [Singular succession in obligation]. Moscow, Center YurInfoR Publ., 2002, p. 299.
15. Handler W.C. Succession in Family Business: A Review of the Research. *Family Business Review*, 1994, vol. 7 (2), pp. 133–157. DOI: 10.1111/j.1741-6248.1994.00133.x

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./JBTI6657
UDC: 341.636(045)(575.1)

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA MAXFIYLIK TAMOYILINI QO‘LLASHNING HUQUQIY MASALALARI

Imamova Dилфуза Ismailovna,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Fuqarolik va xalqaro xususiy huquq fanlari
kafedrası professori, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0002-9403-7538
e-mail: imamova.dilfuza@gmail.com

Razakova Farangiz Karim qizi,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti magistranti,
ORCID: 0009-0008-5762-2608
e-mail: farangizrzaqova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mualliflar tomonidan xalqaro tijorat arbitrajida maxfiylik tamoyili tushunchasi, tarixi, ularning yuridik tavsifi, qiyosiy-huquqiy tahlili va ushbu holatlarni qo‘llashning amaliy jihatlari bilan bog‘liq masalalar bayon qilingan. Bundan tashqari, maxfiylik va daxlsizlik tamoyillariga taalluqli hujjatlar va shaxslar doirasi tahlil qilinib, xalqaro tijorat arbitraji amaliyotida maxfiylikni saqlash muammolari aniqlangan. Maxfiylik tamoyili va davlat manfaatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka alohida urg‘u berilgan. Shuningdek, ushbu holatlar to‘g‘risida qonun hujjatlaridagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga doir bir qator takliflar keltirilgan. Tadqiqot ishining maqsadi arbitraj muhokamasi ishtirokchilari, shu jumladan, taraflar va ularning vakillari, arbitraj sudi, arbitraj institutlari, guvohlar va ekspertlar kabi uchinchi ishtirokchilar uchun majburiy bo‘lgan maxfiylik doirasini o‘rganishdir. Maxfiylik prezumpsiyasi xalqaro tijorat arbitrajida mavjud. Biroq sud amaliyoti arbitrajning maqsadi va uning maxfiylik bilan o‘zaro ta’siri bo‘yicha nomuvofiqdir. Ushbu tadqiqotda xalqaro tijorat arbitraji bilan bog‘liq maxfiylik tushunchasi va funksiyasi o‘rganilgan. Tadqiqot ishining predmetini xalqaro tijorat arbitrajida maxfiylik tamoyilini qo‘llashning arbitraj jarayonidagi huquqiy ahamiyati, shu bilan birgalikda, xalqaro tijorat arbitrajiga oid xalqaro konvensiyalar, milliy va xorijiy tajriba, sud amaliyoti, nazariy bilimlar, tadqiqotlar, konseptual yondashuvlar, muammolar va ularni o‘rganishda qo‘llanayotgan ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: maxfiylik, xalqaro tijorat arbitraji, nazarda tutilgan majburiyat, arbitraj qoidolari va qo‘llanishi, UNCITRAL Xalqaro tijorat arbitrajining namunaviy qonuni.

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОМ КОММЕРЧЕСКОМ АРБИТРАЖЕ

Имамова Дилфуза Исмаиловна,

кандидат юридических наук, доцент,
профессор кафедры «Гражданское право и
международные частноправовые дисциплины»
Университета мировой экономики и дипломатии

Разакова Фарангиз Карим кизи,
магистрант факультета «Международное право»
Университета мировой экономики и дипломатии

Аннотация. В данной статье авторы описывают понятие принципа конфиденциальности в международном коммерческом арбитраже, его историю, юридическую характеристику, сравнительно-правовой анализ, а также вопросы, связанные с практическими аспектами применения дел по данному направлению. Кроме того, анализируется сфера деятельности лиц и действия документов, связанных с принципами конфиденциальности и неприкосновенности, выявляются проблемы сохранения конфиденциальности в практике международного коммерческого арбитража. Особое внимание уделяется взаимосвязи принципа неприкосновенности частной жизни и интересов государства. Также даётся ряд предложений, направленных на устранение имеющихся недостатков в законодательстве по данным делам. Цель исследования – участники арбитражного разбирательства, включая изучение сферы конфиденциальности, которая является обязательной для сторон и их представителей, арбитражного суда, арбитражных учреждений и третьих лиц, таких как свидетели и эксперты. В международном коммерческом арбитраже существует презумпция конфиденциальности. Однако прецедентное право противоречиво в отношении цели арбитража и его взаимодействия с конфиденциальностью. Это исследование посвящено концепции и функции конфиденциальности в отношении международного коммерческого арбитража. Предметом исследования является юридическое значение применения принципа конфиденциальности в международном коммерческом арбитраже в арбитражном процессе, а также международные конвенции о международном коммерческом арбитраже, отечественный и зарубежный опыт, судебная практика, теоретические знания, исследования, концептуальные подходы, проблемы с учётом научно-теоретических взглядов, существующих по данным вопросам.

Ключевые слова: конфиденциальность, международный коммерческий арбитраж, подразумеваемая обязанность, прямо выраженная обязанность, арбитражный регламент и применение, Типовой закон ЮНСИТРАЛ о Международном коммерческом арбитраже.

LEGAL ISSUES OF THE APPLICATION OF PRINCIPLE OF CONFIDENTIALITY IN INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION

Imamova Dilfuza Ismailovna,
University of World Economy and Diplomacy,
Professor of the Department of Civil Law and
Private International Law Disciplines,
Candidate of Law (PhD)

Razakova Farangiz Karim kizi,
University of World Economy and Diplomacy,
Master's Student of the Faculty of International Law

Abstract. In this article, the authors describes the concept of the principle of confidentiality in international commercial arbitration, its history, its legal description, comparative legal analysis, and issues related to the practical aspects of the application of these cases. In addition, it analyzes the scope of documents and persons related to the principles of confidentiality and inviolability and identifies the problems of maintaining confidentiality in the practice of international commercial arbitration. It pays special attention to the interrelationship between the principle of privacy and the interests of the state. Also, it gives a number of proposals aimed at eliminating existing shortcomings in the legislation

on these cases. The purpose of the research work is to identify the participants in the arbitration proceedings, including exploring the scope of confidentiality that is binding on the parties and their representatives, the arbitral tribunal, arbitral institutions, and third parties such as witnesses and experts. The presumption of confidentiality exists in international commercial arbitration. However, case law is inconsistent regarding the purpose of arbitration and its interaction with confidentiality. This study focuses on the concept and function of confidentiality in relation to international commercial arbitration. The subject of the research work is the legal significance of the application of the principle of confidentiality in international commercial arbitration in the arbitration process, as well as international conventions on international commercial arbitration, national and foreign experience, judicial practice, theoretical knowledge, research, conceptual approaches, problems, and the scientific and theoretical views used in their study.

Keywords: confidentiality, international commercial arbitration, implied duty, arbitral rules and application, UNCITRAL Model Law of International Commercial Arbitration.

Kirish

O'tgan yillar davomida maxfiylik majburiyati xalqaro tijorat arbitrajida mavjud, degan taxminlar paydo bo'ldi, biroq bu taxmin so'nggi paytlarda munozarali masala bo'lib qolmoqda. Dunyo bo'ylab ko'plab yurisdiksiyalarda raislik qiluvchi sudyalari, tijorat amaliyotchilari va taniqli olimlar tomonidan ushbu konsepsiya bo'yicha qarashlar qat'iy bo'lingan [1, 518–519-b.]. Bir tomondan, tarafdorlar maxfiylik shaxsiy mexanizm sifatida barcha arbitraj kelishuvlarida nazarda tutilgan atama ekanligini ta'kidlaydilar. Tadbirkorlar butun dunyo bo'ylab arbitrajni xalqaro tijorat masalalarini hal qilish uchun tanlov forumiga aylantirdilar. Ushbu maxfiylik prinsipi arbitraj muhokamasini boshqa mahalliy sud tizimlaridan ajratib turadi. Bir tomondan, ingliz sudlari nazarda tutilgan majburiyat prezumpsiyasini qabul qiladi. Fuqarolik huquqi mamlakatlari, jumladan, Fransiya, Shveysariya va Germaniya inglizlarning nazariga ko'ra, maxfiylik barcha arbitrajda nazarda tutilgan atama ekanligi haqidagi fikriga amal qilganlar [2, 379–380-b.]. Boshqa tomondan, qarama-qarshi nuqtayi nazarga ko'ra, maxfiylik majburiyati amaldagi arbitraj qoidalari yoki tomonlarning arbitraj kelishuvida aniq ko'rsatilishi kerak. Ya'ni Avstraliya va Amerika Qo'shma Shtatlari sudlari ingliz sudlarining nuqtayi

nazaridan ochiqchasiga voz kechib, bu yo'nalishda bahslashmoqda.

Material va metodlar

Tadqiqotda uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi, xalqaro tijorat arbitrajida maxfiylik masalalari qanday; ikkinchi, ushbu sohada O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunini qo'llash amaliyoti qanday; uchinchi, qonunchilikdagi bo'shliqlarni xalqaro tajriba asosida to'ldirishga zarurat bormi? Mazkur savollarga javob sifatida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqildi va O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Maqolada xalqaro tijorat arbitrajida maxfiylik tamoyilini qo'llashning konseptual, nazariy va amaliy tushunchalari o'rganilgan. Mavzuni yoritishda ilmiy bilishning kuzatish, tarixiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, statistik hamda boshqa usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Maqolada turli mamlakatlarda tomonlarga taqdim etiladigan maxfiylikni himoya qilish bo'yicha yurisdiksiyaviy yondashuvlar o'rganildi va quyidagi natijaga erishildi: maxfiylik prinsipini qo'llashda bir xillik yo'q. Ushbu himoya, agar u qo'llansa, odatda, milliy qonunchilik, arbitraj institutlari va sud amaliyotidan olinadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, eng

muhim xalqaro hujjatlar ham tomonlarni himoya qila olmaydi (UNCITRAL va Nyu York konvensiyasi). Bundan tashqari, ushbu himoya qo'llanganda, u tomonlar uchun to'liq himoya vositasi sifatida kelmaydi, chunki bundan istisnolar mavjud. Maxfiylik bilan bog'liq afzalliklarga qaramay, xalqaro tijorat arbitrajida oshkoralikni oshirish zarurligi ta'kidlanadi, chunki maxfiylik qonunning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va oshkor etmaslik amaliyoti tufayli aniqlik darajasini pasaytiradi.

Arbitrajning barcha ishtirokchilari (ular arbitrlar, muassasalar yoki sudda ishtirok etuvchi tomonlar bo'lishi mumkin) o'rtasida nizolarni sud orqali hal qilishning an'anaviy usullaridan biri arbitrajni tanlash sabablari to'g'risidagi konsensusdir. Agar ushbu ishtirokchilar o'rtasida so'rov o'tkazilsa, ular, ehtimol, quyidagi afzalliklarini sanab o'tgan bo'lardi: jarayonning tezligi va moslashuvchanligi; qulay narx; arbitraj sudylarining ixtisoslashuvi tufayli (fuqarolik sudylaridan farqli o'laroq) hal qilishning ko'proq kafolati; nizolashayotgan tomonlar o'rtasidagi tijorat munosabatlarining uzluksizligi imkoniyati va hokazo. Lekin, shubhasiz, ular arbitrajning eng muhim jihatlaridan biri sifatida maxfiylikni ta'kidlaydilar [1].

Arbitraj har doim boshqa prinsiplari qatorida ushbu o'ziga xos muhim, ammo jozibali xususiyati bilan ajralib turadi. Ma'lumki, butun dunyo sud tizimlarining aksariyatida oddiy yurisdiksiya sudlarida ish yuritish ma'lumotlari va natijalari juda kam istisnolardan tashqari jamoat mulki hisoblanadi. Biz kabi globallashtgan va o'zaro bog'liq jamiyatda sudylar va davlat sudlari oldiga qo'yilgan sud ishlarida shaxsiy daxlsizlikni saqlab qolish deyarli mumkin emas. Boshqa tomondan, arbitraj muhokamasi deyarli har doim maxfiy bo'lib, oshkoralikni faqat investor-davlat arbitraji bo'lganda istisno qilish mumkin.

Arbitrajda maxfiylik nizoning shaxsiy xususiyatiga asoslanadi (xususiy mu-

nosabatlar deganda, xususiy nizolar tushuniladi) [1, 565-b.]. Bunga tomonlarning o'zaro kelishmovchiliklarini oshkor qilmaslik mantiqiy istagi qo'shiladi. Oddiy sudlarga murojaat qilish an'anaviy ravishda shaxsiy daxlsizlikka to'sqinlik qiladi. Arbitraj esa tomonlarga ham jamoatchilik fikri, ham raqobatchilar nuqtayi nazaridan juda nozik bo'lgan masalalarda rasmiy sud muhokamasining oshkoraligini chetlab o'tishga imkon beradi. Qolaversa, tomonlar hech qanday tashqi aralashuvlar bo'lmasa, o'zaro tushunishga osonroq erishadilar. Ikkala tomon ham kompaniya bo'lgan tijorat arbitrajlarida maxfiylik ustunlik qiladigan xususiyat bo'lsa va unda davlat ishtirok etsa, bu umuman boshqa masala. Davlat ommaviy huquq va nazoratga bo'ysunganligi sababli uning sudlari ochiq bo'lishi kerak.

Corporate disputes require examining and evaluating large volumes of evidence in terms of relevance and admissibility. The shareholders of the corporate relationship have a lot of information about each other in the course of their joint activities, and each party uses this information and data for its demands and objections in the process of hearing the case in court. Usually, the majority of corporate disputes do not end only with civil liability measures; criminal

cases are initiated as a result of such disputes, and in some cases, they end with the application of criminal liability measures to company participants and, in some cases, with the fact that crimes were committed in the economic sphere in the activities of the company. Some corporate disputes cause the company to become insolvent.

Due to the fact that most of the norms regulating corporate relations are of a dispositive nature [15], the resolution of this or that issue in the legislative documents refers to the internal local documents of the subject of corporate relations. Therefore, the founding documents of the company should be studied by the judges in order to correctly resolve the dispute, to determine the scope of the people involved in the corporate dispute, and to avoid procedural errors. As a rule, when dealing with cases involving corporate disputes, the courts require the founding documents of the legal entity from the state registration bodies of legal entities.

Regarding the payment of state duty in corporate disputes, there are a number of aspects that should be paid attention to, and in some cases, the courts do not pay enough attention to these cases. In particular, in the second paragraph of state duty rates, approved as an appendix to the Law of the Republic of Uzbekistan "On State Duty", it is stated that when applying to courts within the scope of business activities carried out by small business entities, the 50 percent state duty payment – the fixed rate indicated in sub-paragraphs "a," "g," and "e" of this paragraph – is not applicable to corporate dispute lawsuits. Because participation in a company is not considered entrepreneurial activity,

Conclusion

It is necessary to provide the concept of corporate relations by defining the norms (limits) of the concept of corporate relations in legislative documents. Thus, the problems

of the jurisdiction of corporate disputes in judicial practice will be eliminated.

All disputes arising from corporate relations and public legal relations that are causally connected with them should be resolved by economic courts. As a result of this, there is no doubt that the effective protection of the rights of the participants in the corporate relationship through the court will be granted.

The rule that all claims must be heard in a civil court in the case of several claims related to each other, some of which are related to the economic court and others to the civil court, is not applied to certain categories of cases, including corporate and bankruptcy cases. "In the event of combining several related claims, some of which fall under the jurisdiction of the economic court and others under the

jurisdiction of the civil court, all these claims shall be subject to consideration in the civil court, accept corporate bankruptcy cases". The statement in the above edition will strictly determine the framework of the institution of jurisdiction (exclusive jurisdiction).

Corporate disputes can be relatively complex and confusing. Regardless of the amount of the claim, corporate disputes are not considered in the simplified procedure. Moreover, corporate cases cannot be resolved by court order.

It should be noted that the revision of the legal basis of corporate dispute resolution is the demand of today, and the legislative documents aimed at regulating this field should be improved through a comparative analysis of the legal documents of developed countries.

REFERENCES

1. Case No. 4-1901-2301/2808 of the Termiz inter-district economic court.
2. Case No. 4-1802-2202/1692 of the Shakhrisabz inter-district economic court.
3. && 611 et seq. Civil code.
4. Case No. 2-1001-2307/16271 of Mirzo Ulugbek inter-district court on civil cases.
5. Case No. 5-1001- 2201/2260 of Tashkent Interdistrict Administrative Court.
6. Arbitration Procedure Code (APC RF). Available at: <https://base.garant.ru/12127526/>
7. Code of Civil Procedure. Available at: <http://www.gesetze-im-internet.de/zpo/BJNR005330950.html>
8. Features of agreements on jurisdiction of corporate disputes complicated by a foreign element. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-soglasheniy-o-podsudnosti-korporativnyh-sporov-oslozhnennyh-inostrannym-elementom>.
9. Convention of 30 June 2005 on Choice of Court Agreements. Available at: <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=98>
10. Saidov M.N. Corporate disputes: concept, types and peculiarities of their consideration in court. Tashkent, Complex Print Publ., 2019, p. 196.
11. Afanaseva E.V. Corporate law. Moscow. P. 43.
12. Case No. 4-1902-2102/1908 of Sherabad inter-district economic Court.
13. Case No. 4-2201-2303/3335 of the Urganch inter-district economic Court.
14. Besedin A.N., Efimenko E.N., Kozina E.A., Laptev V.A., Tyagay E.D. Corporate relations: complex problems of theoretical study and normative-legal regulation. Moscow, Norma, 2014, 144 p.
15. Mamagishvili V.Z. The predominant method of legal regulation in corporate law. Correlation of imperative and dispositive principles in corporate law: Coll. Art. Ed. I.S. Shitkina. Moscow, Statute Publ., 2017, pp. 6–29.

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./GFZV7476
UDC: 343.988(045)(575.1)

VOYAGA YETMAGAN SHAXSNI G'AYRIIJTIMOIY XATTI-HARAKATLARGA JALB QILGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Niyozova Salomat Saparovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrası
professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3970-2985
e-mail.ru: salomat.niyozova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari o'rganilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 127-moddasida nazarda tutilgan voyaga yetmagan shaxsni spirtli ichimliklar iste'mol qilish, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol qilish hamda jinoyat sodir etishga jalb qilish kabi og'irlashtiruvchi holatlar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish o'ziga xos qiziqtirish (aldash, ishonchni suiiste'mol qilish); jismoniy zo'rlik ishlatish; qo'rqitish, ya'ni ruhiy zo'rlik ishlatish (majburlash); g'araz niyatlarni uyg'otish (o'ch olish, hasad qilish, rashk qilish) kabi usullar orqali amalga oshirilishi mumkinligi olimlar fikrlari asosida tahlil etilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni ham o'rganilib, mazkur qonunga asosan, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va qarovsizligi ham mazkur jinoyatni sodir etishga omil bo'lishi ta'kidlangan. Mazkur masala yuzasidan jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, shaxs, g'ayriijtimoiy, xatti-harakatlar, jalb qilganlik, jinoyat, javobgarlik, jazo, iste'mol qilishda, fohishalik.

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ВОВЛЕЧЕНИЕ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В АНТИОБЩЕСТВЕННОЕ ПОВЕДЕНИЕ

Ниязова Саломат Сапаровна,
доктор юридических наук, профессор
кафедры «Уголовное право, криминология
и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы уголовной ответственности за вовлечение несовершеннолетнего в антиобщественное поведение. Так, согласно статье 127 УК Республики Узбекистан, вовлечение несовершеннолетнего в употребление спиртных напитков, веществ или средств, не являющихся наркотическими и их аналогами или психотропными, но влияющих на интеллектуально-волевую деятельность, является преступлением.

Анализируютсяотягчающие обстоятельства, такие как причастность. Также в статье автор упоминает о своеобразных способах привлечения несовершеннолетнего к асоциальному поведению (обману, злоупотреблению доверием); применении физической силы; запугивании, т. е. применение психологической силы (принуждения). Кроме того, проанализированы мнения учёных о возможности таких способов привлечения, как возбуждение в несовершеннолетних чувств, связанных со злыми намерениями (мести, зависти, ревности). Наряду с этим в статье анализируется Закон Республики Узбекистан «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» и указывается, что согласно этому закону отсутствие присмотра за несовершеннолетними и беспечность со стороны родителей являются факторами совершения подобных преступлений. По результатам исследования сделаны соответствующие предложения и рекомендации по совершенствованию уголовного законодательства по данному вопросу.

Ключевые слова: несовершеннолетний, личность, асоциальное поведение, вовлечение, преступление, ответственность, наказание, потребление, проституция.

ISSUES OF CRIMINAL RESPONSIBILITY FOR INVOLVING A MINOR IN ANTISOCIAL BEHAVIOR

Niyozova Salomat Saparovna

Tashkent State University of Law,
Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption, Doctor of Law

Abstract. This article examines the issues of criminal responsibility for involving a minor in antisocial behavior. In addition, in the article, under Article 127 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, a minor is allowed to drink alcohol, use narcotic drugs and their analogues, or drugs and substances that are not considered psychotropic but affect a person's intelligence, and the crime Aggravating circumstances, such as involvement, are also analyzed. Also, in the article, the author mentions the peculiar attraction of attracting a minor to antisocial behavior (cheating, abuse of trust), the use of physical force, and intimidation, i.e., the use of mental force (coercion). It was also analyzed by researching the opinions of scientists that it can be done through methods such as arousing malicious intentions (revenge, envy, and jealousy). Along with this, the article analyzes the law of the Republic of Uzbekistan "On the prevention of delinquency and delinquency among minors" and states that, according to this law, the lack of supervision and carelessness of minors is also a factor in the commission of this crime. In addition, appropriate proposals and recommendations were made for improving the criminal legislation in relation to this issue.

Keywords: juvenile, personality, antisocial behavior, involvement, crime, responsibility, punishment, consumption, prostitution.

Kirish

Bizga ma'lumki, voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish bilan bog'liq jinoyatlar ijtimoiy qadriyat va an'analar, jamiyatning huquqiy asoslariga zarar yetkazib, o'sib kelayotgan avlod salohiyatini buzg'unchilikka yo'naltiradi, voyaga yetmaganlarni "kriminal madaniyat" turmush tarziga o'rgatadi, shuningdek, jamiyatda

qonunga hurmat va itoatkorlik ruhi mustahkamlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa voyaga yetmagan shaxslarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, jinoyat sodir etishga jalb etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi qonunchilikni takomillashtirish dolzarbligidan dalolat beradi.

Jahonda voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish bilan

bog'liq nazariy va amaliy muammolarga bag'ishlangan keng qamrovli va kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etgan shaxslarni muayyan huquqlardan mahrum qilish bilan bog'liq jinoiy jazo tizimini takomillashtirish; mazkur turdagi jinoyatlar sodir etilishida joy, kasb va ijtimoiy mavqening roli; ularning oldini olishda o'qish, ish va yashash joyi jamoasining o'rni va ahamiyatini oshirish; mazkur jinoyatlarning qurboni bo'lishga shart-sharoit yaratuvchi psixologik va ijtimoiy omillarni bartaraf etish; nodavlat va notijorat tashkilotlarini jinoiy xatti-harakatlarga jalb etishning oldini olishda moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish; bunday harakatlarga jalb qilinganlarning ijtimoiy va tibbiy-psixologik rehabilitatsiya, resotsializatsiya, readaptatsiyasini ta'minlash tizimini takomillashtirish; javobgarlik va jazo choralarini qo'llashda differentsiatsiya va individuallik kabi xalqaro standartlar va huquq normalarini qonun hujjatlarida e'tirof etish darajasini kuchaytirish bilan bog'liq muammolarning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish hamda ilmiy asoslangan yechimlarini topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar umumiy jinoyatlarga nisbatan 25 foizga yetgan. Mutasaddilar "Kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul", degan naqlga amal qilgan holda, jinoyat bilan kurashishda dastlab yoshlarni jinoyat qilishga undaydigan sabablar, holatlarini aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini ko'rmoqda.

Farg'ona shahrida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda Prezidentimiz: "Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug'lashni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O'zbekiston huquqiy davlat

ekanligini muhrlab qo'ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilish", deb alohida ta'kidladi.

Mazkur yig'ilishda jinoyat sodir etayotgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgani qayd etildi.

Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning 32 foizi o'g'rilik va firibgarlik hisoblanadi. Ushbu toifadagi jinoyatlarning eng ko'pi Toshkent shahri va Farg'ona viloyatida sodir etilgan. Yoshlar jinoyatining har yettinchisi guruh tarkibida sodir qilingan, 1 ming 100 nafar yoshlar takroran jinoyatga qo'l urgan. "E'tibor bering, yoshlar jinoyatchiligining katta qismi nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinmoqda. Eng achinarlisi, voyaga yetmaganlar ichida o'ta og'ir jinoyat sodir etganlari ham bor", dedi Prezident.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining barcha yo'nalishlarida voyaga yetmaganlarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, oilaga, yoshlarga, axloqqa qarshi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli dasturiy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mazkur masalaning huquqiy mexanizmi ham shakllangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 127-moddasida voyaga yetmagan shaxsni spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa (1-qism), voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish (2-qism), voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar: a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy

ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan; b) ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan; d) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi jinoyat deb tushuniladi.

Material va metodlar

Ushbu mavzuni yoritishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti usullari qo'llanildi. Shuningdek, ijtimoiy so'rov metodi va so'rov natijalaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Shu o'rinda mazkur jinoyatni tahlil qilishda uchraydigan ba'zi tushunchalarga izoh berib o'tsak. G'ayriijtimoiy xatti-harakatlar deganda, O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuniga binoan, voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanishida ifodalangan xatti-harakatlari, shuningdek, o'zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlar tushuniladi.

G'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish va'da berish, aldash, jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish va boshqa harakatlar orqali amalga oshirilishi mumkin [1, 208-b.].

"Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb etish deganda, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jismoniy zo'rlik qo'llash yoki unga ruhiy tazyiq o'tkazish, qo'rqitish, pul berib og'dirish, avrash, aldash, o'ch olish, hasad, rashk tuyg'ulari va boshqa past niyatlarini qo'zg'atish, jinoyat sodir etishni taklif qilish, o'g'irlangan narsalarni sotib olish yoki sotib berishni va'da qilish, jinoyatni sodir etish joyi va usullari yoki jinoyat izlarini yashirish

haqida maslahatlar berish yo'li bilan uning bir yoki bir nechta jinoyatlar sodir etilishida ishtirok etish niyatini rag'batlantirishga qaratilgan harakatlar va jinoyatni sodir etishga og'dirish maqsadida voyaga yetmagan shaxslar bilan spirtli ichimliklar ichilishini tushunish zarur" [2, 122-123-b.].

Voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish ularning ishtirokiga ko'ra ikki shaklda bo'ladi:

1) voyaga yetmagan shaxsni jalb qilish, qiziqtirish natijasida u jinoyatni bevosita o'zi sodir etadi;

2) voyaga yetmagan shaxsni jalb qilish, qiziqtirish natijasida voyaga yetmagan shaxs jinoyatni voyaga yetgan shaxs bilan birgalikda sodir etadi.

B.J. Ahrorov voyaga yetmagan shaxslarni g'ayriqonuniy harakatlarga jalb qilishni uch turga bo'lib o'rganishni taklif qiladi [3, 22-b.]:

1) voyaga yetmaganlarni jinoiy faoliyatga jalb qilish;

2) voyaga yetmaganlarni g'ayriqonuniy harakatlarga jalb qilish;

3) voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish.

Fikrimizcha, B.Ahrorovning voyaga yetmagan shaxslarni g'ayriqonuniy harakatlarga jalb qilishni uch turga bo'lib o'rganish taklifi birmuncha maqbulroq, chunki har qanday jinoiy xatti-harakat (ekstremizm, terrorizm va diniy fundamentalizm yoxud oddiy jinoyatchilik) – bu, umuman olganda, g'ayriijtimoiy xatti-harakatdir, zero, uning oqibati jamiyatga qarshi qaratilgan bo'ladi. Lekin ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra, har qanday g'ayriijtimoiy xatti-harakat jinoyat sifatida baholanmaydi.

Shu bilan birga, ushbu jalb qilish turlarini ierarxik tarzda berish tarafdorimiz. Ya'ni odatda voyaga yetmaganlar avval g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, keyinchalik g'ayriqonuniy harakatlar, so'ngra esa jinoiy faoliyatga jalb etiladi. Albatta, bu o'rinda so'z aynan ashaddiy jinoyatchi bo'lib o'sishi ko'zda tutilgan uyushgan guruhning kelgusi "jangchi"si

bo'ladigan voyaga yetmaganlar haqida bor-moqda. Bitta muayyan jinoyatni sodir etish uchun "yollanadigan" o'smirlar ham uchrab turadi.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish xususiyatlaridan yana biri – bu sodir etilgan huquqbuzarlik tufayli yetkazilgan jismoniy, moddiy zarar bilan bir qatorda voyaga yetmagan ma'naviy ziyon ham yetkazilishidir.

Shu ma'noda, nazarimizda, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etilgan voyaga yetmagan shaxslarni ikki guruhga ajratish mumkin:

a) g'ayriijtimoiy (jinoyat bo'lmagan) guruhga kiruvchi voyaga yetmagan;

b) ijtimoiy xavfli (jinoyat) guruhga kiruvchi shaxslar.

Yuqoridagilarga asoslanib, aytish mumkinki, o'rganilayotgan JKning 127-moddasi 1-qismidagi xatti-harakatlarga voyaga yetmaganni jalb qilganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxsning ushbu harakatlarni bir yil ichida takror sodir etishi jinoyat hisoblansa, ushbu moddaning 2-, 3-qismlaridagi xatti-harakatlar g'ayriijtimoiy bo'lishi bilan birga, ijtimoiy xavfli hisoblana-di, ya'ni jinoyat deb tan olinadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb qilish usulini to'g'ri tushunish faqatgina uning obyektiv tomonini to'g'ri aniqlashga emas, balki sodir etilgan jinoyatning to'g'ri va aniq kvalifikatsiyasiga ham xizmat qiladi. Buning uchun sud voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb qilish uchun jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishning qanday usullaridan foydalanilganini aniqlashi lozim. Chunki voyaga yetgan shaxs voyaga yetmaganni tahqirlaydigan harakatlar (urish, qiynash, badanga turli darajada shikast yetkazish va h. k.) va ruhiy ta'sir o'tkazish (qo'rqitish, ishontirish, aldash, turli va'dalar berish, nafrat, hasad tuyg'ularini uyg'otish va boshqalar) bilan jinoyat sodir etishga ko'ndirishi mumkin [4, 24–25-b.].

Ko'pincha voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etishga qiziqtirish, majburlash va moddiy qaram qilish yo'li bilan jalb etiladi.

Demak, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- qiziqtirish (aldash, ishonchni suiiste'mol qilish);

- jismoniy zo'rlik ishlatish;

- qo'rqitish, ya'ni ruhiy zo'rlik ishlatish (majburlash);

- g'araz niyatlarni uyg'otish (o'ch olish, hasad qilish, rashk qilish).

Mazkur usullarni aniqlash, voyaga yetmagan shaxsning jinoyatdagi ishtiroki va qilmishning motivi xususida aniqroq fikr bildirish adolatli jazo tayinlashda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Ple-numining "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori 7-bandida "voyaga yetmaganlarning katta yoshdagilar ishtirokida sodir etgan jinoyatlari haqidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda, katta yoshdagi shaxs va o'smir o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatini sinchiklab aniqlash lozim, chunki ushbu ma'lumotlar katta kishining voyaga yetmaganni jinoyat yoki g'ayriijtimoiy harakat sodir etishga jalb qilishdagi rolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligi" haqida tushuntirish berilgan.

Ta'kidlash joizki, mazkur qoida har jihatdan xalqaro standartlar talablariga mos. Jumladan, BMT Pekin qoidalarida [5] ko'rsatilishicha, tegishli organlar voyaga yetmagan shaxsning jinoiy xulq-atvori sabablarini o'rganishda, ularni katta yoshdagilarning no-jo'ya ta'siri va ularga yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, samarali ta'sir choralari ko'rish lozim. Maqsad – shaxsning keyingi kriminallashtiruvining oldini olish va bolani ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga ko'maklashishdan iborat [6, 51-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb qilish qay tariqa amalga oshirilganligi, ushbu xatti-harakatlar natijasida voyaga yetmagan shaxsning jabr ko'rgan

yoxud ko'rmaganligi, unga nisbatan o'tkazilgan ta'sir ko'rsatishning intensivligi va jiddiyligi – qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'smirni aldash, o'g'rilik qilishga undash yoki uni majburlab, qo'rqitib yoxud giyohvandga aylantirib, o'zining jinoiy maqsadlari yo'lida foydalanishning ijtimoiy xavflilik darajasining turlicha ekanligi, shubhasizdir.

G'ayriijtimoiy xatti-harakat, shu jumladan, jinoyatni sodir etishga qiziqtirishning eng keng tarqalgan usuli aldashdir.

Aldash – bir shaxsning ikkinchi bir kishi ongi va irodasiga aqliy va axboriy ta'sir o'tkazishdir. Aldash hamma vaqt jabrlanuvchi tomonidan shu aldovga ruhiy javob qaytarishiga mo'ljallangan. Xususan, aybdor aldayotgan voyaga yetmagan shaxsni yangilashirishga emas, balki ma'lum axloqiy yo'nalishga solish uchun harakat qiladi.

Aldov nafaqat intellektual ta'sir orqali, balki aybdorning o'zi yoki uchinchi shaxsning mulkiy foyda olish va uning boshqa turli hiylanayrangelarni ishlatishi bilan tavsiflanadi [7, 11-b.]. Aldash deganda, birinchi navbatda, yolg'on faktlar (haqiqatda mavjud bo'lmagan faktlarning borligi yoki amalda bor faktlarning yo'qligi) to'g'risidagi xabarlar, ma'lumotlar tushuniladi.

Aldash, birinchi navbatda, qasddan haqiqatni buzib ko'rsatish bo'lib, ma'lum faktlar, sharoitlar, voqealarni buzib ko'rsatish, haqiqatni yashirish yoki yolg'on ma'lumotlarni xabar qilishga aytiladi. Agar haqiqatan ham, aldash harakatlari isbotlanmasa yoki shaxs xabar qilgan ma'lumotlar yolg'on emas deb topilsa, aldash bo'lmaydi [8, 22-b.].

Aldov – bu aldanayotgan kishining xulqi, xatti-harakatidir, yangilashish aldangan shaxsning ruhiy holatidir [9, 26-b.].

Jismoniy zo'rlik ishlatish voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilishda ko'p uchraydi. Jinoyat sodir etishda yosh bolaga, voyaga yetmaganga tazyiq o'tkazish uchun jismoniy zo'rlik ishlatishning ijtimoiy xavfliligi yuqo-

riligi ikki omil bilan belgilanadi. Birinchidan, katta yoshdagi shaxslarning diydasi qotib ketgan bo'lib, ular sodir etilayotgan qilmishning mohiyati va ijtimoiy xavfliligini anglasa ham, bunga e'tiborsiz bo'lishi hamda o'ta og'ir zarar yetkazilishi mumkin. Ikkinchidan, voyaga yetmagan tomonidan g'ayriijtimoiy, jinoiy qilmishlarning hattoki ongsiz ravishda bo'lsa-da sodir etilishi uning ongiga salbiy ta'sir qilib, ijtimoiy jihatdan normal rivojlantirish jarayonini buzishi mumkin.

Q.P. Payzullayev zo'rlik ishlatish orqali sodir etiladigan jinoyatlar deganda, zo'rlik maqsadga erishish vositasigina emas, balki jinoyat motivi ham, elementi ham bo'ladigan jinoiy qilmishlarni tushunadi [10, 14-b.]. Shu jihatdan olganda, ushbu tadqiqotchining fikrlari to'g'ri, zero, bosqinchilik, talonchilik, shaxsni garov sifatida tutqunlikda saqlash, terrorizm va boshqalar, garchi ularda zo'rlik vosita sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar qatoriga kirmaydi. Chunki ularda zo'rlikdan ma'lum bir siyosiy yoki g'arazli maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi. Jismoniy zo'rlik – boshqa shaxsga nisbatan majburiy xarakterga ega, ya'ni uning irodasiga qarshi, irodasini so'ndirish yoki uni bo'ysundirish yoxud shaxsning harakat erkinligini cheklash maqsadida sodir etiladigan jismoniy choralarning qo'llanishida ifodalanadi [11, 437-b.].

Zo'rlik inson tanasiga ta'sir ko'rsatishning boshqa turlaridan nafaqat o'zining tashqi shakllari (ular ba'zan bir xil bo'lishi mumkin), balki organizm va normal ruhiy faoliyatning buzilishi, ya'ni ushbu holatda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi bilan ham ajralib turadi. Biroq zo'rlikning ijtimoiy xavfliligi nafaqat uning tashqi tomonlarida namoyon bo'ladi, balki u ichki ijtimoiy mohiyatga ham ega bo'ladi, ya'ni zo'ravonning ijtimoiy munosabatlarga salbiy baho berishida ham ko'rinadi [12, 82–86-b.].

Qo'rqitish voyaga yetmagan shaxslarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish-

ning keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi, shuningdek, ruhiy zo'rlikning bir shakli sifatida jinoyat sodir etishda ko'p qo'llanadi [10, 63-b.].

Olimlar tomonidan unga turlicha ta'rif berilgan. Uni tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud. Nazariy va amaliy nuqtayi nazardan qo'rqitish belgilari qator jinoyat qonuni normalarida mavjud, ammo qo'rqitishning zaruriy huquqiy belgilari, shuningdek, qo'rqitish va ruhiy zo'rlikning o'zaro munosabati haqidagi masala bo'yicha fikrlar turlichadir [13, 3–15-b.].

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb qilishda qo'rqitish mazmunan boshqa, masalan, tovlamachilik, nomusga tegish va h.k. jinoyatlardagi qo'rqitishga o'xshaydi [14, 528-b.]. Buning sababi shundaki, shaxs, shu jumladan, voyaga yetmagan shaxsning muhofaza qilinadigan huquq va manfaatlari, hayoti, jismoniy daxlsizligi yoxud ma'lum darajada berkitishi, asrash lozim bo'lgan maxfiy sirlari mavjud bo'lib, aynan shularga zarar yetkazish tahdidi ko'proq uchraydi.

Qo'rqitish, ya'ni voyaga yetmagan shaxs ruhiyatiga zo'rlik bilan ta'sir qilish ruhiy majburlash usullaridan biri sanaladi. Bunday ta'sirning ikkita asosiy usuli farqlanadi: a) jinoyat huquqi bilan muhofaza qilinadigan obyektlarga zarar yetkazish bilan qo'rqitishdan iborat ta'sir; b) ruhiyatning ongsiz tomoniga bevosita ta'sir (bunga gipnoz, miyaning elektron qo'zg'alishi va boshqalarni kiritish mumkin) [15, 288-b.].

Bular zarar yetkazishning real ehtimoli va ruhiy zo'rlik kabi qo'rqitishning asosiy belgilarini farqlash imkonini beradi.

Jinoyat huquqi nazariyasida qo'rqitishning axborot bilan ta'minlanganlik, mavjudlik, voqelik, aniqlik [16, 31-b.] kabi bir necha turi farqlanadi. Bizning fikrimizcha, ular qo'rqitishning farqlovchi xususiyatlari hisoblanmaydi.

Jinoiy qo'rqitishni tasniflashga bo'lgan mavjud yondashuvlarni o'rganib, quyidagi xulosaga kelindi: a) qurolni namoyish qilish

orqali qo'rqitish; b) og'zaki qo'rqitish; d) shoralar bilan qo'rqitish; e) harakatlar bilan qo'rqitish; f) jinoyat sodir etish bilan qo'rqitish shakllari keng tarqalgan.

Bu borada sud amaliyotidan misol keltiradigan bo'lsak, Jinoyat ishlari bo'yicha Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar sudi tomonidan fuqaro T. JKning 127-moddasi 3-qismi, 169-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan. Biroq jinoyat ishlari bo'yicha Qashqadaryo viloyat sudi apellyatsiya sudlov hay'ati ajrimi asosida birinchi instansiya sudi hukmining JKning 127-moddasi 3-qismi bilan aybli deb topish qismi bekor qilingan. Boisi sudlangan T. o'zining barcha ko'rsatmalarida jinoiy sherigi G.ning taklifiga ko'ra voyaga yetmagan Z. bilan o'g'irlik qilganligi, Z.ni ilgari tanimaganligi, uni jinoyat qilishga jalb etmaganligini ko'rsatgan. Voyaga yetmagan Z. esa G. uni chaqirib, maktabning amaliyot o'tash xonasidan kompyuter o'g'irlashni taklif qilgandan so'ng uchalasi birgalikda jinoyat sodir etgan. Bu misol voyaga yetmagan shaxslar ko'pincha o'zganing qo'rqitishi natijasida jinoyat ishtirokchisiga aylanganligini ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, voyaga yetmagan shaxsning jinoyatga qay tarzda jalb qilinishi, unga bu jarayonda ruhiy yoki jismoniy zarar yetkazilishi qonun chiqaruvchi tomonidan inobatga olinmagan. Fikrimizcha, bu noto'g'ri, zero, jalb qilish mobaynida voyaga yetmagan shaxs jiddiy ravishda jismoniy yoxud ruhiy zarbalarga duch kelishi mumkin. Bu esa voyaga yetmagan shaxsni aldab, avrab yoki boshqacha tarzda ko'ndirish usulidan keskin farq qiladi. Xorijiy davlatlar, xususan, MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligi tahlil qilinganda, quyidagi e'tiborga molik jihatlari aniqlandi.

Deyarli barcha davlatlar qonunchiligi da voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar yoki jinoyatga jalb qilish xususida tegishli normalar mavjud bo'lib, tahlil qilingan qonunlarning deyarli barchasida, xususan, Ozarbayjon Respublikasi JKning

170-moddasi [17], Armaniston Respublikasi JKning 166-moddasi [18], Qozog'iston Respublikasi JKning 133-moddasi [19], Qirg'iziston Respublikasi JKning 181-moddasi [20], Moldova Respublikasi JKning 208-moddasi [21], Belarus Respublikasi JKning 172-moddasi 2-qismi [22], Rossiya Federatsiyasi JKning 151-moddasida [23] voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib jalb qilganlik uchun maxsus alohida og'irlashtiruvchi normalar ko'zda tutilgan. Nazarimizda, O'zbekiston Respublikasi JKda ushbu masalaga e'tibor berilmagan. Ularga nisbatan har qanday tazyiq, g'ayriqonuniy ta'sir javobgarlikni keltirib chiqarishi zarur hamda bu javobgarlik aniq va ta'sirchan bo'lmog'i lozim.

Moddiy qaramlik shaxsni jinoyat sodir etishga majbur qilgan shaxsga moddiy jihatdan to'la yoki qisman qaramligida (qaramog'ida ekanligi, undan qarzdorligi) ifodalangani.

Boshqa tomondan qaramlik tushunchasi qarindoshlik jihatdan, farzandning otaga qaramligi, ukaning akaga, voyaga yetmagan ishchining rahbariga qaramligini nazarda tutadi.

Xulosalar

Voyaga yetmaganni giyohvandlikka muhtalo qilish orqali ham qaram qilib qo'yish mumkin. Bizningcha, voyaga yetmagan shaxsni spirtli ichimliklar iste'mol qilish, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish bilan bog'liq qilmishni JKning 274-moddasi 2-qismiga alohida "g" band qilib kiritish maqsadga muvofiq. Bunday o'zgartirish mazkur turdagi qilmishlarni differentsiatsiya qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, bizningcha, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish usullarini alohida norma sifatida JKga kiritish lozim. Jumladan, Jinoyat

kodeksini 127²-modda (Voyaga yetmagan shaxsni zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib jinoyatga jalb qilish) bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

"127²-modda. Voyaga yetmagan shaxsni zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib jinoyatga jalb qilish

Voyaga yetmagan shaxsni zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish –

uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib jinoyatga jalb qilish –

uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib jinoyatga jalb etish harakatlari:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

d) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi – besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

Chunki, birinchidan, zo'rlik ishlatish jalb qilishning boshqa usullariga qaraganda ijtimoiy xavfliligi ancha yuqori bo'lib, buning natijasida shaxsga nisbatan ma'lum bir ma'noda jismoniy yoki ruhiy shikast yetishi mumkin. Bundan tashqari, zo'rlik ishlatish bilan jalb etish natijasida voyaga

yetmagan shaxs jismoniy va ruhiy azoblanishi hamda erkinligidan mahrum bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, jalb etishning qanday usulda amalga oshirilganligini belgilash sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasini aniqlashga yordam beradi.

Fikrimizcha, yuqoridagi qo'shimchalar mavjud bo'shliqni to'ldirib, amalda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga voyaga yetmagan shaxslar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jinoyat sodir etishdagi o'rni va maqomini to'g'ri aniqlash-tirish, shuningdek, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, aybdorlarga odil jazo tayinlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, bugungi kunda voyaga yetmagan shaxsni fohishalikka jalb qilish holatlari ham ko'paymoqda. Shulardan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining 131-moddasi 4-qismida voyaga yetmagan shaxsni fohishalikka jalb qilish uchun javobgarlik belgilangan, lekin mazmunan fohishalik ham g'ayriijtimoiy xatti-harakat hisoblanadi.

Shuningdek, u aynan voyaga yetmagan shaxslarni jalb etishga qaratilganligi sababli ham ushbu qilmish uchun javobgarlik belgilanganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 127³-modda (voyaga yetmagan shaxsni fohishalikka jalb qilish) bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

"127³-modda. Voyaga yetmagan shaxsni fohishalikka jalb qilish

Voyaga yetmagan shaxsni aldash, majburlash, zo'rlik ishlatish, moddiy manfaat ko'rishni va'da qilish yoxud boshqacha yo'l bilan fohishalikka jalb etish –

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

takroran yoxud JKning 131-, 135-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir qilgan shaxs tomonidan;

uyushgan guruh tomonidan sodir qilinishi besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

REFERENCES

1. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 3. 2nd ed., suppl. and revised. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 208.
2. Rustamboyev M.H. Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code]. Special part. Tashkent, Adolat Publ., 2016, pp. 122–123.
3. Ahrorov B. Voyaga yetmaganlarni jinoiy faoliyatga jalb qilishning oldini olish va jinoiy-huquqiy kurash choralari [Prevention of involvement of minors in criminal activity and measures of criminal-legal struggle]. *Qonun himoyasida – Under the Protection of the Law*, 2001, no. 1, p. 22.
4. Ahrorov B., Abdullayeva Ya. Voyaga yetmaganlarni jinoiy faoliyatga jalb qilishning oldini olish va jinoiy-huquqiy kurash choralari [Prevention of involvement of minors in criminal activity and measures of criminal-legal struggle]. *Qonun himoyasida – Under the Protection of the Law*, 2001, no. 3, pp. 24–25.
5. The UN Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (the Beijing Rules), adopted by the UN General Assembly on 10 December 1985. Adopted by the General Assembly of OON 1985, December 10.
6. Vedernikova O. Yuvenal'naya yustitsiya: opyt i perspektivy [Juvenile justice: experience and prospects]. *Russian Justice*, 2000, no. 7, p. 51.
7. Altiyev R.S. Firibgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini [Criminal-legal and

criminological aspects of fraud]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2020, p. 11.

8. Zokirova O.G'. Firibgarlik uchun jinoiy javobgarlik [Criminal liability for fraud]. Tashkent, TSIL Publ., 2007, p. 22.

9. Abdurasulova K.R. Otvetstvennost' za moshennichestvo v Respublike Uzbekistan [(Responsibility for fraud in the Republic of Uzbekistan). Abstract of PhD thesis. Tashkent, 1994, p. 26.

10. Payzullayev Q.P. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar [Crimes committed using violence]. Tashkent, TSIL Publ., 2008, p. 14.

11. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. I. The doctrine of crime. 2nd ed., suppl. and revised. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 437.

12. Niyozova S.S.. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimologik profilaktikasini tadqiq qilish bo'yicha ilmiy yondashuvlar [Scientific approaches to the research of victimological prevention of crimes against the person]. *Review of Law Sciences*, no. 4, pp. 82–86.

13. Niyozova S.S. Strong Emotional Arousal (Effect) As A Criminal Law Norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96–102. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume 03 Issue p. 03-15. ISSN – 2693-0803.

14. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 2020, December, vol. 12, suppl. iss. 3, p. 528.

15. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. General part. Tashkent, Adolat Publ., 2016, p. 288.

16. Mazukov S.KH. Ugolovno-pravovaya zashchita lichnosti ot ugrozy ubiystvom [Criminal legal protection of the individual from death threats]. Abstract of PhD thesis. Rostov-Don, 1997, p. 31.

17. New Criminal Code of the Republic of Azerbaijan. Baku, Digesta Publ., 2020.

18. Criminal Code of the Republic of Armenia. Yerevan. Official ed. 2019.

19. Ugolovnyy kodeks Respubliki Kazakhstan – obshchaya kharakteristika (v sravnenii s UK Kazakhskoy SSR) [Criminal Code of the Republic of Kazakhstan - general characteristics (in comparison with the Criminal Code of the Kazakh SSR)]. Almaty, Baspa Publ., 2019.

20. Criminal Code of the Republic of Kyrgyzstan. Official ed. Bishkek, 2019.

21. Criminal Code of the Republic of Moldova. St. Petersburg, Legal Center Press, 2019.

22. Criminal Code of the Republic of Belarus. 1999, June 1. Approved by the Soviet Republic on 1999, June 24. Minsk, Amalfeya Publ., 2018.

23. Criminal Code of the Russian Federation. Official ed. Moscow, 2019.

24. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, pp. 39–62.

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./SXCW7391
UDC: 343.192:343.901:343.851(045)(575.1)

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING BUYUK BRITANIYA MODELIGA XOS XUSUSIYATLAR

Tairova Gulmira Murodjonovna,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi katta o'qituvchisi,
adliya kichik maslahatchisi
ORCID: 0009-0006-9741-5190
e-mail: gulmiramurodiy@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada muallif Buyuk Britaniyadagi jinoyatchilikka qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari ochib berishni maqsad qilgan. Xususan, jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining alohida elementlari hisoblangan jinoiy siyosatda tayaniladigan doktrinal-kriminologik yondashuvlar, jinoyatchilikka qarshi qonunchilik hamda huquqni muhofaza qilish amaliyotining e'tiborga molik alohida xususiyatlariga urg'u berilgan. Ma'lumki, Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish modeli undagi anglo-sakson huquq tizimi hamda anglo-amerika kriminologik maktablari ta'sirida shakllangan. Jinoyatchilikka qarshi doktrinal-kriminologik yondashuvlar asosini ma'muriy-klassik va sotsiologik nazariyalar tashkil etib, jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatida vaqti-vaqti bilan jinoiy-huquqiy (qattiqlashuv) yoki ijtimoiy-liberallashuv choralari ustuvorligi (yumshoqlashuv)ga yo'nalganlik kuzatiladi. Britaniya kodifikatsiyalashgan qonunchilik tizimiga ega bo'lmagani bois u yerda jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatini shakllantirishda o'rta muddatli (3–5 yillik) strategik konsepsiyalarga asoslaniladi. Mazkur davlatda jinoyatchilik yuqori darajada o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, uning aniq statistik hisobini yuritish imkoniyati yo'qotilganligini ko'rish mumkin. Ayni vaqtda jinoyatchilikni aniqlashdagi mazkur bo'shliq Britaniya politsiyasi tomonidan latent jinoyatchilikni o'rganish amaliyoti tizimli ravishda yo'lga qo'yilganligi bilan bartaraf etilayotganligi ham ma'lum bo'ladi. Britaniyaning jinoyatchilikning oldini olish amaliyoti qator jamoat tashkilotlari ishtirokidagi situativ va viktimologik choralarni o'z ichiga olganligi bilan e'tiborli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, jinoyatchilikka qarshi kurashish, Buyuk Britaniya modeli, jazo, jinoyatlar statistikasi, politsiya.

ОСОБЕННОСТИ БРИТАНСКОЙ МОДЕЛИ БОРЬБЫ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ

Таирова Гулмира Муроджоновна,
младший советник юстиции, старший преподаватель
Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Аннотация. В статье автор стремится раскрыть специфические аспекты борьбы с преступностью в Великобритании. В частности, рассматривает отдельные элементы системы борьбы с преступностью: доктринально-криминологические подходы, на которые опирается уголовная политика; особенности законодательства о борьбе с преступностью, а также примечательные стороны правоохранительной деятельности. Известно, что британская модель борьбы с преступностью сформировалась под влиянием англосаксонской правовой системы и англо-американских криминологических школ. Основой доктринально-криминологических подходов к преступности являются административно-классические и социологические теории. В уголовной политике периодически наблюдается ориентация на

приоритет уголовно-правовых мер (их ужесточение) или социально-либеральных мер (их смягчение). Поскольку в Великобритании нет кодифицированной законодательной системы, при разработке политики по борьбе с преступностью основываются на среднесрочных (3–5 лет) стратегических концепциях. Несмотря на то, что преступность в Великобритании растёт высокими темпами, наблюдается тенденция невозможности ведения точных статистических показателей преступности. В то же время эта проблема в статистике раскрытия преступлений компенсируется систематическим внедрением британской полицией практики изучения латентной преступности. Британская практика предупреждения преступности примечательна тем, что включает в себе ситуационные и виктимологические меры с привлечением ряда общественных организаций.

Ключевые слова: преступность, борьба с преступностью, модель Великобритании, наказание, статистика преступности, полиция.

FEATURES OF THE BRITISH MODEL OF FIGHTING CRIME

Tairova Gulmira Murodjonovna,

Senior lecturer of the Law Enforcement

Academy of the Republic of Uzbekistan,

Junior counsel of Justice

Abstract. In the article, the author seeks to reveal the specific aspects of the fight against crime in the UK. In particular, it considers certain elements of the crime fighting system-doctrinal and criminological approaches on which criminal policy is based-features of legislation on combating crime, as well as notable aspects of law enforcement. It is known that the British model of fighting crime was formed under the influence of the Anglo-Saxon legal system and Anglo-American criminological schools. The basis of doctrinal and criminological approaches to crime are administrative-classical and sociological theories. In criminal policy, there is periodically a focus on the priority of criminal law measures (tightening) or on the priority of socially liberal measures (mitigation). Since there is no codified legislative system in the UK, the development of anti-crime policies is based on medium-term (3-5 years) strategic concepts. Despite the fact that crime in the UK is growing at a high rate, there is a loss of ability to maintain accurate crime statistics. At the same time, it turns out that this loophole in the detection of crimes is being overcome by the systematic introduction by the British police of the practice of studying latent crime. The British practice of crime prevention is notable for the fact that it includes situational and victimological measures involving a number of public organizations.

Keywords: crime, crime fighting, model of the UK, punishment, crime statistics, police.

Kirish

Xalqaro tajribada alohida davlatlardagi jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimlarining anglo-amerika, kontinental, Osiyo-Tinch okeani, sotsialistik, postsotsialistik, islom va aralash modellari kuzatiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning Buyuk Britaniya tizimi anglo-amerika modelining asosiy vakillaridan biri hisoblanadi. U o'zining xalqaro maydonda jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir nazariya va amaliyotni shakllantirish uchun turtki bo'lgan klassik xarakterdagi kriminologik maktablari,

jinoiy siyosati hamda huquqni qo'llash amaliyoti bilan ajralib turadi.

Material va metodlar

Shu o'rinda mazkur tadqiqot uchun qiyosiy kriminologiya sohasida tadqiqot o'tkazgan G.A. Avanesov, A.I. Alekseyev, Y.M. Antonyan, A.I. Dolgova, V.N. Kudryavsev kabi olimlarning ishlari, rus olimasi O.N. Vedernikovaning Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi nazariya va amaliyotga bag'ishlangan dissertatsiya ishi, Britaniya politsiyasining jinoyatchilikka oid statistik hisobotlari hamda Britaniyada qonunchilik

va huquqni muhofaza qilish amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar birlamchi material vazifasini o'taganligini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Tadqiqot ishi davomida tahliliy bayon etish, tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli tahlil metodlariga murojaat etildi.

Tadqiqot natijalari

Buyuk Britaniya kriminologiyasi o'zida xalqaro, hududiy va milliy xususiyatlarni jamlab, boy tarixiy rivojlanish yo'li hamda katta nazariy-amaliy tajribaga ega.

Britaniya kriminologiyasi sotsiologik va ma'muriy-kriminologik yo'nalishlar sintezi asosida shakllanib, jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan kriminologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi [1, 367-b.].

Britaniyada jinoyatchilik va jinoiy xulq-atvorning sabablariga nisbatan yagona va universal yondashuv inkor etilib, tanqidiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik, ma'muriy-kriminologik, biokriminologik yo'nalishdagi ko'plab nazariyalarni qamrab olgan plyuralistik yondashuvga asoslanadi. Mazkur nazariyalar ichida sotsiologik ta'limotlar ustuvorlik qiladi.

Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini chuqur o'rgangan olimlar O.N. Vedernikovaning ta'kidlashicha, Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi [1, 370-b.]:

- jinoyatchilikka uning holati va unga nisbatan jamoatchilikning munosabatidan kelib chiqib ta'sir ko'rsata olish imkonini beradigan moslashuvchan jinoiy siyosat olib borilishi;

- ozodlikdan mahrum qilish jazosiga alternativ bo'la oladigan keng doiradagi jinoiy-huquqiy ta'sir choralari belgilanganligi;

- jazolashning differensiallashgan tizimi (jinoyat sodir qilganning yoshi va jinoyatning og'irligidan kelib chiqib) mavjudligi;

- shaxs, uning hayoti va sog'lig'i muhofazasining ustuvorligi;

- voyaga yetmaganlarga nisbatan maxsus odil sudlov tizimi yo'lga qo'yilganligi;

- ayrim jinoyatlar uchun "ogohlantirish" berish bilan cheklanish mumkin bo'lgan insonparvar sudlov ishlari olib borilishi;

- jinoiy tiyib turish choralari umumijtimoiy va maxsus profilaktik choralari bilan uyg'unlashganligi;

- jinoyatchilikni profilaktika qilish ishlari idoralar va mahalliy aholining keng ishtirokidagi uzoq va qisqa muddatli ta'sir choralari egaligi;

- o'z samaradorligini ko'rsatayotgan jinoyatchilikning oldini olishga doir dasturlarning yetarli darajada moliyalashtirib borilishi.

BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilishga doir 10-kongressi (2000-y., Vena shahri)da Britaniyaning jinoyatchilikning situatsion oldini olishga doir siyosati, xususan, "Xavfsiz shahar" (mahalliy hokimiyat, politsiya, xususiy biznes vakillari va aholi ishtirokidagi) dasturi yuqori baholanganligini alohida e'tirof etish lozim [1, 371-b.].

Britaniyaning mamlakatda huquqiy tartibotni o'rnatishga doir siyosati "Qonun va tartibot" deb nomlanib, u jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyat va boshqa antisotsial hodisalarga ta'sir ko'rsatishga doir ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy va moliyaviy xarakterdagi kompleks choralarni o'z ichiga oladi. Xususan, ushbu siyosatning alohida bir yo'nalishi sifatida – huquqni muhofaza qilish tizimini moliyalashtirish hajmini oshirib borish, mazkur organlarning jinoyatchilikka qarshi kurashga doir (huquqiy tartibotni ta'minlash, jinoyat sodir etilishining oldini olish kabi ishlardagi) vakolatlarini kengaytirish va aholi o'rtasida hurmatini oshirish choralari belgilanganligi e'tiborlidir [1; 286-287-b.].

Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatining yana bir muhim yo'nalishlaridan biri – jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarga kompensatsion to'lovlar ajratish va ma'naviy-psixologik xizmat ko'rsatishga doir

chora-tadbirlar tizimining yo'lga qo'yilganligidir.

Britaniyada prokuratura va adliya vazirligi mavjud emas. Ichki ishlar vazirligi (The Secretary of State) jinoyatchilikning oldini olish, o'z vaqtida fosh etish, gumon qilinuvchilarni ushlab, ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish kabilarga mas'ul bo'lib, u jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir qonunchilikni ishlab chiqishda ekspert sifatida turli idoralar va lobbi guruhlari [2] (Jazolash tizimini isloh qilishga doir Garvard ligasi; Jazoni o'tab chiqqanlarni himoya qilish va ishga joylash milliy assotsiatsiyasi; Qamoqxonalar islohoti bo'yicha kompaniya; shu tashkilotlarni o'z ichiga olgan "Jinoiy jazolar muammolari bo'yicha konsorsium" kabi)ning ham ta'siri katta bo'lib qolmoqda.

Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosati hokimiyat tepasiga qaysi partiyaning (leyboristlar yoki konservatorlar) kelishi bilan ham bevosita bog'liq [2, 1-b.]. Xususan, o'tgan asrning 60–70-yillarida leyboristlarning liberal-demokratik g'oyalari asosida insonparvar, ijtimoiy-liberal siyosat olib borilib, jazolash o'rniga asosiy e'tibor profilaktika va reabilitatsiya masalalariga qaratilgan bo'lsa, 1979–1990-yillarda konservatorlar ijtimoiy siyosatdan voz kechib, huquqiy tartibotni ta'minlashning qattiq (jinoiy jazolash tizimini kengaytirish, zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxslarning javobgarligini og'irlashtirish, politsiya xodimlarining mehnati va texnik ta'minoti uchun xarajatlarni oshirish kabi) choralari qo'llashga doir tetcherizm (izoh: konservatorlar partiyasining vakili bo'lgan Margaret Tetcher Britaniya Bosh vaziri lavozimida ishlagan davr – 1979–1990-yillarni Britaniya tarixida "tetcherizm" davri deb atash an'anaga aylangan) siyosatini olib borganlar.

Britaniyada kodifikatsiyalashgan qonunchilik tizimi mavjud emas [3, 79–85-b.]. Ji-

noyatchilikka qarshi kurashish siyosatini shakllantirishda har 10 yilda 2-3 marta qabul qilinadigan, jinoiy-huquqiy vositalar yordamida jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasi va taktikasiga oid normalarni o'z ichiga olgan "Jinoiy yustitsiya to'g'risida"gi qonun asosiy rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, jinoiy, jinoiy-protsessual va jinoiy-ijroiya huquqining ayrim sohalariga aloqador bo'lgan – "Jinoyatlar to'g'risida" (1997-y.), "Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida" (1986-y.), "Avtotransport vositalari bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida" (1988-y.), "Jinsiy jinoyatlar to'g'risida" (1997-y.), "Politsiya to'g'risida" (2022-y.), "Terrorizm to'g'risida" (2000-y.), "Hujum qurollari to'g'risida" (1996-y.)gi qonunlar jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida alohida ahamiyatga ega.

Britaniyada 10–17 yoshli voyaga yetmaganlar jinoyat subyekti bo'lishi mumkin. Ularning ishlari Yoshlar sudi (Youth court) tomonidan ko'rib chiqiladi.

Britaniya jinoiy jazolar tizimida ozodlikdan mahrum qilish jazosi shaxsga qarshi og'irroq jinoyatlar uchun nazarda tutilib, ozodlikdan mahrum qilishga alternativ bo'lgan – probatsiya, qo'shma sanksiya, jamoatchilikka xizmat ko'rsatish, kommandantlik soatiga rioya etish majburiyatini yuklash kabi "jamoatchilik" sanksiyalari jazolar tizimidan o'rin olganligi ma'lum bo'ladi.

Ingliz mutaxassislarining fikricha, Buyuk Britaniya bo'yicha to'liq va yaxlit jinoyatchilik statistikasini shakllantirishning imkoni yo'q. Sababi uning hududidagi Angliya va Uels, Shotlandiya hamda Shimoliy Irlandiya o'zining avtonom huquq va sud tizimiga ega.

Angliya va Uels hududi hamda aholisi soniga ko'ra, Britaniyaning katta qismini o'z ichiga olib, mazkur hududda har yili Britaniya bo'ylab jami jinoyatlarning 90 foizi sodir etiladi [4, 214-b.].

Britaniya ichki ishlar vazirligi har yili Angliya va Uelsning statistik ma'lumotlari asosi-

da jinoyatchilikka oid statistikani shakllantirib, e'lon qilib boradi.

Britaniyada jinoyatlar sudlar tomonidan qanday tartibda ko'rilishiga qarab uch toifaga ajratiladi [5, 419–423-b.]:

1) ayblov akti asosida Qirollik sudlari tomonidan qasamxo'rlar ishtirokida ko'riladigan og'ir toifadagi (qotillik, nomusga tegish kabi) ishlar;

2) magistratlar sudi tomonidan (qasamxo'rlar ishtirokisiz) ko'riladigan bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki 5 ming funt sterling jarima jazosi nazarda tutilgan kam ahamiyatli ishlar [6, 41-p.];

3) ikki xil sudlovga ega bo'lgan, ya'ni Qirollik sudlari tomonidan ham, magistratlar sudlari tomonidan ham ko'rilishi mumkin bo'lgan ishlar.

Britaniya sudlov amaliyotidagi ishlarning qariyb 95 foizi magistratlar sudlari tomonidan ko'rib chiqilsa-da, yuqoridagi tasnif jinoyat statistikasini shakllantirishda ahamiyatga ega. Xususan, 1- va 3-toifadagi ishlar statistik hisobotda ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan ishlar hisoblanadi [7, 89-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Bugungi kunda Britaniya politsiyasi tomonidan qariyb 100 turdagi jinoyatlarni o'z ichiga oladigan 9 guruhdagi jinoyatlarga statistik hisobga olinadi. Mazkur jinoyatlar guruhi quyidagilardan iborat [9, 9-b.]:

- shaxsga qarshi zo'rvonlik jinoyatlari (violence against the person);

- qotillik (homicide);

- pichoq yoki boshqa o'tkir vositalar bilan sodir etilgan jinoyatlar (knife or sharp instrument offences);

- bosqinchilik (burglary);

- talonchilik (robbery);

- o'g'irlik (theft);


- firibgarlik (fraud);

- transport jinoyatlari (vehicle offences);

- kompyuter jinoyatlari (computer misuse).

Ta'kidlash lozimki, Britaniyada jinoyatchilik statistikasi ikki shaklda yuritiladi. Biri politsiya tomonidan qayd etiladigan jinoyatlar (Recorded Crime Statistics) bo'lsa, ikkinchisi 40 mingdan ziyod aholi o'rtasida o'tkaziladigan so'rovlar orqali [Izoh: bunday so'rov Britaniyada 1982-yildan buyon har ikki yilda bir marta o'tkazib kelinadi. Ro'yxatdan o'tmagan latent jinoyatlar ayni vaqtda umumiy jinoyatchilikni aniqlashning asosiy usullaridan hisoblanadi] aniqlanadigan (British Crime Survey) jinoyatlar [8, 54-b.].


Har ikki usulda, ya'ni politsiya tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va so'rovnoma orqali ma'lum bo'lgan jami jinoyatlarni birlashtirgan holda, Britaniyadagi 2021-yilgi jinoyatchilik strukturasi quyidagi grafikada ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Buyuk Britaniyada jinoyatchilik strukturasi (2021-y.)

Mazkur ko'rsatkichlar dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan Buyuk Britaniyada jinoyatchilik nihoyatda yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi [9, 9-b.].

Quyida vaqtda dinamik-qiyosiy tahlil uchun Britaniyadagi jinoyatchilikning 1997-yilgi strukturasi grafika e'tiboringizga havola etiladi (2-rasm) [10, 26-b.].



2-rasm. Buyuk Britaniyada jinoyatchilik strukturasi (1997-y.)

Jinoyatchilik statistikasining dinamik tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Britaniya politsiyasi tomonidan XX asrning 20-yillarida 100 000 jinoyat, 1950-yilda 500 000 jinoyat, 1970-yilda 1,5 mln jinoyat, 1980-yilda 2,5 mln jinoyat, 1997-yilda 4,5 mln jinoyat [11, 7-b.], 2007-yilda 5,4 mln jinoyat, 2017-yilda 6,3 mln jinoyat, 2022-yilda 6,5 mln jinoyat qayd etilib, jinoyatchilik o'sish tendensiyasiga ega ekanligi ko'zga tashlanadi.

Xususan, 1950-yildan 1998-yilga qadar qariyb 50 yil davomida jinoyatchilikning tezkor oshib borishi kuzatilib, bu davrda jinoyatchilikning absolyut ko'rsatkichi 9 baravar (479 400 tadan 4 598 327 tagacha), jinoyatchilik darajasi 8 baravarga (1 094 dan 8 841 gacha) oshgan [12, 3-b.].

Ingliz kriminologi L.Radzinovich o'tgan asrning 50-yillarida "Moddiy farovonlik, yuqori darajadagi ta'lim, aholining to'liq bandligi va yurtimiz rivojiga erishganimizdan so'ng davlatimizda jinoyatchilik ildizlariga barham beriladi degan umidda edik, biroq boylik va to'kinchilik ortgan sayin jinoyatchilik ham uning ketidan ortib bordi", – deya bejiz ta'kidlamagan edi [13, 16-b.].

Britaniyada jinoyatchilikning haqiqiy holati, xususan, latent jinoyatchilikni aniqlash

bo'yicha alohida tadqiqotlar o'tkazib kelinadi. Xususan, 1996-yilgi tadqiqotlar natijasida haqiqatda yuz bergan jami jinoyatlarning 47 foizi bo'yicha politsiyaga murojaat etilishi; 27 foizi politsiyada ro'yxatdan o'tkazilishi; 4,9 foizi fosh etilishi; 2,7 foizi bo'yicha shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi yoki ogohlantirilishi; 2 foizi bo'yicha sudlar tomonidan jazoga hukm etilishi aniqlangan [14, 22-b.].

Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimidagi yana bir muhim xususiyat – o'tgan asrning 80-yillari, ya'ni M.Tetcher davrida barcha sohalar singari huquqni muhofaza qilish va jazoni ijro etish tizimida amalga oshirilgan xususiyashtirish ishlari bo'lib, xususi qamoqxonalar ochish, konvoy xizmatini xususiyashtirishdan tortib sudda ayblovni quvvatlash xizmatini xususi firmalarga berishgacha yo'l qo'yildi [15, 109–110-b.]. Biroq bu islohotlar o'zining ijobiy samarasini bermagan. Chunonchi, M.Tetcherning hamislohotchilaridan biri hisoblangan M.Frideman odil sudlov "sotilishi"ga yo'l qo'yish og'ir oqibatlariga olib kelishini ta'kidlagan.

Xulosalar

Aytish mumkinki, Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimidagi moslashuvchan jinoiy-huquqiy siyosat; ji-

noyatdan jabr ko'rgan shaxslarga kompensatsion to'lovlar ajratish va ma'naviy-psixologik xizmat ko'rsatishga doir chora-tadbirlar tizimining yo'lga qo'yilganligi; jazolar tizimidan "jamoatchilik sanksiyalari" ham o'rin olganligi; huquqni muhofaza qilish tizimini xususiyashtirish natijalari bilan bog'liq jihatlar ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqot natijalari, nazarimizda, alohida davlatlar, xususan, milliy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini Britaniya modeli bilan qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganish uchun dastlabki material vazifasini o'tay oladi.

Ayni vaqtda muallif tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy tizimini shakllantirishda quyidagilarni inobatga olishni taklif etadi:

- jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlanishi jinoyatchilikning kamayishi ham-

da farovonlikning ortishi uchun zamin yarata olmasligi;

- jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining samarali kechishi uchun ayni jamiyatdagi jinoyatchilik xususiyati va uning omillarini inobatga olgan holda, ishlab chiqilgan kriminologik-doktrina (ilmiy asos) hamda o'rta muddatli strategik dasturlar zarurligi;

- sohadagi islohotlarni partiyalarning siyosiy ambitsiyalari ta'sirida emas, balki chuqur tahlil va ilmiy prognozlardan kelib chiqib o'tkazish maqsadga muvofiqligi (Britaniyaning odil sudlovni xususiyashtirishga doir islohotining ijobiy bo'lmagan oqibatlari misolida);

- mamlakatda jinoyatchilikning oldini olish ishlariga jamoatchilikni keng jalb etish hamda mazkur yo'nalishdagi nodavlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash lozimligi.

REFERENCES

1. Vedernikova O.N. Teoriya i praktika bor'by s prestupnost'yu: Britanskaya kriminologicheskaya model' [Theory and practice of fighting crime: The British Criminological model]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2003, p. 367.
2. Downes D. Law and Order: Theft of an Issue. London, 1983, p. 1.
3. Romanov A.K. Pravovaya sistema Anglii [Legal System of England: Study Guide]. Moscow, 2000, pp. 79–85.
4. Britain. The Official Yearbook of the United Kingdom. London, 1999, p. 214.
5. Walker R. Angliyskaya sudebnaya sistema [English judicial system]. Moscow, 1980, pp. 419–423.
6. McCormick-Watson J. English Legal System. Essential. London, 1994, p. 41.
7. Aparova T.V. Sudy i sudebnyy process Velikobritanii [UK courts and judicial process]. Moscow, 1996, p. 89.
8. Sparks R., Genn H., Dodd D. Crime, the Police and Criminal Statistics: An Analysis of Statistics for England and Wales Using Econometric Methods. London, 1979, p. 54.
9. Crime in England and Wales: year ending December 2021. *Statistical Bulletin*. Office for National Statistics. London, 2022, p. 9.
10. Criminal Statistics. England and Wales. 1997. London, 1998, p. 26.
11. International Comparisons of Criminal Justice Statistics 1999. *Home Office Statistical Bulletin*, London, 2001, May, iss. 6/01, p. 7.
12. Notifiable Offences. England and Wales. 1997. *Home Office Statistical Bulletin*, London, 1998, April, iss. 7/98, p. 3.
13. Radzinowicz L., King J. The growth of crime: The international experience. Harmondsworth, 1979, p. 16.
14. Croall N. Crime and Society in Britain. London, 1998, p. 22.
15. Inshakov S.M. Zarubezhnaya kriminologiya [Foreign criminology]. Moscow, INFRA-M Publ., 1997, pp. 109–110.

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./WYMC3495
UDC: 343.234(045)(575.1)

MISR ARAB RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA JAZONI YENGILLASHTIRISH INSTITUTI

Islomov Bunyod Ochilovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
"KDB Bank O'zbekiston" AJ bosh yuriskonsulti
ORCID: 0000-0001-8827-4900
e-mail: bunyodislomov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Misr Arab Respublikasi jinoyat qonun hujjatlarida o'z aksini topgan jazoni yengillashtirish instituti, shu jumladan, jinoyat qonunining ortga qaytish kuchi, tamom bo'lmagan jinoyatlarning suiqasd bosqichida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda jazo tayinlash, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari, yengilroq jazo tayinlash tartibi, Misr Arab Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar, afv etish va amnistiya masalalari, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoni yengillashtirish va jazodan ozod qilish, shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, provokatsiya, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligiga doir ayrim masalalar, aqli norasolik va cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan taqdirda, jazo tayinlash masalalari hamda maxsus qonun hujjatlar va mamlakat Jinoyat-protsessual kodeksining jinoiy jazoni yengillashtirishda tutgan o'rni tahlil qilinib, yakuniy fikr sifatida Misr Arab Respublikasining ayrim jinoyat-huquqiy me'yorlarini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga tatbiq etishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shariat, jinoyat qonunining ortga qaytish kuchi, yengillashtiruvchi holatlar, og'irlashtiruvchi holatlar, yengilroq jazo tayinlash, jinoyatda ishtirokchilik, tamom bo'lmagan jinoyat, cheklangan aqli rasolik, voyaga yetmagan shaxs, shartli hukm, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, afv etish, amnistiya, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv, yuridik shaxs.

ИНСТИТУТ СМЯГЧЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ АРАБСКОЙ РЕСПУБЛИКИ ЕГИПЕТ

Исломов Бунёд Очилович,
самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан,
главный юрисконсульт АО «КДБ Банк Узбекистан»

Аннотация. В данной статье проведён анализ института смягчения наказания в уголовном законодательстве Арабской Республики Египет, в том числе рассмотрены вопросы касательно обратной силы уголовного закона, назначения наказания за неоконченные преступления, совершённые в стадии покушения, назначения наказания с учётом смягчающих и отягчающих обстоятельств, особенности уголовной ответственности несовершеннолетних, порядок назначения более мягкого наказания, преступления со смягчающим составом, предусмотренные

Особенной частью Уголовного кодекса Арабской Республики Египет, вопросы помилования и амнистии, смягчение наказания и освобождение от наказания за преступления, совершённые в соучастии, условное осуждение, условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, провокация, некоторые вопросы уголовной ответственности юридических лиц, назначение наказания за преступления, совершённые в состоянии невменяемости и ограниченной вменяемости, вопросы назначения наказания при заключении соглашения о признании вины, а также роль специальных законов и Уголовно-процессуального кодекса страны в смягчении уголовного наказания. В качестве итогового заключения разработаны предложения по имплементации некоторых уголовно-правовых норм Арабской Республики Египет в Уголовный кодекс Республики Узбекистан.

Ключевые слова: шариат, обратная сила уголовного закона, смягчающие обстоятельства, отягчающие обстоятельства, назначение более мягкого наказания, соучастие в преступлении, неоконченное преступление, ограниченная вменяемость, несовершеннолетнее лицо, условное осуждение, условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, помилование, амнистия, соглашение о признании вины, юридическое лицо.

INSTITUTION OF MITIGATION OF PUNISHMENT IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE ARAB REPUBLIC OF EGYPT

Islomov Bunyod Ochilovich,

Independent Researcher of the University
of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,
Senior Legal Adviser of “KDB Bank Uzbekistan” JSC

Abstract. This paper analyzes the institution of mitigation of punishment in the criminal legislation of the Arab Republic of Egypt, including retroactive effect of criminal law, sentencing for inchoated offences committed at the stage of attempt, sentencing taking into account mitigating and aggravating factors, the features of criminal liability of minors, the procedure for more lenient sentencing, offences with mitigated composition provided for by the Special Part of the Criminal Code of the Arab Republic of Egypt, issues of pardon and amnesty, mitigation of punishment and releasing from punishment for offences committed in complicity, probation, parole, provocation, some issues of criminal liability of legal persons, sentencing for offences committed in a state of insanity and diminished responsibility, sentencing in a plea agreement, the role of special laws and the Code of Criminal Procedure Law of the country in mitigating of criminal punishment, and as a final conclusion, provides proposals on the implementation of some of criminal law norms of the Arab Republic of Egypt to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan as well.

Keywords: sharia, retroactive effect of criminal law, mitigating factors, aggravating factors, imposition of a more lenient punishment, criminal complicity, inchoate offence, diminished responsibility, juvenile, probation, parole, pardon, amnesty, plea agreement, legal person.

Kirish

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning 2.3-bandini (Ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillash-

tirish) hamda uning mantiqiy davomi bo‘lgan va mamlakatimiz Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning ikkinchi yo‘nalishi 14-maqсадida ko‘zda tutilgan islohotlar, xususan, jinoyat,

jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar, shu jumladan, mamlakatimizning yuridik sohada-gi yetakchi oliy ta'lim muassasalari tomoni-dan yangi tahrirdagi Jinoyat, Jinoyat-protses-sual va Jinoyat-ijroiya kodekslari loyihasini ishlab chiqishga qaratilgan keng ko'lamli ish-lar olib borilmoqda.

Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot davomida jahonning turli qit'alarida joy-lashgan, turlicha huquq tizimlariga mansub bo'lgan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va eng asosiysi, uzoq muddatli qonunchilik tajribasi-ga ega bo'lgan va ayni paytda tadqiqot ishining bevosita predmetini tashkil qiladigan xori-jiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligi o'rganib chiqildi va Jinoyat kodeksini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, jazoni yengillashtirish institutini tadqiq qilgan mahalliy olimlardan M.X. Rustamboyev [1, 85–151-b.], M. Usmoni-lyev va P. Bakunov [2], E. Tojiyev [3], M. Nazarovlarning [4; 5] ilmiy ishlari tahlil qilindi va mazkur tadqiqotlarda xorijiy mam-lakatlar tajribasi deyarli o'rganilmaganligi aniqlandi. Hattoki MDH doirasida qayd etil-gan institutni kompleks ravishda dissertat-siya darajasida tadqiq qilgan A.R. Garayeva [6, 104–120-b.], M.I. Kachan [7, 45–67-b.], V.L. Koliyev [8, 49–67-b.], S.V. Tasakov [9, 162–171-b.] hamda R.G. Xayrullina [10, 98–140-b.] singari sanoqli mualliflar ilmiy ishlarida ham xorijiy tajriba chuqur o'rganilmaganligi kuza-tildi. Bu, o'z navbatida, xorijiy mamlakatlar-ni jinoyat qonunchiligida jazoni yengil-lashtirish instituti o'rganilishiga bag'ishlan-gan tadqiqotlarni davom ettirish, shuningdek, arab davlatlari ligasi tashkilotlarining min-taqada ko'zga ko'ringan a'zolaridan bo'lmish Misr Arab Respublikasining deyarli bir yuz ellik yillik boy tarixiy tajribaga ega jinoyat qonunchiligini o'rganish kerakligini taqozo qiladi.

XIX–XX asrlarda musulmon va Yevropa huquqlarining o'zaro ta'siri natijasida shakl-langan huquq tizimiga ega bo'lgan Misrning zamonaviy jinoyat huquqiga doir ilk Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari 1875-yilda Yevropa modellariga mos ravishda qabul qi-lingan edi.

Misr Arab Respublikasining navbatda-gi va ayni paytda amaldagi Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda – Misr JK) [11] 1937-yil 31-iyulda qabul qilingan va 1937-yil 15-oktabr sanasidan kuchga kirgan bo'lib [12], Umumiy qoidalar (Birinchi kitob), Ja-moatchilik manfaatiga zarar yetkazuvchi jinoyat va qilmishlar hamda ularga jazo ta-yinlash (Ikkinchi kitob), Alohida shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat va qilmish-lar (Uchinchi kitob) va Umumiy foydalanish-dagi yo'llar bilan bog'liq huquqbuzarliklar (To'rtinchi kitob) deb nomlangan to'rt qism-dan tashkil topgan. Mazkur Jinoyat kodeksini Fransiya va Angliya jinoyat huquqi tizimlari-ni birikmasi sifatida e'tirof etish mum-kin [13]. Fransuz jinoyat huquqining ta'siri qoidabuzarlik, qilmish va og'ir jinoyatdan tarkib topgan uch pog'onali tizimning, shart-li hukm va jazoni o'tashdan muddatidan il-gari shartli ozod qilish institutlarining tat-biq etilishi kabilarda ko'rinsa, ingliz jinoyat huquqining ta'siri ishtirokchilik institutining ayrim jihatlarida namoyon bo'ladi.

Albatta, fransuz jinoyat huquqining ta'siri kuchliroq bo'lganligini ta'kidlash zarur. Ke-yinchalik, 1970–1980-yillarda Jinoyat ko-deksiga musulmon huquqiga xos bo'lgan ko'plab o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ilgari surilgan bo'lishiga qaramay, bunday takliflar parlament a'zolarining qo'llab-quvvatloviga erisha olmagan. Shu o'rinda mamlakat Konstitutsiyasi muqad-dimasi va 2-moddasida Islom shariati prin-siplari qonunchilikning asosiy manbayi ekanligi hamda JKning 7-moddasida ushbu kodeks me'yorlari hech bir holatda fuqarolar-ni shariatda o'rnatilgan shaxsiy huquqlari-ga daxl qilmasligi mustahkamlangan bo'lib,

so'nggi qoida musulmon delikt huquqining qo'llanishiga yo'l qo'yilishini bildiradi.

O'z navbatida, yuqoridagi Jinoyat kodeksi qabul qilingunga qadar mamlakatda Usmoniylar jinoyat qonunchiligi uzoq vaqt mobaynida amal qilganligi Misrning jinoyat qonunchiligi borasida naqadar uzoq muddatli tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi [14].

Jinoyat kodeksida Islom shariatida nazarda tutilgan shaxsiy huquqlar cheklanmasligi hamda uning qoidalari shariatda belgilangan huquqqa binoan vijdonan sodir etilgan har qanday qilmishga nisbatan qo'llanmasligi mustahkamlangan (7, 60-moddalar).

JKning Birinchi kitobi qonunlarda nazarda tutilgan jinoyat tarkiblari, shuningdek, xususiy nizomlarga nisbatan, agar ushbu nizomlarda boshqa qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, qo'llanadi (8-modda). Jinoyatlar uch turga bo'linib, og'ir jinoyat (ing. "felony"), qilmish (misdemeanor) va qoidabuzarlik (violation)dan iborat.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqot doirasida tarixiy, analiz va ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etishdan iborat umumilmiy metodlardan foydalanilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatning rasmiy va birlamchi manbalaridan olinganligi mazkur tadqiqot materiallarining ishonchliligini ta'minlagan.

Tadqiqot natijalari

Misr JK jazoni yengillashtirishga doir quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

Birinchiidan, JKning 5-moddasi qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan va aybdorning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtiradigan qonunning ortga qaytish kuchini mustahkamlaydi.

Ikkinchiidan, JK matnida "yengillashtiruvchi holatlar" atamasi va ularning ro'yxati qayd etilmagan bo'lsa-da, jazoni yengillashtirish tartibi nazarda tutilgan. Shu o'rinda mamlakat Jinoyat-protsessual kodeksining 214-moddasiga ko'ra, prokuratura tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga taqdim etilayotgan ayblov xulosasida jinoyat va

uning tarkibi, barcha og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar, qonunning qo'llanilishi lozim bo'lgan barcha moddalari aks ettirilishi lozim ekanligi [15] belgilanganligi prokuraturaning og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarga baho berish va kolatidan dalolat beradi.

Adabiyotlarda qilmishning og'ir-yengilligi, jinoyat sodir etishdagi moddiy holatlar, og'irlashtiruvchi holatlar (masalan, qurolli talonchilik, tungi paytdagi o'g'rilik), jinoyatchining xususiyati, uning katta yoshli yoki voyaga yetmagan shaxs ekanligi, birinchi marotaba jinoyat sodir etganligi yoki retsidivistligi, jinoyat sodir etish paytidan to'liq xabardor ekanligi singari holatlarning inobatga olinishi sudyaga jazoni yengillashtirish va alaloqibat yetkazilgan zararga mos ravishda jazoni individuallashtirish imkonini berishi qayd etiladi [16, 240–241-b.]. Bu jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olish masalasi, asosan, sudyaning ixtiyoriga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, mamlakat sudyalari jazo chorasining og'ir-yengilligi va muddati hamda miqdorini belgilashda keng erkinlikka ega. Bu boradagi yagona cheklov sifatida jinoyat qonunchiligida jazo chorasining har bir jinoyat tarkibi uchun o'rnatilgan eng kam va eng ko'p muddati yoki miqdorini e'tirof etish mumkin. Mazkur chegaralar doirasida sudyalarda erkin harakat qilish va jazoni individuallashtirish imkoni mavjud.

Shuningdek, JKning 17-moddasiga ko'ra, sodir etilgan og'ir jinoyat holatlari yuzasidan sudyaning muruvvat ko'rsatishi talab etilayotgan bo'lsa, og'irroq jazolar yengilrog'i bilan almashtirilishi mumkin, xususan [17, 21-b.]:

a) oliy jazo (capital punishment) doimiy (umrbod) (life (permanent) hard labor penalty) yoki muddatli og'ir mehnat (temporary hard labor penalty) tariqasidagi jazo bilan;

b) doimiy og'ir mehnat tariqasidagi jazo muddatli og'ir mehnat tariqasidagi yoki ozodlikdan mahrum qilish (imprisonment) jazosi bilan;

d) muddatli og'ir mehnat tariqasidagi jazo olti oydan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash (confinement penalty) tariqasidagi jazo bilan;

e) ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo uch oydan kam bo'lmagan muddatga ozodlikni cheklash jazosi bilan almashtirilishi mumkin.

O'z navbatida, jabrlanuvchi va jinoyatchining yarashuvi hukm chiqarish jarayoni uchun majburiy yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, bunday hollarda amaliyotda sudyalari, odatda, kechirimli bo'lishga ko'proq moyil bo'ladilar.

To'rtinchidan, JK og'ir jinoyat va qilmishga suiqasd uchun javobgarlik belgilaydi. Ikku turdagi, ya'ni tamomlangan (ing. "complete attempt") va tamomlanmagan (ing. "incomplete attempt") suiqasd farqlanadi [18, 92-b.]. Oddiy qaror yoki sodir etishga tayyorgarlik ko'rish og'ir jinoyat va qilmishga suiqasd hisoblanmaydi. Bunda og'ir jinoyatga suiqasd uchun, agarda qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, yengilroq jazo tayinlashning quyidagi tartibi belgilanadi:

a) og'ir jinoyat uchun oliy jazo nazarda tutilgan bo'lsa, uning o'rniga doimiy og'ir mehnat tariqasidagi jazo;

b) og'ir jinoyat uchun doimiy og'ir mehnat tariqasidagi jazo nazarda tutilgan bo'lsa, uning o'rniga muddatli og'ir mehnat tariqasidagi jazo;

d) og'ir jinoyat uchun muddatli og'ir mehnat tariqasidagi jazo nazarda tutilgan bo'lsa, uning o'rniga qonunda belgilangan yuqori chegaraning teng yarmidan ortiq bo'lmagan muddatli og'ir mehnat tariqasidagi jazo yoxud og'ir jinoyat uchun muddatli og'ir mehnat tariqasidagi jazo ko'zda tutilgan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo;

e) og'ir jinoyat uchun muddatli og'ir mehnat tariqasidagi jazo nazarda tutilgan bo'lsa, uning o'rniga qonunda belgilangan yuqori chegaraning teng yarmidan ortiq

bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq (detention) tariqasidagi jazo;

f) og'ir jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan bo'lsa, uning o'rniga qonunda belgilangan yuqori chegaraning teng yarmidan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq (detention) tariqasidagi jazo tayinlanadi (45–46-moddalar).

Beshinchidan, ishtirokchilarning qaysi biri og'ir jinoyat yoki qilmish sodir etilishidan avval mavjud jinoiy kelishuv to'g'risida hukumatni xabardor qilsa hamda mazkur xabar hukumat qayd etilgan jinoyatchilarni qidirib topishi va tekshiruvdan oldin taqdim etilgan bo'lsa, xabar yo'llagan ishtirokchi jazodan ozod etiladi. Bu yerda ishtirokchilikda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish haqida so'z ketmoqda (48-modda).

Jinoyat huquqida jinoyatning xususiyatini o'zgartirish orqali ishtirokchilarning javobgarligini yengillashtirishi yoki og'irlashtirishi mumkin bo'lgan real hamda shaxsiy yoxud shaxsga doir holatlar farqlanadi [19, 40–41-b.].

Oltinchidan, Misrning yuvenal yustitsiyasi jinoyat (munhirifin) sodir etgan bolalarni qamrab olib, ularning javobgarligi masalasi 1996-yil 28-martda kuchga kirgan "Bolalar to'g'risida"gi 12-sonli qonuni ("The Criminal Treatment of Children")ning sakkizinchi bobi va ushbu qonunni qo'llash to'g'risidagi qonunosti hujjatlari bilan belgilanadi [20]. Shuningdek, 1974-yilda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar to'g'risida"gi 31-sonli qonun ("Juvenile Act") ham bu boradagi tegishli me'yorlarni aks ettiradi.

Yettinchidan, JKning 74-moddasiga ko'ra, hukmning yengillashtirilishi jazoning to'liq yoki qisman yengillashtirilishi yoxud qonunda nazarda tutilgan yengilroq jazo bilan almashtirilishini talab qiladi.

Yengilroq jazo tayinlash to'g'risida hukm chiqarilgan taqdirda, o'lim jazosi doimiy og'ir mehnat tariqasidagi jazo bilan almashtiriladi. Doimiy og'ir mehnat tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs jazosining

ijrosi kechiktirilgan yoki uning jazosi yengillashtirilgan taqdirda, mazkur shaxs ustidan besh yil muddatga politsiya nazorati o'rnatiladi (75-moddada).

Sakkizinchidan, JKning Maxsus qismida yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar ham uchraydi. Shu jumladan, JK 237-moddasida mustahkamlangan oqlab bo'lmaydigan odam o'ldirish jinoyati uchun jazoni yengillashtirishga mos keladigan provokatsiyaning faqatgina bir shaklini tan oladi: turmush o'rtog'ini zino vaqtida ushlab olgan erkak kishi o'z turmush o'rtog'ini va/yoki turmush o'rtog'i bilan zino qilayotgan shaxsni "o'sha paytning o'zida" o'ldirgan taqdirda, umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki og'irlashtirilgan ozodlikdan mahrum qilish (234-moddada belgilangan qasddan odam o'ldirish uchun) yoki og'irlashtirilgan yoxud asosiy ozodlikdan mahrum qilish (236-moddada belgilangan qasddan badanga tan jarohati yetkazish oqibatida qasddan bo'lmagan odam o'ldirish) tariqasidagi jazo o'rniga umumiy qamoqxonada o'taladigan qilmish uchun uch yil yoki kamroq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Sud amaliyoti provokatsiyaning quyidagi talablari mavjud bo'lishini taqozo qiladi: 1) provokatsiya to'satdan yuz berishi, xiyonat, haqiqatan ham, kutilmagan bo'lishi, odam o'ldirish esa hissiyotga berilgan holda amalga oshirilishi; 2) JK matnidan kelib chiqqan holda, faqatgina erkaklar, ya'ni erlarning javobgarligi yengillashtirilishi mumkin, biroq turmush o'rtog'ini o'ldirgan ayollarga nisbatan mazkur qoida qo'llanmaydi [21]; 3) faqatgina erga nisbatan jazoning yengillashtirilishi qo'llanishi mumkin, er yoki zinokor ayolning qarindoshi yoki oilasining a'zosi ayol kishini yoki ushbu ayol bilan zino qilayotgan shaxsni mustaqil ravishda o'ldirgan taqdirda, jazoning yengillashtirilishiga haqli bo'lmaydi; 4) biroq urning har qanday sherigi malakalangan odam o'ldirish jinoyati uchun jazoning yengillashtirilishiga haqli sanaladi. Shuningdek, jazoning yengillashti-

rilishi uchun erkak kishi xiyonatkorning jinsiy aloqasiga guvoh bo'lishi shart emas, bunda o'z xotini va begona erkakni yetarlicha shubhali vaziyatda ushlab olishi yengillashtirish uchun yetarli bo'lgan provokatsiyani aks ettirishi mumkin [22].

To'qqizinchidan, yuqorida qayd etilganidek, JK bilan bir qatorda bir qancha maxsus qonun va qonunosti hujjatlari ham jinoyat-huquqiy me'yorlar, shu jumladan, jazo tayinlash masalalarini aks ettiradi. Mamlakat Konstitutsiyasi [23], 2013-yildagi "Tinch ommaviy yig'ilishlar, yurishlar, namoyishlar o'tkazish huquqini ta'minlash to'g'risida"gi, 2015-yildagi "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi, 2019-yildagi "Nohukumat tashkilotlar to'g'risida"gi, 2018-yildagi "Kiberjinoyatlar va axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar to'g'risida"gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir. Xususan, Konstitutsiyaning 155-moddasiga ko'ra, Mahkama bilan maslahatlashuvdan so'ng Prezident afv etish yoki jazoni yengillashtirishga haqli. Umumiy amnistiya esa faqatgina Vakillar palatasining ko'pchilik a'zolari tomonidan ma'qullangan qonun bilan taqdim etilishi mumkin. Xususan, mamlakat qonunchiligi o'lim jazosining bekor qilinishi yoki yengillashtirilishiga doir ikki holatni ko'zda tutadi: aybdorni javobgarlikka tortish muddati o'tib ketgan yoxud Prezident tomonidan avf qilingan taqdirda, davlat o'lim jazosini ijro qilish huquqiga ega bo'lmaydi [24, 29-b.].

Bundan tashqari, "Kiberjinoyatlar va axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar to'g'risida"gi qonunning 41-moddasiga ko'ra, jinoyat sodir etilishidan avval yoki jinoyat aniqlanib bo'lganidan so'ng sud yoki davlat organlariga xabar berish tashabbusini ilgari surgan har qanday bajaruvchi yoki birgalikdagi bajaruvchi ushbu qonunda belgilangan jinoyat uchun nazarda tutilgan jazodan ozod etiladi. Jinoyat haqida xabar jinoyat aniqlanganidan so'ng va u bo'yicha tergov o'tkazilishidan avval taqdim etilgan hamda bajaruvchi yoki ishtirokchi tergov vaqtida vakolatli

organlarga jinoyat sodir qilgan boshqa shaxslarni hibsga olish, pul mablag'lariga band solish imkonini bergan, tergov harakatlari mobaynida haqiqatni aniqlash yoki xususiyati va og'irligi bo'yicha shunga o'xshash jinoyat sodir qilgan shaxsni hibsga olishda yordam ko'rsatgan taqdirda, sud bunday jazodan ozod qilishi yoki jazoni yengillashtirishi mumkin.

O'ninchidan, shartli hukm qilish institutining amal qilish tartibi JK Birinchi kitobi 28–29-moddalarida, sakkizinchi qismi 55–59-moddalarida, JPK 201-moddasida va 1945-yilda qabul qilingan "Politsiya nazorati ostida tartibga solish to'g'risida"gi 99-sonli qonunda, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga doir me'yorlar esa JK 269 bis, 320, 336, 355, 367, 375 bis va 375 bis first-moddalarida hamda JPK 538-moddasida o'z aksini topgan.

O'n birinchidan, Misr qonunchiligida "aybga iqrorlik yuzasidan kelishuv" instituti ko'zda tutilmagan.

O'n ikkinchidan, kompaniyalar (yuridik shaxslar)ning cheklangan hollardagina jinoyiy javobgarlikka tortilishi mumkin ekanligiga doir o'zgartirishlar tegishli qonun hujjatlariga kiritilganiga ko'p vaqt bo'lmadi. 2014-yilda "Jinoyiy daromadlarni legallashtirish to'g'risida"gi qonun hamda 2015-yilda "Investitsiyalar to'g'risida"gi qonunning 92-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar shular jumlasidandir. Bunda kompaniyalar o'z xodimlari yoki rahbarlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoyiy javobgar bo'lmaydilar. Biroq jinoyatlar kompaniyaning nomidan yoki uning hisobi evaziga sodir etilgan taqdirda, mazkur kompaniya jarima va kompensatsiyalarni to'lash yuzasidan birgalikdagi javobgarlikka tortilishi mumkin [25].

O'n uchinchidan, JKning 62-moddasi jinoyatchining erkin irodasi mahsuli bo'lmagan harakatlar, ya'ni aqli norasolik va ruhiy nosog'lomlik holatida sodir etilgan jinoyatlarning jazolanishini taqiqlaydi. Shu asnoda JK aqli norasolik va cheklangan aqli

rasolikni qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar sifatida mustahkamlaydi [22, 192–193-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Misr JKda jazoni yengillashtirish institutini tahlil qilishda mahalliy olimlar va MDH doirasidagi mualliflarning tadqiqotlari deyarli uchramasligini inobatga olgan holda, polemikadan biroz chekinib, tadqiqot natijalari tahlili yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimizni bayon qilamiz.

va aniqlashning maxsus metodikasi mavjud emas. Jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni tez va to'la ochish orqali aybdorlarni fosh etish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida fosh qilish va tergovning sifatli o'tkazilishi dastlabki tergov samaradorligini oshirishning eng muhim shartidir. Ushbu faoliyat sohasi sud-huquq tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, huquqni muhofaza qilish amaliyotini yaxshilashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda respublikamizda jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish, har tomonlama, to'la va xolisona tergov qilish, javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini so'zsiz amalga oshirishning samarali mexanizmlarini yaratish maqsadida jinoyat-protsessual qonunchilikni

takomillashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq O'zbekiston Respublikasi IIV Axborot markazi ma'lumotlariga ko'ra, har yili mamlakatda ro'yxatga olingan jinoyatlarning 10 foizga yaqini fosh etilmay qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, inssenirovka usuli bilan sodir etilgan jinoyat ishlarini aniqlash va tergov qilish metodikasini takomillashtirish, amaldagi qonunchilik normalari va jinoyatni inssenirovka qilishning kriminalistik jihatlarini tahlil qilish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda jinoiy inssenirovka bo'yicha tasmollarni ilgari surish, ularni tekshirish va aniqlash hamda sun'iy dalillarni yaratish bilan bog'liq yolg'on xabar berish holatlarini fosh qilish usullarini yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Material va metodlar

Keng ma'noda usul – bu ma'lum bir natijaga erishish yo'lidir. Bizning ilmiy maqolamizdagi ijobiy natija – jinoiy inssenirovkani muvaffaqiyatli aniqlash va fosh etish. Nazariya juda ko'p sonli tergov usullarini taklif qiladi, ammo ko'p hollarda ularni amalda qo'llash samaradorligi masalasi ochiq qolmoqda.

Barcha kriminalistik vaziyatlarning xilma-xilligi uchun jinoiy inssenirovka va u bilan bog'liq hodisalarni aniqlash hamda tergov qilish barcha holatlar (yondashuvlar, prinsiplar, texnologik sxemalar va boshqalar) uchun bir xil bo'lgan umumiy qoidalarini hisobga olish va qo'llash asosida amalga oshiriladi. Ularning asosiylaridan biri tergovchining vazifasi har bir holatda uning muayyan ishni bilish jarayoni bilan bog'liq maqsad va vositalar muammosini ijodiy izohlashdir. Ushbu tamoyil isbotlanishi kerak bo'lgan sharoitlar, shuningdek, ularni tashkil etish vositalari, usullari va texnologiyalarini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda inssenirovka ko'rinishlari bilan yashirin jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganilayotgan hodisaga doir bilimlarni to'plash va tizimlashtirish bosqichida.

Shunga qaramay, ayrim turdagi jinoyatlar uchun tergovning to'plangan ichki va xorijiy (xususan, ruslarning) tajriba hisobga olinsa, ma'lumotlarning hajmi bizga inssenirovkani aniqlash va tergov qilishning tipik dasturlari, sxemalari va usullarini aniqlash imkonini beradi. Bunday holatda inssenirovka sodir bo'lishi mumkinligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan holat jinoiy inssenirovka belgisi hisoblanadi. Jinoyatdan oldin, jinoyat davomida va jinoyatdan keyingi turli xil holatlar inssenirovka ko'rinishining belgisi sifatida xizmat qilishi mumkin. Ular haqiqatda ro'y bergan hodisa bilan nima sodir bo'lganligi, inssenirovkada nima bo'lganligi va qanday qilib tegishli vositalar bilan aks ettirilganligi o'rtasidagi qarama-qarshilikka asoslanadi.

Tadqiqot natijalari

Inssenirovkani muvaffaqiyatli aniqlash uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tergovchining ma'lum toifadagi holatlar uchun odatiy bilimlari mavjud bo'lib (birinchi bosqich sifatida belgilanishi mumkin), har birining kriminalistik xususiyatlari hisobga olinadi.

Keyingi qadam (ikkinchi bosqich), qoida tariqasida, tadqiqot va qidiruvga yo'nalishi bo'yicha qurilgan tasmolni chuqur, tezkor, ammo sifatli tekshirishni ta'minlashdir. Shu maqsadda jinoiy tergov subyekti tomonidan tuzilgan rejaga muvofiq, quyidagi harakatlar amalga oshiriladi [2, 87-b.]:

- ishda mavjud bo'lgan vaziyatni tahlil qilish va baholash;

- voqea modellari, uning belgilari voqea joyida "sirtida yotishi" tasvirlangan, hamma narsa shu tarzda sodir bo'lgan deb o'ylashga olib keladi, aksincha emas;

- qurilgan modellarning xususiyatlarini o'rganish va taqqoslash, ulardan natijalarni olib tashlash va tekshirish;

- ba'zi oqibatlarining haqiqati va boshqalarning haqiqiy emasligini aniqlash;

- tekshiruvdan chiqarilgan modellar va aniqlangan izlarning qiyosiy tahlilini ta'minlash;

– aslida sodir bo'lgan voqea uchun modelning yetarliligi haqida xulosa chiqarish;

– tanlangan modelning haqiqatini obyektiv ravishda tasdiqlovchi va xato ehtimolini istisno qiladigan qo'shimcha ma'lumotlarni olish bo'yicha choralar ko'rish;

– inssenirovka qilingan hodisadan kelib chiqadigan barcha huquqiy oqibatlarga olib keladigan hodisani aniqlash jarayonini yakunlash to'g'risida qaror qabul qilish.

Tergov usullarini o'rganish davomida shuni ta'kidlaymizki, "Dasturiy maqsadli usul" tergovni tashkil etish va jinoyat ishi bo'yicha yangi bilimlarni oldindan ishlab chiqilgan namunaviy kriminalistika dasturlari yordamida olishga asoslangan [3, 433-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Tergov dasturi shu toifadagi jinoyat ishlarini tergov qilish uchun tergov harakatlari ketma-ketligi to'g'risidagi ma'lumotlar tizimidir. Olim A. Xakberdiyevning fikriga ko'ra, tergov dasturida quyidagilar bo'lishi lozim.

Xususan:

1) dastur haqidagi savolni tushunib olish, uni jinoiy ish bilan bog'liq holda aniqlash;

2) ushbu masala bo'yicha ishda ma'lumot bormi deganda, ha yoki yo'q degan javobga to'xtalish;

3) ishonchli xulosa qilish uchun yetarli ma'lumot bormi deganda, ha yoki yo'q degan to'xtamga kelish;

4) xulosani shakllantirish;

5) a) bilimni chuqurlashtirishga harakat qilish; b) tergov tashkil qilish va qarorlar qabul qilish uchun bilimlardan foydalanish; d) dasturda keyingi savolga o'tish [4, 175-b.].

Bunday holda namunaviy (standart) dastur tergov rejasining o'zi emas, balki uni tuzish vositasidir. Shuni ta'kidlash kerakki, kriminalistikaga oid adabiyotlarda bir qator namunaviy dasturlar mavjud va nashr etilgan bo'lsa-da, o'tkazilgan so'rovnomadagi so'rov ishtirokchilarining 39,4 foizi ularni o'z faoliyatida qo'llashi ma'lum bo'lgan.

Dasturiy-maqsadli usul tergovga jalb qilingan shaxs tomonidan haddan tashqari sub-

yektivlik namoyon bo'lishining oldini olishga imkon beradi.

Dasturlash va algoritmash usullari o'xshash tushunchalardir.

Ushbu usullarni jinoiy inssenirovkalarni aniqlash va fosh etishda qo'llashning qiyinligi shundan iboratki, reja tuzishda tergov subyektiga tayanishi mumkin bo'lgan namunaviy dasturlar (algoritmalar) yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shunga qaramay, jinoiy inssenirovkani aniqlash va fosh etish uchun namunaviy dasturlar (algoritmalar)ni yaratish bosqichlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan [5, 214-b.]:

- jinoiy ishlarni tergov qilish bo'yicha amaliy ma'lumotlarni to'plash va odatiy tergov holatlarining inssenirovka faoliyatiga xos bo'lgan holatlarini aniqlash;

- har bir standart tergov holati uchun muammolarni aniqlash, vazifalarni hal qilish uchun vositalarni aniqlash;

- algoritm (dastur) qurish va keyinchalik amalda tekshirish.

I.V. Kubarev qiziqarli taklifni oldinga surgan, ya'ni u tergov muammosini jamoa bo'lib rejalashtirish orqali hal qilishni taklif qilgan. Ushbu o'zaro ta'sirning samaradorligi, bir tomondan, tergovni murakkablashtiradigan omillarga (axborotning yetishmasligi va nomuvofiqligi, manfaatdor shaxslarga qarshi turish) tajriba, intellekt, bir nechta shaxslarning sezgisi (guruh 5–7 kishi)dir [6, 187-b.]. Ko'rib turganimizdek, rasmiy ravishda tergov guruhi tashkil etilgan taqdirda, amalga oshiriladi, boshqa hollarda asossiz ravishda keng doiradagi shaxslar uchun muhim ma'lumotlar tarqalishi xavfi mavjud. Bu esa, masalan, jarayon ishtirokchilarining huquq va erkinliklari buzilishiga olib kelishi mumkin.

Rejalashtirish tarkibidagi asosiy elementlar quyidagilar:

– tuzilishni ilgari surish va tergovning umumiy strategiyasini aniqlash;

– tergov harakatlari tizimi va ularga aloqador shaxslarni aniqlash;

– ayrim tergov harakatlarining taktik xususiyatlari va taktik usullarini aniqlash;

– tergov natijalarini tahlil qilish (tanqidiy baholash).

Tergov rejasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy sharti tergov samaradorligi va tezligini ta'minlaydigan bir nechta tasmollarning parallel tekshirilishidir. Mazkur usul bo'yicha 2019-yil Sirdaryo viloyati Guliston shahrida jinoyat ishi tergov qilinib, fosh etilgan.

Q.J. bir necha odamdan olgan qarzlardan qutulish niyatida o'zganing mol-mulkini qo'lga kiritishni maqsad qilib, tanishi R.M. bilan uchrashib, "Nexia-2" rusumli avtomashinasida go'yoki otasiga zarur bo'lgan dori-darmon sotib olish uchun dorixonaga birga bori-shini iltimos qilgan va u rozi bo'lgan. Q.J. jinoiy maqsadini amalga oshirish uchun qulay joy qidirib, kun davomida dastlab Yangiyer, keyin Toshkent viloyatining Bekobod shahrlariga borib kelgan. Yo'lda avtomashinasi nosozligi bahonasida kechki soat 19:30 larda qorong'i tushganidan foydalanib, R.M.ga uyiga olib borib qo'yishini aytgan. Boyovut tumani hududida avtomashinani yo'lning o'ng chetiga to'xtatib, R.M.ga zo'rlik bilan ruhiy ta'sir o'tkazib, unga go'yoki u o'zini o'zi o'ldirgani, bu holat bo'yicha hech kimga nisbatan da'vosi yo'qligi haqida tilxat yozdirib olgan. So'ng R.M.ni bo'ynidagi bo'yinbog'i bilan qasddan bo'g'ib o'ldirib, uning tilla taqinchoqlarini bosqinchilik yo'li bilan qo'lga kiritgan. R.M.ning murdasini Xovos tumani hududidagi yo'lning chetiga tashlagan. Yozdirib olgan tilxatini R.M.ning shaxsiy sumkasi ichiga solib, go'yoki hech nima bo'lmaganday qilib o'zini ko'rsatish maqsadida uyiga qaytib ketgan.

Mazkur holat yuzasidan olib borilgan tergov jarayonida Q.J. hech nima bilmasligini aytib, qilgan aybini tan olmaslikka uringan. Surishtiruv va tergov organi xodimlari tomonidan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda tasmollarni ilgari surish, fotosuratlar orqali tanib olish, bir necha bor

yuzlashtirish, bir necha turdagi ekspertiza o'tkazish, tergov harakatlari tizimi va ularga aloqador shaxslarni yaratish, turli tezkor qidiruv tadbirlari o'tkazish va so'roq qilish davomida Q.J.ning aybi fosh etilgan hamda JKning 97-moddasi 2-qismi "j" bandi va 164-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan aybdor deb topilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamoaviy rejalashtirish usulidan foydalanib, olingan ma'lumotlarni parallel ravishda tekshirishni ta'minlash mumkin. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 355- va 356-moddalari 1-qismiga binoan, guruh rahbari bo'lgan tergovchi va tergovchilar tomonidan amalga oshirilgan tergov harakatlari natijalari jinoyat ishini ishlab chiqish uchun qabul qilgan tergovchi harakatlarining natijalari bilan bir xil ma'noga ega [7, 146-b.].

Va nihoyat, jinoiy insseniurovkani aniqlash va fosh etish uchun standart dasturlarning yo'qligi sababli o'xshash usullar qo'llanishi mumkin [8, 19-b.].

Tasniflashda jinoiy insseniurovkalarni aniqlash va fosh etish uchun quyidagi asoslar bo'lishi lozim [9, 51-b.]:

– insseniurovka subyekti – insseniurovkachining faoliyati amalga oshirilgan shart-sharoitlar;

– faoliyat predmeti – insseniurovka faoliyatining natijasi;

– insseniurovka ayblovning sun'iy dalillari – insseniurovkachining faoliyati natijasida hosil bo'lgan tasvir;

– maqsadga erishish vositasi va mexanizmi – ushbu faoliyat natijasida yuzaga kelgan oqibatlar.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, insseniurovkalarni aniqlash va ta'sir qilishning umumiy usullari orasida quyidagi usullarni ajratib ko'rsatish mumkin: dasturiy-maqsadli (dasturlash va algoritmlash) va rejalashtirish.

Usullar (dasturiy maqsadli, rejalashtirish) doimiy ravishda takomillashtirilmoqda, chunki ularning barchasi tergov va sud amali-

yotiga asoslangan bo'lib, hozirgi vaqtda jinoiy insseniroykalarini aniqlash va fosh etish bilan bog'liq ravishda ilmiy asosda tizimlashtirilishi kerak. Ushbu usullar kelajakda tadqiqot muallifi tomonidan davom ettiriladi.

Dasturiy-maqсадli va rejalashtirish usullari chuqur ishlab chiqilmoqda, chunki ular tergov va sud amaliyotiga asoslangan bo'lib, hozirgi kunga qadar jinoiy insseniroykani aniqlash va fosh qilish bo'yicha tizimlashtirilmagan.

Shuni aytish kerakki, bir qator jinoyatlarini tergov qilish paytida ma'lum bir turdagi jinoiy insseniroykani aniqlash va fosh qilish metodologiyasi yetarli darajada o'rganilgan,

masalan, qotillik [10, 5-b.], o'z joniga qasd qilish, nomusga tegish [11, 227-b.], o'g'rilik [13, 34-b.], bosqinchilik [14], firibgarlik [15, 105-b.], bankrotlikni yaratish, yo'l-transport hodisalari, axborot-kompyuter texnologiyalari va boshqalar. Shu munosabat bilan biz hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, jinoiy insseniroykalarini tekshirish va aniqlash (shu jumladan, jinoyat ishi qo'zg'atish bosqichida), shuningdek, sun'iy dalillarni yaratish bilan bog'liq holda yolg'on xabar berishda jinoiy insseniroyka tushmollarini ilgari surishdagi dolzarb masalalarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Victims of intentional homicide, 1990-2018. United Nations. Available at: <https://dataunodc.un.org/content/data/homicide/homicide-rate>
2. Xakberdiyev A. Jinoiy insseniroykalarini tasniflashning nazariy asoslari, ularni aniqlash va tergov qilish metodikasi [Theoretical basis of classification of criminal stagings, methods of their identification and investigation]. PhD thesis. Tashkent, 2021, p. 87.
3. Shatalov A.S. Kriminalisticheskiye algoritmy i programmy v sisteme metodiki rassledovaniya prestupleniy [Forensic algorithms and programs in the crime investigation methodology system]. Forensic scientists and their role in improving the scientific foundations of criminal proceedings. Moscow, 2007, part 1, p. 433.
4. Xakberdiyev A.A. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda jinoiy insseniroyka bo'yicha tushmollarini ilgari surish, ularni tekshirish va aniqlash [Proposing, investigating and identifying evidence of criminal staging during the inspection of the scene of the incident]. *Bulletin of Legal Sciences*. Tashkent, 2020, spec. iss., part 1, p. 175.
5. Marochkin N.A., Astashkina E.N. Algoritmizatsiya – effektivnyy metod optimizatsii rassledovaniya prestupleniy [Algorithmization is an effective method for optimizing crime investigations]. *Izvestiya AltGU – News of Altai State University*, 2011, no. 2, p. 214. Available at: <http://cyberleninka.ru/article/n/algoritmizatsiya-effektivnyy-metod-optimizatsii-rassledovaniya-prestupleniy/>
6. Kubarev I.V. Soglasovannoye planirovaniye rassledovaniya: problema metodiki [Coordinated investigation planning: the problem of methodology]. Current problems of crime investigation. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. Moscow, 2013, p. 187.
7. Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2021, p. 146.
8. Xakberdiyev A.A. Jinoiy insseniroyka tuzilishiga ko'ra turlari, tasnifi va tizimi [Types, classification and system according to the structure of criminal dramatization]. *Journal of Legal Studies*, Tashkent, 2020, no. 3, p. 19.
9. Xakberdiyev A.A. Jinoiy insseniroykalar, ularni tasniflashning nazariy asoslari [Criminal dramatization, theoretical bases of their classification]. *Journal of Law and Duty*, 2020, no. 3, p. 51.

10. Aleksandrenko E.V. Tipichnyye sposoby podgotovki i sokrytiya seriynykh seksualnykh ubiystv [Typical methods of preparation and concealment of serial sexual murders]. Current problems in crime investigation. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. Moscow, 2013, May 23. P. 5.

11. Pulatov Yu.S. Formy i metody profilakticheskoy deyatelnosti po neytralizatsii prichin i usloviy, sposobstvuyushhikh samoubiystvam v IVS [Forms and methods of preventive activities to neutralize the causes and conditions contributing to suicide in temporary detention facilities]. Issues of psychological preparation in suicide prevention. Proceedings of the Scientific and practical seminar. Tashkent, Republic of Uzbekistan MIA, 2013, p. 77.

12. Rogova I.G., Bobryshova N.R. Osobennosti rassledovaniya instsenirovok iznasilovaniya [Features of the investigation of staged rapes]. *International Journal of Humanities and Natural Sciences*, 2018, vol. 9, p. 227.

13. Prokhorov E.S., Malakhov A.S., Sidorova K.S. Osobennosti sposobov khishheniy denezhnykh sredstv so schetov kliyentov bankov, sovershennykh s ispolzovaniyem tekhnicheskikh kanalov svyazi [Features of methods of theft of funds from bank client accounts committed using technical communication channels]. *Bulletin of the Barnaul Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of RF*, Barnaul, 2017, p. 34.

14. Baratov A.Sh. Xonadonlarda sodir etilgan talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilish uslublari [Methods of investigating crimes of robbery and home invasion]. PhD thesis, Tashkent, TSIL, 2011, p. 95.

15. Yurin V.M. Osnovaniya vydvizheniya versii o moshennicheskoy operatsii “zaplanirovannoye bankrotstvo” [The basis for putting forward the version of the fraudulent operation “planned bankruptcy”]. Issues of qualification and investigation of crimes in the economic sphere. Proceedings of scientific articles based on the materials of the All-Russian scientific and practical seminar, 1998, December 15–18. Saratov, 1999, p. 105.

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./KZAS4713
UDC: 343.132(045)(575.1)

TINTUV TUSHUNCHASI VA TINTUV O‘TKAZISHDA SHAXS HUQUQLARI VA QONUNY MANFAATLARINING PROTSESSUAL KAFOLATLARI

Yermekbayev Bauirjan Amantayevich,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Jinoiy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy fanlar
kafedrası assistent o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0006-6588-7003
e-mail: bawka83@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat protsessida tergov harakati hisoblangan tintuv o‘tkazish tushunchasi va tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari masalalari atroficha tahlil qilingan. Bunda tintuv tushunchasi bo‘yicha jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan normalar, soha mutaxassislari va olimlarning bu boradagi qarashlari o‘rganilib, mualliflar tomonidan ushbu tushunchaning ta‘rifi ishlab chiqilgan. O‘z navbatida, uning olib qo‘yish tergov harakati tushunchasidan farqli jihatlari ochib berilgan. Jinoyat-protsessual qonunchilikda tergovchiga tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga taalluqli bo‘lgan masalalarni mustaqil hal qilish bo‘yicha keng vakolatlar berilgan bo‘lib, ushbu maqolada tergov jarayonida tintuv o‘tkazishda tergovchi va ishtirokchilar amal qilishi zarur bo‘lgan shartlar ko‘rib chiqilgan. Tintuv o‘tkazish jarayoni shaxslarning turar joy daxlsizligiga bo‘lgan huquqi bilan bevosita aloqador ekanligi sababli maqolada ushbu tergov harakatini amalga oshirishda turar joy daxlsizligiga bo‘lgan huquqni kafolatlashga doir milliy va xalqaro qonunchilik tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur ilmiy izlanish orqali tintuvni turli joylarda o‘tkazishning o‘ziga xos jihatlari, shu jumladan, diplomatiya vakolatxonasi hududida tintuv o‘tkazilayotganda, diplomatiya vakolatxonalari va ularning diplomatiya daxlsizligiga ega bo‘lgan xodimlarining huquqlari va kafolatlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ham asosli xulosalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: tintuv, olib qo‘yish, tergovchi, xolislar, tintuv bayonnomasi.

ПОНЯТИЕ ОБЫСКА И ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ И ЗАКОННЫХ ИНТЕРЕСОВ ЛИЧНОСТИ ПРИ ОБЫСКЕ

Ермекбаев Бауыржан Амантаевич,

ассистент кафедры «Уголовно-правовые
и гражданско-правовые дисциплины»
Каракалпакского государственного
университета имени Бердаха

Аннотация. В данной статье подробно анализируются понятие обыска, который считается следственным действием в уголовном процессе, и вопросы процессуальных гарантий прав и законных интересов личности при проведении обыска. В связи с этим были изучены нормы, определённые в уголовно-процессуальном законодательстве, о понятии обыска, мнения специалистов и учёных по этому поводу, а также разработано автором определение данного понятия. В свою очередь раскрываются его отличия от понятия выемка как следственного

действия. В уголовно-процессуальном законодательстве следователю предоставлены широкие полномочия по самостоятельному решению вопросов, связанных с соблюдением прав, свобод и интересов личности при проведении обыска. В данной статье анализируются условия, которые должны соблюдаться следователем и участниками при проведении обыска. Поскольку процесс обыска непосредственно связан с правом физических лиц на неприкосновенность жилища, в статье исследуется национальное и международное законодательство по вопросам обеспечения права на неприкосновенность жилища при осуществлении данного следственного действия. Также на основе данного научного исследования сделаны обоснованные выводы относительно особенностей проведения обыска в разных местах, в том числе вопросы, связанные с правами и гарантиями дипломатических представительств и их сотрудников, обладающих дипломатической неприкосновенностью при проведении обыска на территории дипломатической миссии.

Ключевые слова: обыск, выемка, следователь, стороны, протокол обыска.

CONCEPT OF SEARCH AND PROCEDURAL GUARANTEES OF INDIVIDUAL RIGHTS AND LEGAL INTERESTS DURING SEARCH

Yermekbayev Bauirjan Amantayevich,

Assistant teacher of the Department
of Criminal and civil-legal disciplines,
Karakalpak State University named after Berdakh

Abstract. In this article, the concept of search, which is considered an investigative action in the criminal process, and the issues of procedural guarantees of individual rights and legal interests during the search are analyzed in detail. In this regard, the norms defined in the criminal-procedural legislation on the concept of search and the views of experts and scientists in this regard were studied, and the definition of this concept was developed by the author. In turn, the different aspects from the concept of seizure investigative action are revealed. In criminal procedural legislation, the investigator is given broad powers to independently resolve issues related to the rights, freedoms, and interests of the individual during the search. This article analyzes the conditions that the investigator and participants must follow during the search. Since the search process is directly related to the right of individuals to privacy of residence, the article researches the national and international legislation on guaranteeing the right to privacy of residence in the implementation of this investigative action. Also, based on this scientific research, reasonable conclusions were made regarding the specific aspects of conducting a search in different places, including issues related to the rights and guarantees of diplomatic missions and their employees who have diplomatic immunity when a search is conducted in the territory of a diplomatic mission.

Keywords: search, seizure, investigator, parties, search report.

Kirish

Tintuv ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ashyolar va hujjatlarni qidirib topish va olib qo'yish, shuningdek, qidirilayotgan shaxslar va murdalarni izlab topish maqsadida bino, inshoot, transport, joy hududi yoki ayrim fuqarolarni majburiy tekshirishdan iborat bo'lgan tergov harakati hisoblanadi. Tintuv har doim nomuayyan xususiyatga ega bo'la-

di, ya'ni aynan qaysi narsalar va hujjatlar topilishi va olib qo'yilishi u boshlangunga qadar aniq bo'lmaydi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu jarayon mavzuning dolzarb ekanligini anglatadi. Sababi bu eng og'ir va sarmashaqqat tergov harakatlaridan biri bo'lib, uni o'tkazish tergovchidan ko'p mehnat va keng bilim, yetarlicha tajriba hamda mazkur ishni jinoyat-protsessual qonun-

chilik normalariga muvofiq tashkil etish va o'tkazish uchun tegishli qobiliyatlar talab qiladi.

Tintuv o'tkazishda tergovchining faoliyati shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratiladi. U tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tegishli huquq va majburiyatlarga ega hamda ularga muvofiq harakat qiladi. Mazkur faoliyat shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash uchun zarur.

Tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlarini ta'minlashda tergovchining protsessual mustaqilligi katta rol o'ynaydi. Tergovchi tintuv va olib qo'yishning asosiy subyekti hisoblanadi, binobarin, u shaxsning mazkur huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi asosiy subyekt sifatida ham maydonga chiqadi. Tergovchi – davlat vakili bo'lib, u tergov o'tkazish jarayonida qonunga qat'iy muvofiq ravishda harakat qilishi lozim. Tergov o'tkazishda ayblanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga og'ishmay rioya qilish uning burchidir.

Maqolaning asosiy maqsadi tintuv tushunchasi va uni o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlarini aniq yoritish, uni batafsil ochib berishdan iborat. Ushbu mavzuni tahlil qilish hamda yoritishda boshqa mualliflar va olimlarning ham fikrlari atroflicha o'rganib chiqildi. Ko'plab mualliflar tomonidan berilgan tintuvning tergov harakati sifatidagi ta'riflari umumiy mohiyatga ega bo'lsa-da, ularda farqli jihatlarni kuzatish mumkin. G'.Abdumajidov ta'kidlaganidek, "Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda, tintuv o'tkazishga haqlidir" [1, 16-b.]. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida esa tintuv va olib qo'yishga JPK normalari maz-

munidan kelib chiqqan holda ta'rif beriladi [2, 347–348-b.].

Material va metodlar

Ilmiy izlanish va adabiyotlardan ma'lumki, har bir mavzu, ya'ni ilmiy yondashuv metodlari mualliflar yondashuvlari asosida alohida tasniflanadi. Ushbu mavzu, ya'ni tintuv tushunchasi va uni o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlar mavzusi bir qator materiallar va metodlardan foydalangan holda yoritildi. Jumladan, mavzuni ifodalashda qonunchilik normalari, boshqa mualliflarning fikrlari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga murojaat etildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "protsess ishtirokchilari" tushunchasi keng ma'noda talqin qilingan va mazkur tushunchaga jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar kiritilishi belgilangan.

Tintuv – mazmuni daliliy va yo'naltiruvchi ma'lumotlar manbalari (jinoyat qurollari, jinoyat yo'li bilan topilgan yoki ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, qimmatli va boshqa ashyolar), shuningdek, qidirilayotgan shaxslar va murdalar yoki ularning qayerda joylashganligi haqidagi ma'lumotlarni topish va olish maqsadida turar joylar, yer maydonlari, muayyan shaxslar va ularning narsa va buyumlarini majburiy tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va klassifikatsiyasiga doir masala ham munozaralidir. Maxsus adabiyotlar va 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasiga jinoyat ishida o'z huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar kiritilgan. Bu borada boshqa olimlar ham o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, V.V. Mozyakovaning ta'kidlashicha, olib

qo'yish – jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan qo'llanadigan chora hisoblanadi.

Tintuv doimo majburlov xarakteriga ega bo'lgan tergov harakati bo'lib, uning vazifalari jinoyat ishiga daxldor bo'lgan narsa va hujjatlar, tirik shaxslar va murdalar, jinoyat yo'li bilan topilgan pullar va boshqa qimmatliklarni binolardan yoki ularni yashirgan deb taxmin qilingan shaxslarga tegishli joylardan qidirib topish va olingan natijalarni bayonnomada qayd etishdan iboratdir [3, 259-b.]. R.S. Belkin esa tintuv tushunchasiga boshqacha yondashgan. Uning fikriga ko'ra, tintuv ish bo'yicha haqiqatni o'rnatish uchun ahamiyatli bo'lgan obyektlar, jinoyat qurollari, jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklar, shuningdek, ish uchun ahamiyatli boshqa narsa va hujjatlarni topishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir. U yashiringan shaxslar va murdalarni topish uchun ham o'tkazilishi mumkin [4, 47-b.].

A.R. Ratinov tomonidan berilgan ta'rif umum e'tirof etilgan bo'lib, unga ko'ra, tintuv mohiyati – bu yashiringan shaxslar, shuningdek, ish uchun ahamiyatli narsalarni topish va olib qo'yish maqsadida turar joylar, binolar, yer maydonlari va alohida shaxslarni majburiy kuzatishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir [5, 7-b.]. Tintuv va olib qo'yish shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq harakat bo'lganligi uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (ayniqsa, jinoyat-qidiruv xodimlari) qonun talablari asosida harakat qilishlari kerak [6, 38-b.].

Ayrim manbalarda yuqorida keltirilgan ikki ta'rifning uyg'unlashgan mazmundagi izohlarini ham kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, V.A. Obrazsov va I.F. Panteleyevlar "Tintuv – jinoyat qurollari, jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklar, shuningdek, tergov qilinayotgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli

bo'lgan boshqa narsa va hujjatlarni topish hamda olish maqsadida turar joylar, binolar va boshqa obyektlar, shuningdek, alohida fuqarolarni majburiy tekshirishda ifodaladigan tergov harakatidir", degan ta'rifni berishgan [7, 331-b.]. Shaxsni tintuv qilishda uning buyumlari (sumka, jomadonlari) va kiyimlari ham nazarda tutilganligi bois yuqorida keltirilgan tintuv qilinadigan obyektlar doirasining kengaytirilgan hollarini kuza-tish mumkin. Mazkur holat A.A. Zakatov va S.G. Lyubimchevlar tomonidan berilgan quyidagi ta'rifda o'z ifodasini topgan: "Tintuv – ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, shuningdek, yashiringan shaxslar va murdalarni topish hamda olish maqsadida turar joylar, yer maydonlari, transport vositalari, fuqarolar yoki ularning kiyimlarini majburiy tartibda tekshirishdan iborat bo'ladigan tergov harakatidir" [8, 269-b.]. G'.Shodiyev ta'biri bilan aytganda, "tintuv o'tkazish jarayonida yuqorida qayd etilgan kamchiliklar yuzasidan jinoyat-protsessual qonunchilikka o'z vaqtida o'zgartirish va ko'shimchalar kiritilsa, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatlanishiga imkon yaratiladi" [9, 120–121-b.].

Bir qarashda yuqorida keltirilgan ta'riflar tintuv tergov harakatining asosiy belgilarini yoritib berganga o'xshasa-da, qidiriladigan obyektlar doirasi yetarlicha ko'rsatib berilmagan. Tergov amaliyotida ko'p hollarda tintuv tergov harakati narkotik moddalarni topish maqsadida ham o'tkaziladi. Bunday moddalarni topish va olib qo'yish ushlar vaqtida shaxsiy tintuv, turar joy va hududlarda tintuv o'tkazish bilan amalga oshirilishi mumkin. G'.Shodiyev bu haqda shunday yozadi: "Tintuv olib qo'yishdan o'z maqsadi va o'tkazish tartibiga ko'ra farqlanadi: 1) tintuvda qanday obyektlar qidirilayotganligi, ular qayerdaligi noma'lum bo'lsa, olib qo'yishda predmetning individual belgilari, uning qayerda (kimda) ekanligi ma'lum bo'ladi; 2) olib qo'yishni o'tkazish uchun (faktik) asos sifatida faqat dalillar tan olinsa, tintuvda hatto tezkor-qidiruv tadbirlari davomida

olingan ma'lumotlar ham asos bo'lishi mumkin; 3) olib qo'yishda qidiruv harakatlari manqilinadi, tintuvda esa aynan ular ko'zda tutiladi" [10].

Yuqorida aytib o'tilgan ta'riflardan kelib chiqib, tintuv tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin: "Tintuv – mazmuni daliliy va yo'naltiruvchi ma'lumotlar manbalari (jinoyat qurollari, jinoyat yo'li bilan topilgan yoki ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, qimmatli va boshqa ashyolar), shuningdek, qidirilayotgan shaxslar va murdalar yoki ularning qayerda joylashganligi haqidagi ma'lumotlarni topish va olish maqsadida turar joylar, yer maydonlari, muayyan shaxslar va ularning narsa va buyumlarini majburiy tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir".

Shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari-ga rioya qilish talablari tintuv o'tkazish bilan bog'liq har bir holatda o'z-o'zidan qo'llanishi mumkin emas, chunki ularni qo'llashga yuzaki yondashish oxir-oqibat aks samara beradi, ya'ni qonuniylikning buzilishiga olib keladi. Shu bois bunga yo'l qo'ymaslik uchun tergovchilarga tintuv o'tkazishni tartibga soluvchi huquqiy normalar qo'llashga ijodiy yondashish imkoniyati yaratilishi lozim. Mazkur imkoniyat "tergovchining protsessual mustaqilligi" deb ataladigan huquqiy institut yordamida ta'minlanadi. Bu institut tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlashning muhim kafolatidir.

Tergovchining protsessual mustaqilligi jinoyat-protsessual huquqi normalari guruhi bilan tartibga solinadi. Bu normalar dastlabki tergovni yuritish va tintuv o'tkazishda tergovchining lozim darajada mustaqilligini himoya qiladi, unga ko'pgina masalalar bo'yicha o'z fikriga ko'ra harakat qilish imkonini beradi. Ular tergovchiga tintuv o'tkazishda o'z funksiyalarini mustaqil bajarish, tintuvning barcha jihatlarini, shu jumladan, tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilish masalasi yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Tergovchiga tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga taalluqli bo'lgan masalalarni mustaqil hal qilish bo'yicha keng vakolatlar berilgan. U mazkur tergov harakatini o'tkazish to'g'risidagi qarorlarning barchasini mustaqil qabul qiladi, uning qarorlari prokuror tomonidan tasdiqlangan yoki sud qarorini talab qilgan holdar bundan mustasno. Bunda u o'z harakatlari va qarorlari uchun to'liq javobgar bo'ladi.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlash tergovchi uchun asosiy va yetakchi funktsiya hisoblanadimi? Bu savolga faqat bitta javob bo'lishi mumkin: tintuv o'tkazayotgan tergovchi uni shunday o'tkazishi lozimki, bunda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'yilmasin. Tergovchi tintuv yoki olib qo'yish o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlashi shart. Uning bu vazifalari ahamiyati shu bilan belgilanadiki, fuqaroprotsessual huquqni amalga oshirish yo'li bilan intilayotgan maqsadga erishish ayni holda ko'rsatilgan tergov funksiyalarini bajaruvchi tergovchining tegishli harakati orqali amalga oshiriladi. Faqat shu mansabdor shaxs o'z vakolatlari doirasida mazkur tergov funksiyalarining mohiyati bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega.

Tergovchining aytib o'tilgan vazifalari shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari bilan bevosita bog'liq. Bu aloqa sxemasi quyidagi ko'rinishga ega: shaxs huquqi – tergovchining majburiyati. Shaxsning har bir huquqi bilan tergovchining uni ta'minlashga qaratilgan majburiyati mos keladi.

Shaxs huquqlarini qo'riqlash – jinoyatni nima qilib bo'lmasin, qonunga xilof yo'llar bilan qo'lga kiritilgan dalillar yordamida bo'lsa ham fosh qilishga intilishdan yuksakroq ijtimoiy qadriyat. Qonunni buzish yo'li bilan olingan dalillar yuridik kuchga ega emas, deb e'tirof etiladi va ulardan ayblov uchun asos sifatida foydalanish mumkin emas. Sud dastlabki tinglash natijasida qonunni buzish yo'li

bilan olingan yoki boshqa asoslarga ko'ra maqbul bo'lmagan dalillarni ish muhokamasidan chiqarish huquqiga ega. Ishni ko'rib chiqish paytida tomonlar dastlabki tinglashda sud tomonidan ish muhokamasidan chiqarib tashlangan dalillarga tayanishlari mumkin emas.

JPKning 22-moddasi tergovchidan ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqish, ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchi yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek, uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlarni aniqlash va hisobga olishni talab qiladi.

Bu talab barcha tergov harakatlari, ayniqsa, maqsadi yashirib qo'yilgan narsalar va hujjatlar, shu jumladan, jinoyat qurollarini izlab topishdan iborat bo'lgan tergov harakati – tintuvga tegishli. Tintuv qidirilayotgan shaxs, shuningdek, murdani topish uchun ham o'tkazilishi mumkin. Aksariyat hollarda kerakli dalillarni tintuvsiz olish mumkin emas.

Tintuv o'tkazishda tergovchining mustaqilligi fuqarolarning turar joy daxlsizligiga bo'lgan huquqini so'zsiz va har tomonlama ta'minlashiga erishish, ayniqsa, muhimdir. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu shaxsning barcha davlatlar tomonidan e'tirof etilgan va kafolatlanadigan asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida quyidagi qoida mustahkamlangan: "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega" [11, 33-b.]. Shunga o'xshash norma Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida (17-modda), 1950-yil 4-noyabrda qabul

qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida (8-modda) ham bor. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida turar joy daxlsizligiga bo'lgan huquq konstitutsiyaviy huquqlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida quyidagi qoida mustahkamlangan: "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega". Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirish, shuningdek, unda olib qo'yish va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

Uy-joyda tintuv faqat qonunga muvofiq va sud qaroriga asosan o'tkaziladi.

Qonun hujjatlarida mustahkamlangan qoidalarga muvofiq, "uy-joy deganda, kishilarning doimiy yoki vaqtinchalik turishiga mo'ljallangan (shaxsiy uy, xonadon, mehmonxonadagi, sanatoriyadagi xona, dala hovli, bog' hovli va boshqalar), bino, shuningdek, uning tarkibiga kiruvchi dam olish uchun, mulkni saqlash uchun yoxud insonning boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun (balkonlar, oynaband ayvonlar, omborlar va boshqalar) tushuniladi".

"Turar joy" ("uy-joy") tushunchasining mazmuni bilan turar joy xonalari, umumiy foydalaniladigan joylar (dahliz, vannaxona, hojatxona, balkon, oynaband ayvon), yer-to'la, chordoq, oshxona, qo'shimcha xonalar, hovlida qurilgan xo'jalik ahamiyatiga molik imoratlar, mehmonxona, sanatoriy, dam olish uyidagi xonalar, shifoxonadagi alohida palata, chodir, dala-hovli yoki bog'-hovlidagi uylar qamrab olinadi. Huquqiy nuqtayi nazardan turar joyga xususiy mulk tarkibiga kiradigan yoki fuqarolar tomonidan egalik qilinayotgan yoki ular foydalanayotgan transport vositalari: qayerda turganidan qat'i nazar, shaxsiy garajlar, poyezddagi alohida kupe yoki kemadagi alohida kayuta ham tenglashtiriladi.

Uyga tutashadigan va atrofdagi hududdan aniq ajratilgan yer uchastkalari ham turar joy rejimiga ega bo'ladi. "Turar joy" tushunchasining mazmuniga yashash uchun vaqtinchalik moslashtirilgan xizmat xonalari ham mos keladi. Keng mazmunli turar joy tushunchasi fuqarolarning huquqlarini, ayniqsa, to'liq ta'minlaydi, chunki qonunga muvofiq, turar joyga kirishga faqat istisno tariqasida va maxsus qoidalar (kafolatlar)ga rioya etgan holda yo'l qo'yiladi.

M.A. Peshkov tintuvga tatbiqan turar joy deganda, tintuv qilinayotgan shaxs egallagan turar joy xonalarinigina emas, balki umumiy foydalaniladigan joylar (dahliz, oshxona, vannaxona, hojatxona, balkon)ni; yerto'la va chordoq, oynaband ayvonni; qo'shimcha imoratlarni; hovlida qurilgan xo'jalik ahamiyatiga molik imoratlarni; mehmonxona, sanatoriy, dam olish uyi, umumiy yotoqxonadagi tintuv qilinayotgan shaxs egallagan xonalarni; kvartirada mehmon yoki boshqa shaxs vaqtinchalik yashashi uchun ajratilgan xonani; chodirni ham tushunish o'rinli bo'ladi, deb hisoblaydi [12, 100-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Bizning fikrimizcha, JPKda turar joy deganda, nainki doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun mo'ljallangan joy, balki u bilan bog'liq bo'lgan imoratlar: qayerda joylashganidan qat'i nazar, shaxsiy garajlar, tintuv qilinayotgan shaxs poyezd yoki kemada egalagan kupe yoki kayutalarni tushunish lozimligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan tashqari, turar joyga AQShdagi singari avtotransport vositalari va turar joyga tutash bo'lgan, boshqa joydan aniq ajratilgan yer uchastkalari ham kiritilsa, bizningcha, ayni muddao bo'ladi. Turar joy tushunchasini aynan shunday keng talqin qilish shaxs manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlaridan ustun qo'ygan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmunidan kelib chiqadi.

1. Tintuv faqat jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin o'tkaziladi. Bungacha tintuv o'tka-

zishga yo'l qo'yilmaydi. Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar tintuv o'tkazish olingan ma'lumotlarning daliliy ahamiyati yo'qolishiga sabab bo'ladigan qonunbuzarlik sifatida ko'rila-di.

2. Tintuv surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qaroriga binoan, prokurorning sanksiyasi bilan o'tkaziladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tintuv prokurorning sanksiyasiz o'tkazilishi mumkin, lekin bunday holda keyinchalik shu o'tkazilgan tintuv haqida yigirma to'rt soat ichida prokurorga xabar qilinadi. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar surishtiruvchi yoki tergovchining prokurorga yuborgan xabarnomasida asoslantirilishi lozim. Tintuv o'tkazish to'g'risidagi qarorni asoslantirish uchun tergovchi faktik ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim [14, 295-b.].

3. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar qatoriga ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar va hujjatlar yashirilishi yoki yo'q qilib tashlanishi ehtimoli borligiga ishora qiladigan yetarli ma'lumotlarning mavjudligini kiritish o'rinli bo'ladi [13, 14-b.].

Tintuv tergovchining qarorisiz o'tkazilishi mumkin emas. Bunday qarorsiz o'tkazilgan tintuv tintuv qilinayotgan shaxsga nisbatan qonunsizlik va o'zboshimchalikni anglatadi. Tintuv o'tkazish to'g'risidagi qaror yoki ajrimda bu harakatlar qayerda va kimnikida o'tkazilishi zarurligi, qaysi narsa yoki hujjatlarning qidirib topilishi va olib qo'yilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Mazkur hujjatda tintuv o'tkazish taktikasini oshkor qiladigan ma'lumotlar ifodalanishi mumkin emas.

Tergovchi surishtiruv organi o'tkazayotgan tintuvni o'z ish yurituviga olish huquqiga ega. Ish tergovchiga topshirilganidan so'ng surishtiruv organi mazkur tergov harakatini faqat tergovchining topshirig'iga binoan o'tkazishi mumkin. Mazkur tartib tintuv o'tkazish darajasini oshiradi, uning ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarini yaxshiroq ta'minlaydi.

Tintuv o'tkazishda tergovchining protsessual mustaqilligi va uning tintuv qilinayotgan shaxs huquqlarini ta'minlash uchun samaradorligi mazkur tergov harakatining barcha bosqichlari va uni o'tkazish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda namoyon bo'ladi. Tintuv o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va mazkur tergov harakatini qayerda va kimnikida o'tkazish, qaysi narsa yoki hujjatlarni qidrib topish zarurligini hal qilishda tergovchining ayrim mustaqil harakatlarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Tintuvga puxta tayyorgarlik ko'rish uni samarali o'tkazishning muhim omilidir. Tintuvga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tergovchi tintuvni boshlash, uni o'tkazishning rejali usuli, o'z harakatlari va tintuvning boshqa ishtirokchilari harakatlarining aniqligi, izchilligi va samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ko'p sonli masalalarni mustaqil ravishda hal qiladi. U tintuv o'tkaziladigan obyektidagi vaziyat va tintuv qilinayotgan shaxsning shaxsini oldindan o'rganadi; tintuv vaqtini tanlaydi; mazkur harakatda mutaxassis, tarjimon, himoyachi, xolislar va boshqa ishtirokchilarning qatnashishi masalasi, ularni tintuv o'tkaziladigan joyga yetkazish tartibini ko'rib chiqadi; jamoat tartibini saqlash va ta'minlash uchun (zarur holda) choralar ko'radi; zaruriy texnika vositalari va boshqa materiallarni tayyorlaydi; tergov organi bilan aloqa qilish usullarini o'rganadi; tintuv o'tkazishning asosiy taktik usullarini belgilaydi. Bunda u barcha tergov harakatlarini o'tkazishda tintuv qilinayotgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitish hollariga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi masalani puxta ishlab chiqadi. U bunday hol-lar yuz berishi ehtimolini istisno etish uchun mazkur tayyorgarlik ishini amalga oshirishi lozim.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tergovchi tintuvni xolislar va boshqa shaxslar ishtirokida o'tkazadi. Xolislar sifatida u shunday shaxslarni taklif qilishi kerakki, tintuvda ularning ishtiroki biron-bir ma'lumotlar osh-

kor etilishiga olib kelmasin. Xolislar sifatida tintuv qilinayotgan shaxsni tanimaydigan va u bilan qo'shni xonadonlarda yashamaydigan fuqarolar taklif qilinsa, ayni muddao bo'ladi.

Tintuv o'tkaziladigan joyga kelgach, tergovchi xonalar, imoratlar yoki joy hududini qo'riqlash va jamoat tartibini saqlashni tashkil etish to'g'risida ko'rsatma beradi. Xolislar ko'z o'ngida tintuv qilinayotgan shaxsga yoki uning voyaga yetgan oila a'zosiga tintuv o'tkazish to'g'risida qaror yoki ajrimni ko'rsatadi (tintuv qilinayotgan shaxsning ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yoki hujjatlar tashlab qo'yilgani haqidagi tusmolini istisno etish uchun xonaga militsiya xodimlari xolis-siz kirishiga yo'l qo'ymaslik kerak). Agar bu talabni tergovchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bajarishning imkoni bo'lmasa, uy-joydan foydalanish tashkiloti yoki mahalliy boshqaruv organlarining vakillari taklif etiladi.

Tintuvni boshlashdan oldin tergovchi obyektida turgan barcha shaxslar, shuningdek, taklif qilingan ishtirokchilar (xolislar, mutaxassislar va h.k.)ni bir yerga to'playdi, ularning jinoyat-protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Shundan so'ng tergovchi tintuv qilinayotgan shaxsga jinoyat qurollari, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan buyumlar, boyliklar va hujjatlar, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa narsalar va hujjatlarni ixtiyoriy ravishda berishni taklif qilishi shart. Agar ular ixtiyoriy ravishda berilgan va ularning biron-bir qismi yashirib qo'yilgan deb shubha qilish uchun asoslar yo'q bo'lsa, tergovchi ixtiyoriy ravishda berilgan narsalar yoki hujjatlarni olib qo'yish bilan kifoyalanish va keyingi tintuvni amalga oshirmaslikka haqlidir. Taklif rad etilgan yoki qidirilayotgan obyektlar to'liq berilmagan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, tergovchi tintuv o'tkazishga kirishishi mumkin. Bunday hol-larda tergovchi tomonidan qabul qilinadigan qarorning to'g'riligi, odatda, tintuv uchun

asos bo'lib xizmat qilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga bog'liq bo'ladi.

Tergovchi tintuv o'tkazilayotgan bino yoki o'zga joyda turgan shaxslarning tintuv tamom bo'lgunga qadar shu bino yoki joydan chiqib ketishi, shuningdek, ularning bir-birlari yoki boshqa shaxslar bilan gaplashishini taqiqlab qo'yishga haqlidir. Tergovchi tintuv o'tkazilayotgan bino yoki o'zga joyda turgan biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda, mazkur shaxsga nisbatan shaxsiy tintuv o'tkazishi, shuningdek, tintuv paytida kelgan shaxslarni ham tintib ko'rishi mumkin. Boshqa shaxslar tintuv tugallangunga qadar ushlaniishi mumkin.

Kompyuter axborotini olib qo'yishda tintuv o'tkazish muayyan xususiyatga ega. Ko'p miqdordagi axborot tashuvchisi hisoblangan kompyuter jinoyatni ochish uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Uy egasi yoki EHM operatori tintuv paytida kompyuter yoki klaviaturaga yaqinlashtirilishi mumkin emas (hatto tintuv qilinayotgan shaxs qidirilayotgan axborotni ixtiyoriy ravishda topshirishga rozilik bergan bo'lsa ham). EHMda bu ishni taklif qilingan mutaxassis bajarishi lozim. Tintuv qilinayotgan shaxsning kompyuter yoki klaviatura bilan biron-bir manipulyatsiyalarni amalga oshirish (shu jumladan, kompyuterni o'chirish va yoqish) borasidagi barcha urinishlariga EHM axborotini yo'q qilib tashlashga urinish sifatida qaralishi lozim va bu bayonnomada aks ettirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi [14, 207-b.].

Tergovchining protsessual mustaqilligi tintuv qilinayotgan shaxsning huquqlarini tintuv usullarini tanlash bilan bog'liq vazifani hal qilishni ta'minlash uchun ham imkoniyat yaratadi. Tintuv o'tkazishning yuzlab usullari mavjud va tergovchi har bir holda, tintuv obyekti to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqib, uni o'tkazishning muayyan usullarini tanlaydi. Bunda u tintuv qilinayotgan shaxs-

ning qonuniy huquqlarini kamsitmaydigan sharoitlar yaratishga ham harakat qiladi.

Bu yerda tintuv o'tkazish vaqtini to'g'ri tanlash shaxs huquqlari kafolatlarining muhim elementidir. Umumiy qoidaga ko'ra, tintuv kunduzi o'tkaziladi. Faqat kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tintuvni tunda o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Aksariyat tergovchilar imkoniyatga qarab tintuvni tintuv qilinayotgan shaxs uchun kutilmagan vaqtda o'tkazish taktikasini tanlaydi. Ular tintuvni uning maqsad va vazifalariga erishish uchun, ayniqsa, qulay bo'lgan vaqtda o'tkazishga harakat qiladilar.

Tintuv jarayonida ba'zan berk binolar yoki xonalarni ochish talab etilishi mumkin. Tergovchi avval tintuv qilinayotgan shaxsga ularni ixtiyoriy ravishda ochishni taklif qilishi lozim. Agar u bunday qilishdan bosh tortgan bo'lsa, tergovchining o'zi ularni ochishga haqlidir. Bunda zarurat bo'lmaganda, qulflar, eshiklar va boshqa narsalarning shikastlantirilishiga yo'l qo'yilmasligi hamda uydagi saranjomlik buzilmasligi lozim.

Tintuv o'tkazishda texnik-kriminalistik vositalar, kriminalistika taktikasi faol qo'llanadi. Texnik vositalar qatoriga ko'chma rentgen apparatlari, shchuplar, metall qidirgichlar, magnitli qidirgichlar, yer ostida biologik to'qimalarni qidirib topish uchun mo'ljallangan asboblardan kabi ko'plab vositalar kiradi. Bundan tashqari, zarur hollarda fotosuratga olish, kino yoki videotasvirga tushirish amalga oshiriladi. Bu vositalarning barchasi tergovchini dalillar bilan ta'minlaydi va uning harakatlari samaradorligini oshiradi.

Tezkor-tergov guruhi bilan tintuv o'tkazishda (tintuvning samaradorligini oshirish maqsadida) xolislar soni yetarlicha bo'lishini ta'minlash zarur. Bu sudda xolislar guvohlar sifatida so'roq qilinishi mumkinligi bilan bog'liq. Ular mazkur predmet shu joyda olib qo'yilganini tasdiqlashi lozim. Bunda JPK 160-moddasining talabi hisobga olinishi kerak (tintuv qilinayotganlarga, xolislariga, mu-

taxassislarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlarning vakillariga tintuv yoki olib qo'yish o'tkazilishidan avval ularning surishtiruvchi yoki tergovchining barcha harakatlari chog'ida hozir bo'lish hamda ana shu harakatlar xususida arz qilish huquqlari tushuntirilishi kerak, bunday arz bayonnomaga kiritilishi shart).

Tintuvda topilgan narsa va hujjatlarining hammasi xolislariga, tintuv o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarga ko'rsatiladi, bayonnomada to'liq aks ettiriladi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralib, muhrlanadi. O'ralgan va muhrlangan narsa va hujjatlarni keyingi tergov davomida ochishga faqat xolislar ishtirokida yo'l qo'yiladi.

Kezi kelganda yana shuni ham qayd etib o'tish lozimki, tergovchi tintuv qilinayotgan bino yoki xonani egallagan shaxslar yoki boshqa odamlar shaxsiy hayotining tintuvda aniqlangan tafsilotlari oshkor qilinmasligi uchun zarur choralarni ko'rishi lozim. Xususan, u tintuv paytida mazkur jinoyatga aloqador bo'lmagan ushbu shaxslarning intim hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar ifodalangan hujjatlar va narsalarni topgan bo'lsa, u xolislar va boshqa ishtirok etuvchi shaxslarni ular bilan tanishtirishi mumkin emas. Biroq agar ular daliliy ahamiyatga ega bo'lsa, tergovchi ularni xolislar va boshqa ishtirok etuvchi shaxslarga mazkur ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ularni ogohlantirgan holda ko'rsatadi.

Tintuv diplomatiya vakolatxonasi hududida o'tkazilayotganda, diplomatiya vakolatxonalari va ularning diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan xodimlari, shuningdek, ularning oila a'zolari egallab turgan binolarda faqat diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ining iltimosiga ko'ra yoki uning roziligi bilan; diplomatiya vakolatxonasi xodimlari yoki ularning voyaga yetgan oila a'zolarining istiqomat joylarida yoxud ular egallab turgan boshqa binolarda tintuv ularning iltimoslariga ko'ra yoki roziliklari bilan o'tkazilishi mumkin. Ko'rsatilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasida

akkreditatsiya qilinmagan bo'lsa-da, diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan ajnabiy vakillar va ularning oila a'zolariga ham beriladi. Diplomatiya vakili yoki uning oila a'zolarining olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishga roziligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali so'raladi. Diplomatiya vakolatxonalari va diplomatiya daxlsizligidan foydalanadigan vakillar, shuningdek, ularning oila a'zolari joylashgan binolarda tintuv o'tkazish chog'ida prokuror va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining vakili hozir bo'lishi shart.

Tergovchi tintuv o'tkazilgani to'g'risida bayonnomada tuzadi. Bayonnomada narsa va hujjatlarning aynan qayerda va qanday sharoitda topilganligi, ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki majburiy ravishda olinganligi ko'rsatilishi lozim. Barcha olingan narsa va hujjatlar bayonnomada birma-bir qayd qilinib, ularning miqdori, o'lchovi, og'irligi, har qaysisining o'ziga xos belgilari ko'rsatilishi, zarurat bo'lganda o'ralishi va muhrlanishi lozim. Tintuv vaqtida izlanayotgan narsa va hujjatlarni yo'q qilish yoki yashirishga urinish hollari sodir bo'lgan taqdirda, bu hol surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ko'rilgan choralar ham ko'rsatilib, bayonnomada aks ettirilishi lozim.

Xulosalar

Mazkur mavzuni yoritishda ko'plab adabiyotlar va olimlarning fikrlari o'rganildi. Ularning ilmiy izlanishlarini tahlil qilgan holda, o'z yondashuvimiz bo'yicha metodlar asosida mavzuni yoritishga harakat qildik. Izlanishlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarimizni keltirib o'tishni joiz deb topdik. Tintuv o'tkazilayotgan shaxsning protsessual majburiyatlarini tahlil etishda bizda qator savollar paydo bo'ldi. Jumladan, tintuv o'tkazilayotgan shaxs qidirilayotgan mulk yoki ashyoni berishga majburmi va tergovchi talabini bajarishdan bosh tortganligi uchun unga nisbatan qandaydir choralar qo'llash mumkinmi?

Yuqorida ta'kidlanganidek, tintuv majburiy xarakterga ega va odatda, ayblovga

doir dalillar to'plashga qaratilgan. Ya'ni tintuvning maqsadlaridan biri shaxsning jinoyat sodir qilganini fosh etish hisoblanadi. Buni amalga oshirish esa protsessual majburlashni qo'llash imkoniyati bilan ta'minlanadi. Biroq bunday majburlash qandaydir huquqbuzarlik uchun jazo chorasi hisoblanmaydi, balki qidiruv tadbirlarini ta'minlash hamda tintuv maqsadiga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, mazkur dolzarb masalani yechishda aybsizlik prezumpsiyasidan ham kelib chiqish lozim. Uning mazmuniga ko'ra, gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) o'z aybsizligini isbot qilishga majbur emas. Shuning uchun shaxsga ularni fosh qiluvchi ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini yuklashga yo'l qo'yilmaydi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi hamda JPKning 23-moddasiga zid bo'lib, jumladan, unda shunday deb belgilab qo'yilgan: "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas".

Shuningdek, amaldagi qonunchilikda hech kim o'ziga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilangan.

Nazarimizda, ko'rib chiqilayotgan vaziyatda "guvohlik berish" tushunchasi so'zma-so'z talqin etilmasligi kerak. O'ziga qarshi ko'rsatma berishdan bosh tortish imkoniyati bilan birga u o'zini o'zi ayblashga qarshi boshqa kafolatlar, jumladan, ayblov dalillarini yig'ishga xizmat qilmaslik, shuningdek, shaxsni jinoyat sodir etishda fosh qiluvchi ashyolarni taqdim etishdan bosh tortish huquqini o'z ichiga olishi lozim.

Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olgan holda, o'zida yoki uyida tintuv o'tkazilayotgan shaxsga ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar taqdim etish bilan bog'liq majburiyat yuklatilishi mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin. Bizning nazdimizda, tergovchi taklifiga ko'ra qidirilayotgan ashyolarni berish tintuv o'tkazilayotgan shaxsning xohishi yoki xohlamasligiga bog'liq bo'lib, bu uning ixtiyoriga ko'ra amalga oshirilishi zarur.

REFERENCES

1. Abdumazhidov G. Problemy sovershenstvovaniya predvaritel'nogo rassledovaniya [Problems of improving the preliminary investigation]. Tashkent, Science Publ., 1975, p. 16.
2. Mukhitdinov R.A. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Ed. N. Toychiyev. Tashkent, Adolat Publ., 2010, pp. 347–348.
3. Kommentariy k Ugolovno-protsessual'nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation]. Ed. V.V. Mozyakov. Moscow, 2002, p. 259.
4. Belkin R.S. Kriminalistika [Forensics]. Concise encyclopedia. Moscow, Bolshaya Russkaya Entsiklopediya Publ., 1993, p. 47.
5. Ratinov A.R. Obysk i vyemka [Search and seizure]. Moscow, 1961, p. 7.
6. Mosolkova Yu.A. Okhrana prav i zakonnykh interesov lichnosti [Protection of the rights and legitimate interests of the individual]. Yaroslavl, 1984, p. 58.
7. Kriminalistika [Criminology]. Ed. V.A. Obraztsov. Moscow, Yurist Publ., 1995, p. 331.
8. Kriminalistika [Criminology]. Eds. A.G. Fillipova, A.F. Volinsky. Moscow, Spark Publ., 1998, p. 269.
9. Shodiyev G'. Tintuv o'tkazishda shaxs huquq va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari [Procedural guarantees of a person's rights and legal interests during a search]. *TDYI Axborotnomasi – TSIL Bulletin*, 2009, no. 3, pp. 120–121.
10. Shodiyev G'. Sudgacha ish yuritish bosqichida sud nazorati tushunchasi va mazmuni [The concept and content of judicial control at the stage of pre-trial proceedings]. *TDYI Axborotnomasi – TSIL Bulletin*, 2009, no. 1.

11. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar [International agreements on human rights]. Tashkent, 2004, p. 33.

13. Peshkov M.A. Arest i obysk v ugolovnom protsesse SShA [Arrest and search in USA criminal proceedings]. Moscow, 1998, p. 100.

14. Ugolovniy protsess [Criminal procedure]. Ed. V.P. Bozheva. Moscow, 1998, p. 295.

15. Gridchin A.A. Obespecheniye dopustimosti dokazatel'stv na predvaritel'nom sledstvii [Ensuring the admissibility of evidence during the preliminary investigation]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1999, p. 14.

16. Shurukhnov N.G. Aktual'nyye problemy sovershenstvovaniya deyatel'nosti organov vnutrennikh del v novykh ekonomicheskikh i sotsial'nykh usloviyakh [Current problems of improving the activities of internal affairs bodies in new economic and social conditions]. Moscow, 1997, p. 207.

17. Ryzhakov A.P. Sledstvennyye deystviya [Investigative actions]. Moscow, 1997, p. 38.

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./KHXI4296
UDC: 34:654.197(045)(575.1)

COVID-19 PANDEMIYASI DAVRIDA TIBBIYOT SOHASIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Yusupova Faringiz O'ktam qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8202-2160
e-mail: Faringiz002@gmail.com

Annotatsiya. Sog'liqni saqlash sohasiga axborot telekommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi tibbiy xizmatlarga talab keskin o'sishi va sog'liqni saqlash tizimining jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi. 2020-yil boshida mamlakatimiz va butun dunyoda Covid-19 pandemiyasining tarqalishi normal hayot tarziga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, bu paytda dunyo aholisi odatiy turmush tarzini o'zgartirishga, ya'ni o'zini izolyatsiya qilish va uyda qolishga majbur bo'ldi. Bu esa insonlar faolligini kamaytirib, o'zaro aloqalar va muloqotni minimallashtirdi. Pandemiya tarqalishi bilan butun dunyo teletibbiyot xizmatlarini rivojlantirish qanchalik muhim va zarur ekanligi yaqqol yuzaga chiqdi. Mazkur maqolada Covid-19 pandemiyasi davrida teletibbiyot va teletibbiy xizmatlardan foydalanishda davlatlar amaliyoti tahlil qilindi va qanday qonunlar bilan tartibga solingani o'rganildi, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasida Covid-19 pandemiyasi davrida raqamlashtirish, pandemiya davridagi ijobiy va salbiy jihatlari, litsenziyalash va uning tuzilish jarayoni, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan berilgan statistik ma'lumotlar, ushbu xizmatlar uchun shifokorlarga haq to'lash, bemorlarning teletibbiy xizmatlardan foydalanish tartibi va teletibbiy xizmatlarning yo'nalishlari atroflicha ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Covid-19 pandemiyasi, teletibbiyot, teletibbiy xizmatlar, raqamli texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli transformatsiya, telesalomatlik.

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕДИЦИНСКОЙ СФЕРЕ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ COVID-19

Юсупова Фарингиз Уктам кизи,
преподаватель кафедры «Международное право и права человека»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. С момента внедрения информационных и телекоммуникационных технологий в сферу здравоохранения спрос на медицинские услуги увеличивается, а система здравоохранения развивается. В нашей стране и во всём мире в начале 2020 года начал распространяться тяжёлый острый респираторный синдром коронавирусной инфекции COVID-19, и нормальная жизнь всего мира замерла. Пандемия COVID-19 вызвала необходимость изменить привычный образ жизни людей, в частности привела к самоизоляции, пребыванию дома, снижению активности, сведению к минимуму социальных контактов. С распространением пандемии весь

мир осознал необходимость развития сервиса телемедицины. Эта статья посвящена изучению практики телемедицины и телемедицинских услуг в период пандемии COVID-19, вопросу: какие законы в этой сфере регулируются государством, а также изучению процесса цифровизации, плюсов и минусов пандемии COVID-19, лицензирования и структуры телемедицины. Рассмотрены в деталях процесс, статистические данные, предоставленные Всемирной организацией здравоохранения, данные по выплате вознаграждения врачам за эти услуги, порядок использования пациентами телемедицинских услуг, указаны направления их развития.

Ключевые слова: пандемия COVID-19, телемедицина, телемедицинские услуги, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, цифровая трансформация, телездравоохранение.

LEGAL ASPECTS OF THE USE OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE MEDICAL FIELD DURING THE COVID-19 PANDEMIC

Yusupova Faringiz Uktam kizi,

Tashkent State University of Law,

Teacher of the Department of International Law and Human Rights

Abstract. Since the introduction of information and telecommunication technologies into the health sector, the demand for medical services has been increasing, and the health system has been developing. In our country and around the world, in early 2020, the severe acute respiratory syndrome coronavirus disease COVID-19 began to spread and the normal life of the whole world came to a standstill. The COVID-19 pandemic has created the need for people around the world to change their usual lifestyle, in particular, self-isolation, staying at home, reducing human activity, including minimizing contact with people. With the spread of the COVID-19 pandemic, the whole world has realized how necessary it is to develop telemedicine services. In this article, we will study the practice of telemedicine and telemedicine services in the period of the COVID-19 pandemic and what laws are regulated by the states, as well as the digitalization in the health sector during the COVID-19 pandemic. The pros and cons of the process of the COVID-19 pandemic, licensing, and its structure process, statistical data provided by the World Health Organization, payment of fees to doctors for these services, procedures of patients using telemedicine services, and directions of telemedicine services are considered in detail.

Keywords: COVID-19 pandemic, telemedicine, telemedicine services, digital technologies, information communication technologies, digital transformation, telehealth

Kirish

Sog'liqni saqlash sohasiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi tibbiy xizmatlarga talab keskin o'sishi va sog'liqni saqlash tizimining jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi. Fuqarolarning sog'lig'i nafaqat o'zlari, balki davlatning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun qanchalik dolzarb ekanligiga pandemiya davrida yana bir bor guvoh bo'ldik. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimi barqarorligi va uning sifatini ta'minlash ko'p jihatdan samarali davlat boshqaruvi tizimi va innovatsion yondashuvlarni ushbu sohaga joriy etishga bog'liq [1].

Ma'lumki, Covid-19 pandemiyasi sababli dunyo aholisi odatiy turmush tarzini o'zgartirishga, ya'ni o'zini izolyatsiya qilish va uyda qolishga majbur bo'ldi. Bu esa insonlar faolligini kamaytirib, o'zaro aloqalar va muloqotni minimallashtirdi.

Shu bilan birga, aholida tibbiy yordamga ehtiyoj kamaymasdan, aksincha, ancha oshdi. Natijada butun dunyo, shu qatorda O'zbekiston Respublikasida ham teletibbiyot faoliyatini rivojlantirish zaruriyati yuzaga keldi. Pandemiya davrida masofaviy tibbiy yordamning ahamiyati har qachongidan ham ortdi. Bu, ayniqsa, ushbu imkoniyatdan foydalangan

shifokor hamda bemorga keng qulayliklar yaratdi. Tibbiy yordamni masofadan turgan holda olish bemor va shifokorda o'zaro infeksiya yuqtirish xavfini kamaytirdi. Shuningdek, tibbiyot muassasasiga yetib kelishning imkoni bo'lmaganda, teletibbiyot usullaridan foydalangan holda, bemorlarga masofadan turib yordam ko'rsatilishi ham mavjud muammoga ijobiy yechim bo'ldi.

O. Bestsenny, G. Gilbert, A. Harris, J. Rost ma'lumotlariga ko'ra, "Covid-19 pandemiyasi davrida oldingi davrlarga qaraganda butun dunyoda sog'liqni saqlash tizimida teletibbiyotdan foydalanish 38 foizga oshgan" [2].

E. Tarasenkoning ta'kidlashicha, "Covid-19 pandemiyasi kirib kelishi bilan masofadan turgan holda xizmat ko'rsatish deyarli barcha sohalarga kirib keldi. Sog'liqni saqlash tizimlari, birinchi navbatda, ushbu sohani raqamlashtirishni faol o'zlashtirish zarurati bilan duch keldi" [3].

T.A. Polyakova axborot telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish butun soha rivojiga sabab bo'lishini ta'kidlab, buni "uchinchi axborotning to'liqligi", deb atagan [4].

Darhaqiqat, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Braziliya, Fransiya, AQSh pandemiyasi davrida axborot-telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, teletibbiyot xizmatlarini amaliyotga joriy qilish va uni huquqiy tartibga solishga juda katta ahamiyat qaratdi.

So'nggi yillarda butun dunyoda teletibbiyot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Biroq ushbu yo'nalish rivojlangani sari bu borada ko'plab muammolar ham kuzatilmoqda [5]. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda teletibbiyot xizmatlari ko'rsatishning texnologik jihatlari ikkinchi o'ringa tushib qolgan. Internet texnologiyalarining rivojlaniishi bilan inson salomatligiga doir ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanishga oid tibbiy muammolarga yechim topish lozim [6].

Mazkur holatdagi dolzarb masalalardan yana biri – bu teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy muammolari, to'g'rirog'i, sohadagi mavjud cheklov va to'siqlarni olib tashlashdir.

Material va metodlar

Mavzuni yoritishda tarixiylik, tizimli huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

2010-yil 19-noyabr kuni "MDHga a'zo davlatlar o'rtasida milliy teletibbiyot tizimini yaratish, ularning rivojlanishi va foydalanish bo'yicha" bitim [7] imzolangan. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi uchun 2012-yilning 1-mart sanasida kuchga kirgan. Mazkur bitimga asosan, ishtirokchi davlatlar bir-biriga mos keluvchi milliy teletibbiyot tizimlarini yaratish va ularning samarali ishlashi uchun tomonlar milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishini ta'minlashlari lozim. Jumladan:

- aholiga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun mos keluvchi teletibbiyot tizimlaridan foydalanish imkoniyati;
- teletibbiyot tizimlarining ishlashida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish chora-tadbirlari;
- teletibbiyot tizimlarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishda ishtirok etuvchi milliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining va-kolatlari, javobgarligi va o'zaro hamkorligi;
- teletibbiyot tizimida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanish tartibi;
- teletibbiyot tizimlarida axborotni hujjatlashtirish, qayta ishlash, saqlash, taqdim etish, foydalanish va himoya qilish tartibi;
- teletibbiyot tizimlarining ishlashi masalalari;
- teletibbiyot tizimlarining ishlashi ta'minlash uchun zarur bo'lgan xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, teletibbiyot tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish sohasidagi standartlarni ishlab chiqish hamda joriy etish tartiblarining bajarilishi ko'zda tutilgan.

Global axborot jamiyatiga o'tish bo'yicha Okinava Xartiyasi [8, 51–56-b.] va Axborot jamiyatini barpo etish tamoyillari deklaratsiyasi [9] axborot oqimlari va axborotni faol amalga oshirish, hayotning barcha jabhalari-da axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda ko'plab professional sohalar o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Covid-19 pandemiyasi davrida ko'plab davlatlar sog'liqni saqlash tizimida teletibbiyot xizmatlaridan foydalanish va telekonsultatsiya olib borishga shifokorlardan tashqari hamshiralarga ham ruxsat berilgan [2]. Masalan, Estoniya, Germaniya, Islandiya, Lyuksemburg, Portugaliya, AQShning ayrim shtatlarida, bundan tashqari, hozirgi vaqtgacha 23 davlatda faqat shifokorlar emas, balki tibbiyot sohasida ta'lim olgan barcha mutaxassislar telekonsultatsiya berish huquqiga ega.

Covid-19 pandemiyasi davrida sog'liqni saqlash sohasida axborot telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda xoriy davlatlar tajribasini o'rganish davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, masalan, AQShda bir shifokor tomonidan boshqa hududda yashovchi bemorga teletibbiyot orqali yordam ko'rsatishning imkoni bo'lmagan. Bunga AQShda litsenziya shifokorning shaxsan o'ziga tegishli bo'lishi asosiy sababdir. Bu esa shifokor faqat litsenziya olgan hududida xizmat vazifasini bajara olishi mumkinligini anglatadi. AQShda sog'liqni saqlash tizimi juda tarqoq bo'lib, har bir hudud o'z qonunlari mavjudligi bilan ajralib turadi [10].

Rossiya qonunchiligiga asosan, shifokor litsenziyani tibbiy tashkilot orqali oladi (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tibbiy yordam ko'rsatish hollari bundan istisno). Bu o'z-o'zidan ushbu holatda teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanishda cheklovlar o'rnatmaydi. Huquqiy munosabatlar shifokor litsenziya olgan tibbiyot muassasasi va bemor o'rtasida yuzaga keladi. Shifokor tomonidan amalga oshirilgan telekonsultatsiyada noto'g'ri tavsiyalar yoki aksincha, noto'g'ri

qo'llash oqibatlari uchrasa, shifokor emas, balki shifokor ishlagan tibbiyot muassasasi javobgar hisoblanadi. Shu sababli litsenziya shifokorga emas, balki shifokor ishlagan tibbiyot muassasasiga beriladi [11].

Ushbu institutning Covid-19 pandemiyasi davridagi ijobiy taraflari, litsenziyalash, uning tuzilishi, ushbu xizmatlar uchun haq to'lash masalalari J. Portnoy, M. Uoller, Elliott [12], B. Kalton, N. Abedini, M. Fratkin [13], J.E. Hollander, B.G. Karr kabi olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash sohasida teletibbiyot xizmatlaridan foydalanish va ularni litsenziyalash orqali masofadan ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarning turiga qarab tibbiy javobgarlik masalalarini hal etish mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son Qonuni 16-moddasi talablariga muvofiq, muddatli litsenziya taqdim etiladigan faoliyat turlaridan biri sifatida tibbiy faoliyat ham belgilangan, ammo masofaviy tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha normalar kiritilmagan. Bu esa quyidagi muammolarga sabab bo'ladi:

birinchidan, litsenziya olishda ariza beruvchi tadbirkorlik faoliyati subyekti malakali tibbiy xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan talablarga muvofiqligi, tibbiyot xodimlari va ularning malakasiga oid va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish orqali ushbu faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini asoslab berishi lozimligi nazarda tutilmagan;

ikkinchidan, litsenziyaning tibbiy yordam ko'rsatish joyiga berilishi shifokorning uyda turgan holda, teletibbiyot usullaridan foydalanishiga yo'l qo'yilmasligiga olib keladi. Oddiygina konsultatsiya uchun ham shifokor tibbiyot muassasasi hududida bo'lishi lozim. Bu teletibbiyot xizmatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ya'ni koronavirus infeksiyasiga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatiladigan shifoxonaga oddiygina shamol-

lash bilan kelgan bemorlarga koronavirus infeksiyasi yuqtirish sonini ko'paytiradi. Bunday cheklovlarining ortiqchaligi, ayniqsa, Covid-19 koronavirus infeksiyasining tarqalishi kontekstida yaqqol namoyon bo'ldi. Boshqa nuqtayi nazardan teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish to'g'ridan-to'g'ri epidemiya tarqalishining oldini olish uchun qilingan choralardan biri hisoblanadi. Bu bemorlar shifokorlar bilan, bemor bemor bilan qiladigan aloqalarning cheklanishi va epidemiyaning oldini olish uchun qilingan qadamlardan biri bo'ladi.

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasida litsenziya berishning yana bir tartibi – litsenziyada tibbiy yordam ko'rsatish manziling ko'rsatilishidir. An'anaga ko'ra, bu tibbiy yordam ko'rsatadigan tashkilotning binolari hisoblanadi (shoshilinch tibbiy yordam va tibbiy yordam ko'rsatish uchun bemorlarning uyiga borish bundan mustasno). Tibbiy yordam ko'rsatiladigan joy – bu shifokorning xonasi bo'lib, shifokor bemorga ushbu xonada konsultatsiya beradi. Lekin bir qiziq savol tug'ildi: shifokor bemorga teletibbiyot orqali konsultatsiya bersa, shifokorning ushbu xizmatni amalga oshirgan joyi hisobga olinadimi yoki bemor joylashgan joymi? Ammo bu masala qonuniy tartibga solinmagan. Shu sababli ushbu masalani har xil talqin qilish mumkin. Bu esa litsenziya talablari buzilishiga olib keladi. Shu sababli ushbu masalani qonuniy jihatdan tartibga solish muhim.

Covid-19 pandemiya davrida aksariyat kishilar o'z ish faoliyatini uydan turib amalga oshirdi. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, shifokorlar ish faoliyatini bu tarzda olib borolmadi. Bunga asosiy sabab litsenziya masalasi bo'ldi va ushbu masala ochiq qoldi. Mehnat kodeksining 452-moddasida masofadan turib ishlash mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasini ish beruvchi joylashgan yerdan, tashkilotning alohida tuzilmasidan (shu jumladan, boshqa yerda joylashganlaridan) ish beruvchining bevosita

yoki bilvosita nazoratida bo'lgan statsionar ish joyidan, hududdan yoki obyektidan tashqarida bajarishdan iborat bo'lib, bunda mazkur mehnat vazifasini bajarish hamda uni bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ish beruvchi bilan xodim o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish uchun axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish shartligi belgilangan. Bu esa tibbiyot muassasalari va shifokorlar o'rtasida qo'shimcha shartnoma tuzilgan holda, shifokorlar teletibbiyot orqali masofadan turgan holatlarda ham o'z ish faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkinligidan dalolat beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi nufuzli tashkilotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, teletibbiyotning amaliyotga joriy etilishiga asosiy to'sqinlik qiladigan masala – bu teletibbiyotning huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligidir [14].

Jahon sog'liqni saqlash assambleyasining elektron sog'liqni saqlash bo'yicha WHA58.28-sonli rezolyutsiyasiga asoslangan holda, aytish mumkinki, mamlakatimizda elektron sog'liqni saqlash tizimidan foydalanishni takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida mobil ilovalar yaratish orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu mobil ilovadan shifokorlarning sohaviy yo'nalishlari bo'yicha ro'yxati, ish manzillari, ish staji, malakasi, qabul vaqti haqida axborot olish, shuningdek, masofadan navbatni band qilib qo'yish imkoniyatini beruvchi "elektron navbat" tizimini yo'lga qo'yish, ko'rsatiladigan xizmatlar va tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash, onlayn konsultatsiyalar berish kabi bo'limlar o'rin oladi.

Yuqorida keltirilgan teletibbiyot orqali tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha talablarni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son Qonuniga kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

REFERENCES

1. Zaytseva N.A., Shiryaeva A.S. Telemeditsina v sovremennoy sisteme zdravookhraneniya [Telemedicine in the modern healthcare system. Bulletin of medical Internet conferences]. *Bulletin of the Medical Internet Conference*, 2016, no. 6 (1), p. 58. Available at: <https://medconfer.com/node/5613>
2. Deryuginoy J. Telemeditsina: Istoriya i razvitiye [Telemedicine: History and Development]. Available at: https://www.referatmix.ru/referats/55/referatmix_131242.htm
3. Hollander J.E., Carr B.G. Virtually perfect Telemedicine for Covid-2019. *New England Journal of Medicine*, 2020, vol. 382, no. 18, pp. 1679–1681.
4. Polyakova T.A. Tsirovizatsiya i sinergiya pravovogo obespecheniya informatsionnoy bezopasnosti [Digitalization and synergy of legal support of information security]. *Information Law*, 2019, no. 2, pp. 4–7.
5. Orlov O. Rossiyskaya telemeditsina [Russian telemedicine]. Available at: <https://www.itweek.ru/idea/article/detail.php?ID=53109>
6. Council of Europe Convention for the Protection of Human Rights and Human Dignity with regard to the Application of Biology and Medicine. Ovedo, 1997, April 4, ETS No. 64.
7. Agreement on cooperation between the CIS member states in the creation of compatible national telemedicine systems and their further development and use. Sankt Petersburg, 2010, November 19. *Bulletin of International Treaties*, 2013, no. 2, pp. 26–31.
8. Okinawa Charter for the Global Information Society. Adopted to Okinawa. 2000, July 22. *Diplomatic Messenger*, 2000, no. 8, pp. 51–56.
9. Declaration of principles for building the information society - a global challenge in the new millennium. 2003, December 18, WSIS-03/GENEVA/DOC/4.
10. Halfen E.Sh. Remote consulting and diagnostic cardiological center with a telemetric system for electrocardiography. *Cardiology*, 1974, vol. 14 (10), pp. 24–30.
11. Smishlyayev A.V., Melnikov Yu., Artemova P. Zarubezhniy opyt gosudarstvennogo regulirovaniya primeneniya tekhnologiy telemeditsiny [Foreign experience of state regulation of the use of telemedicine technologies]. *Problems of Economics and Legal Practice*, 2018, no. 14, p. 208.
12. Portnoy J., Waller M., Elliott T. Telemedicine in the Era of Covid-19. *The Journal of Allergy and Clinical Immunology: in Practice*, 2020, vol. 8, no. 5, pp. 1489–1491.
13. Calton B., Abedini N., Fratkin M. Telemedicine in the time of coronavirus. *Journal of Pain and Symptom Management*, 2020, p. 352.
14. Outbreak of coronavirus infection COVID-19. Available at: <https://www.who.int/ru/emergencies/diseases/novel-coronavirus-2019>
15. Roy J., Levy D.R., Senathirajah Y. Defining Telehealth for Research, Implementation, and Equity. *Journal of medical Internet research*, 2022, vol. 24 (4), p. e35037. DOI: 10.2196/35037/.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 5-SON

VOLUME 3 / ISSUE 5 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 27.10.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 15,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 89.

TDYU tipografiyasida chop etildi.